

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Yuldashev Saidanvarbek Baxromjon o'g'li

**O'rta asrlarda Farg'ona: siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy
jarayonlar (V-XIII asrlar)**

5A 120301 - «O'zbekiston tarixi» mutaxassisligi bo'yicha
magistr akademik darajasini olish uchun taqdim
etilgan

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar - tarix fanlari nomzodi
R. Arslonzoda

Farg'ona-2017

M U N D A R I J A

Kirish	3-6
I bob. Ilk o'rta asrlarda Farg'onada ro'y bergan siyosiy voqealar.....	7-41
1.1. Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida Farg'ona vodiysi.....	7-22
1.2. Farg'ona arablar bosqini davrida.....	23-41
II bob. IX-XIII asrlarda Farg'onadagi siyosiy jarayonlar.....	42-59
2.1. Farg'ona vodiysi Somoniylar davlati tarkibida.....	42-51
2.2. Farg'ona vodiysi Qoraxoniylar hukmronligi davrida.....	52-59
III bob. V-XIII asrlarda Farg'onadagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.....	60-92
3.1. V-XIII asrlarda Farg'onadagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar.....	60-73
3.2 V-XIII asrlarda Farg'onada ilm-fan va madaniy hayot.....	74-92
Xulosa.....	93-95
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati.....	96-100

K I R I S H

Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi. Yurtimizda hayotbaxsh o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida jamiyat a'zolarini erkin, demokratik tafakkur va milliy g'oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining ahamiyati ortib bormoqda. Mustaqil O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlar, tarix fani oldida ham o'ta ma'suliyatli va shu bilan birga murakkab vazifa qo'ydi. Tarix fani jamiyatning ma'naviy yangilanishida harakatlantiruvchi kuch va tarixiy haqiqatni tiklashda, milliy g'oyani shakllantirishda bitmas-tuganmas manba bo'lish vazifasini bajarishi kerak. Tarix fanining jamiyatni tizimli ravishda qayta qurish jarayonida egallagan muhim mavqei haqida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov republika tarixchi olimlari bilan bo'lgan uchrashuvda (1998-yil, iyun) hamda milliy g'oya va milliy mafkurani ilmiy jihatdan ishlab chiqishga bag'ishlangan boshqa ma'ruza va suhbatlarida "...tarix – xalq ma'naviyatining asosidir", "o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", deb alohida ta'kidlagan edi. Binobarin, O'zbekiston tarixining ajrajmas qismi bo'lgan Farg'ona vodiysining o'rta asrlar tarixini yozma va arxeologik manbalar asosida kompleks ravishda qayta o'rganish va konseptual asosda qayta baholash ham ilmiy, ham siyosiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston asrlarga tatigulik yo'lni bosib o'tdi. Iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada, fan sohasida ko'plab yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu Farg'ona vodiysi tarixini o'rganisha ham o'z ifodasini topdi. Jumladan, Farg'ona davlat universitetida 2012-yildan boshlab "Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda" mavzusida muntazam ravishda ilmiy-nazariy konferensiyalar o'tazib kelinmoqda. Namangan va Andijon davlat universitetlarida ham shunday ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda. Ushbu anjumanlarda Farg'ona vodiysi tarixining ko'p qirralarini yoritib beruvchi ilmiy ma'ruzalar qilinmoqda

Ma'lumki, Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlar tarixini o'rganish dastlab rus tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan. Mustaqillik davriga kelib esa ushbu mavzu

bo'yicha A. Xo'jayev, A.Otaxo'jayev, Sh.Kamoliddin, B.X Matboboyev, A. Anorboyev va G. Ivanov singari olimlar tomonidan ilmiy tadqiqodlar olib borilmoqdalar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida Vatanimiz olimlarining sa'y-harakatlari tufayli O'zbekistonning, jumladan Farg'ona vodiysining bronza, temir davri bo'yicha o'tmish tariximizning bir qator sahifalari yangi tadqiqotlar asosida qayta tiklandi. Lekin, shunga qaramasdan vodiyning o'rta asrlar tarixi bo'yicha hali ko'p masalalar borki, ularni hozirgi zamon talabi asosida, xolisona yoritish olimlar oldida turgan muhim masalalardan biridir.

Tadqiqot obyekti. Farg'ona vodiysida o'rta asrlarda yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi Farg'ona vodiysida o'rta asrlarda kechgan siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilishdan iboratdir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, ishda quyidagi vazifalarni hal etish nazarda tutilgan:

- Farg'ona vodiysida Eftaliylar va Turk xoqonligi davridagi siyosiy ahvolini ko'rsatish;
- Farg'ona vodiysida arablar istilosi davridagi siyosiy jarayonlarni yoritib berish;
- Somoniylar va Qoraxoniylar davrida vodiyning siyosiy taraqqiyotini tadqiq etish;
- O'rta asrlarda Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni kuzatish;
- V-XIII asrlarda Farg'ona vodiysidagi madaniy jarayonlarni tadqiq etish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur ishda ilk marotaba yozma va arxeologik manbalar asosida Farg'ona vodiysining o'rta asrlar tarixi tizimli va kompleks tarzda maxsus o'rganilmoqda.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mustaqillik sharoitida jamiyat a'zolarini erkin, demokratik tafakkur va milliy g'oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining ahamiyati ortib bormoqda. Milliy istiqlol yillarida Vatanimiz tarixini haqqoniy, ilmiy asosda o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va O'zbekiston tarixining ko'pgina masalalari o'zining yangi, ilmiy jihatdan xolis va haqqoniy yechimini topa boshladi. Chunki, respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, «O'z tarixini bilmagan jamiyat istiqbolga eltuvchi yo'lni topa olmaydi. Tarixga bepisand xalqning kelajagi yo'q»¹.

Farg'ona vodiysining o'rta asrlar tarixi davlatchiligimiz tarixida muhim o'rin tutadi. Bu davrda vodiya Eftaliylar, Turk xoqonligi va arablar ketma-ketlikda hukm surganlar. Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlar tarixi hali alohida tadqiqot mavzusi sifatida olinmagan va ilk o'rta asrlar tarixi bo'yicha fundamental asar yaratilmagan. O'tgan asrda A.N Bernshtam tomonidan "Qadimgi Farg'ona" nomli risolasida turklar va arablarning vodiydagi faoliyati haqida to'xtalib o'tilgan. 2013-yili esa A. Xo'jayev tomonidan "Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar" kitobi nashr etildi. Unda Farg'ona vodiysi tarixiga oid xitoy manbalari tarjimalari va sharhlari keltirilgan. Shuningdek, A. Otaxo'jayev va M.M Xatamovalar ushbu davr bo'yicha jiddiy ilmiy tadqiqot olib borishmoqda. Biz magistrlik dissertatsiyasini yozishda yuqoridagi tadqiqotchi olimlarning Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlar tarixi bo'yicha 2012-yil Namangan Davlat Universitetida, 2012-2014-yillarda Farg'ona Davlat Universitetida tashkil etilgan ilmiy konferensiyalardagi ma'ruzalaridan foydalandik.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Mavzuni o'rganishda Prezident I.A.Karimovning asarlari, ayniqsa, uning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" va "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarlarida O'zbekiston tarixi haqida bildirilgan fikrlar, milliy istiqlol g'oyasi muhim metodologik ahamiyatga ega bo'ldi. Mavzu tarixiylilik, obyektivlik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy tamoyillar asosida o'rganildi.

¹ Karimov I. Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q. - Toshkent: Sharq, 1998. B. 12.

Tadqiqot manbalari. Mavzuni o'rganishda o'rta asrlarda musulmon Sharqida yaratilgan asarlar manba bo'lib xizmat qilgan. Jumladan, Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Al-Balazuriyning "Kitob futuh al-buldon", Ibn Xurdodbehning "Kitob masolik al-mamolik", Tabariyning "Tarix ar- rusul va-l-muluk", Is'hoqxon Junaydullohxo'ja o'g'li Ibratning "Farg'ona tarixi", Ibn Xavqalning. "Kitab surat ul-arz" asarining o'zbek va rus tillaridagi nashridan, Ibn al-Asirning "Al-kamil fi-t-Ta'rix", Abu-l-Fadl ibn Muxammad Djamal ad-Din Qarshiyning. "Mulkahat as-surox" asarlaridan foydalanildi. Shu bilan birga mazkur asarlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham mavzuni o'rganishga jalb etildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda keltirilgan materiallar va xulosalardan Fargona vodiysi tarixini yozishda, oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixining o'rta asrlar tarixiga oid maxsus kurslar va seminarlar o'tishda, o'quv qo'llanmalar yaratishda, ilmiy maqolalar yozishda foydalanish mumkin.

Ilmiy ishning aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning tuzilishi, yo'nalishi va mazmuni Farg'ona Davlat universitetining tarix kafedrasida muhokama qilingan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 2016-yilda Farg'ona Davlat universitetining "Ilmiy xabarlar" jurnalida ilmiy maqola va 2017-yilda Farg'ona Davlat universitetida bo'lib o'tgan "Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda" mavzusidagi IV respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma'ruza e'lon qilingan.

Ishning xronologik chegaralari. Ishning xronologik chegarasi milodiy V asrdan to XIII asrgacha bo'lgan davr oralig'ini o'z ichiga oladi. Ishda ushbu davrda Farg'ona vodiysida ro'y bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar rivoji ko'rsatib beriladi.

Tadqiqotning tuzilishi. Mazkur dissertatsiya kirish, uchta bob, 6 ta paragraf, xulosa hamda foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. Ilk o'rta asrlarda Farg'onada ro'y bergan siyosiy voqealar

1.1. Eftaliylar va Turk xoqonli davrida Farg'ona vodiysi

Eftaliylar, yoki VI asrdagi Vizantiya tarixchisi Prokopiyy ta'biri bilan aytganda, "oq xunlar" Orol dengizining shimoli-sharqida qo'nim topgan qabilalar ittifoqi edi. Ularning kelib chiqishi Xitoy manbalariga ko'ra, Xan sulolasi davrida yashagan ulug' yavchillar (xun)larga borib taqalardi. V asr arman tarixchilari ularni kushonlardan deb hisoblardi. Aynan Kushonlar va Qang' davlatining tanazzuli bu qabilalarning birlashishiga va qudratli davlat tuzishiga imkoniyat berdi. 420-yilda janubga harakatlangan Eftaliylar So'g'd, Baqtriya hamda Hindiston yarim orolining shimoli-g'arbiy qismlarini egallab, Kushon saltanati yerlarini batamom o'ziga bo'ysundirdi².

Garchi Eftaliylar davri(V-VI asrlar)da mintaqadagi mayda mulklar (Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Choch, Farg'ona va h.k) hayotida u qadar iqtisodiy yuksalish sezilmadi, degan qarashlar mavjud bo'lsa-da, manbalar bu davrda ham O'rta Osiyo iqtisodi jadal bo'lmasa-da, o'z maromida taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Bunday sokin holatga mintaq uchun boshlangan Eftaliylar va Sosoniylar o'rtasidagi kurash ham o'z ta'sirini ko'rsatgani shubhasiz.

Eftaliylarning birinchi hukmdori Oq Sivar (420-470) davridagi urushlar mintaq iqtisodiga jiddiy zarar keltirdi. Ammo u 457-yilgacha Badaxshon, Tohariston, Chag'aniyon, Go'zgon (Murg'ob daryosining o'rta oqimi) hududlarini qo'lga kiritdi. Sosoniylari shohi Pero'z (459-484) davridagi eftaliy-sosoniy urushlari Eftaliylar diplomatiyasining o'ziga xos qirralarini ochib beradi. Birinchi to'qnashuvda Pero'z asir olinib, ittifoqchisi Vizantiya imperatori Zenon iltimosi bilan katta to'lov evaziga ozod qilingan edi. Bundan tashqari, shartlashuvga ko'ra, Sosoniylar chegara shahar Tolikondan o'tmaslikni o'z zimmasiga olgan edi. Ammo Vizantiya elchisining

² Отахўжаев А.Эфталлийлар ҳукмронлиги даврида Фарғонанинг дипломатик алоқалари // "Фарғона водийси янги тадқиқотларда" мавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. - Фарғона, 2014. Б. 156.

475-yilda Pero'z huzuriga tashrifi va urush bo'ladigan taqdirda Vizantiya uni oltin bilan ta'min etish va'dasi Eron hukmdorini yana Eftaliylarga qarshi urushga ilhomlantirdi ³. Ikki o'rtadagi urushda Iftalanos (470-496) boshchiligidagi Eftaliylar g'alaba qozondilar. Pero'z yana asirga olindi. Uni ozod qilish uchun Eftaliylar o'ttiz xachirga yuk bo'ladigan kumush dinor talab qilishdi. Bu safar Pero'z uchun 20 xachirga yuk bo'ladigan kumush dinor to'plandi, xolos. Shu bois Pero'z o'z o'g'li Qubodni qolgan pullarni to'lagach qaytarib olish sharti bilan Eftaliylarga tutqin qilib qoldirishga majbur bo'ldi. Bundan tashqari, Pero'z o'z singillaridan birini Iftalanosga turmushga berib, Eftaliylar bilan qarindosh bo'lishni ham niyat qildi. Biroq, Pero'z bu safar o'z singlisi o'rniga boshqa bir qizni yubordi. Bundan xabar topgan Iftalanos Erondan vakil bo'lib kelgan harbiylarning yarmini yo'q qilishni va qolganlarini kaltaklashni buyurdi. 484-yil Pero'z yana Vizantiya bilan bog'lanib, uchinchi bor Eftaliylar ustiga urush bilan bordi. Bu safar Eron qo'shinlari oldindan tayyorlab qo'yilgan pistirmaga tushib, tor-mor etildi. Bu urushda Pero'z va uning yetti o'g'li halok bo'ldi. Bu urushdan so'ng Eftaliylar Marv vohasi, Qobul va Panjob vohalarini qo'lga kiritdi. Kuchar, Qashqar va Xo'tanni (Sharqiy Turkiston)ni zabt etadilar. Shunday qilib, Eftaliylar Kushonlar sulolasi egallagan hududlarni to'liq qo'lga kiritib, o'z siyosiy hokimyatini yanada mustahkamlaydilar. Eftaliylar o'zining g'arbi-janubiy qo'shnisi bo'lgan kuchli raqib Eron Sosoniylarini ham uzoq muddat (554-yillargacha) xiroj to'lashga majbur qilganlar.

VI asr boshlariga kelib Eftaliylar sulolasi shu qadar kuchayib ketdiki, ular 502-yilda Vizantiyaga yurish qilib, 506-yilda sulh tuzadilar. Ular Vizantiyadan katta miqdorda o'lja olib qaytganlar. Eron Sosoniylarining hukmdori Pero'zning o'g'li Qubod, uning o'g'li Xusrav I Anushervon ham 554-yilga qadar Eftaliylarga xiroj to'lab turganlar. Keyinroq Turk xoqonligining Eftalitlarga bergan kuchli zarbasidan so'ng Eron ularning ta'siridan xalos bo'lgan.

³ Ўша жойда. Б. 157.

Bu paytda Eftaliylarni To'ramon (496-510) va Mehrikor (510-540) kabi podshohlar boshqardi. Faqat Gatifar (540-556) davrida Eftaliylar o'zlariga qarshi jiddiy raqib – Turk xoqonligi paydo bo'lganligini his qildilar. Bundan tashqari, Mehrikor davrida Eftaliylar sharqiy sarhadlarini mustahkamlash bilan band edi. 516 – yilda Eftaliylar o'z elchilarini Chanjan (Yanszi)ga, Loyan sulolasi (502-557) podshosi huzuriga yuborib, Xitoy davlati bilan aloqa o'rnatdi. So'ngra Xitoy raqibi bo'lgan avarlar bilan ham bir necha bor to'qnash keldi. Bu to'qnashuvlarga barham berish maqsadida avarlar diplomatik vositaning sinalgan usuli qudachilikni yo'lga qo'ydi. Mehrikor avar xoqoni Aynagayning (521-551) singlisiga uylandi. Chunki avarlar yangi kuch – turklar bilan to'qnashuvdan xavotirda edilar. Eftaliylar bilan murosa ularga turklarga qarshi kurashga imkon berar edi. Ammo Turk xoqonligi oldida Eftaliylar o'jizlik qildi. 567-yilda Buxoro yaqinidagi jangda Eftaliylar tor-mor etildi. Bundan foydalangan Sosoniylar Eftaliylarga boy bergan hududlarini qo'lga kiritdilar⁴.

Bu davrda muayyan siyosiy barqarorlik ham hukm surdi. Bundan tashqari, Eftaliylar mahalliy o'troq mulkliklarning ichki ishlariga aralashmadi. Bundan unumli foydalangan mulkliklarning hokimlari, jumladan, Sug'd, Farg'ona kabi hokimliklar va ularning tujjorlari siyosiy va iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'lgan Xitoy bilan aloqalarini yanada faollashtirdilar. O'z navbatida siyosiy va iqtisodiy manfaatdorlik Xitoy sulolalari, xususan Shimoliy Vey sulolasi (385-534 yy.) hukmdorlarini O'rta Osiyoga bo'lgan qiziqishini orttirgan edi. Xitoyliklarning VI asrga oid "Vey shu" va VII asrga oid "Bey shu" solnomalarida aynan o'sha davr haqidagi aloqalar xususida ma'lumotlar yozib qoldirgan. Ularda keltirilishicha, 437-yilda mustaqil Choch – Chjeshe (Chiachiat) davlatidan⁵, 479-yilda Farg'ona davlati – Polonadan elchilar va savdo karvonlari Xitoyga borgan⁶. O'z navbatida Xitoy ham azaldan o'z vakillarini, asosan buddaviy rohiblarni O'rta Osiyoga yuborib turgan. Jumladan, Xan imperiyasi

⁴ Тургун Алмас. Уйгуры. Кн.2. – Алма-Ата, 1994. С. 163-164.

⁵ Ходжаев А. Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Шаш (Ташкент) // О'zbekiston tarixi. 2005. № 2. – С. 3–18.

⁶ Отахўжаев А.Эфталлийлар ҳукмронлиги даврида Фарғонанинг дипломатик алоқалари // "Фарғона водийси янги тадқиқотларда" мавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона, 2014. Б. 159-160.

davrida (mil.avv. 206-33-yy.) Xitoydan O'rta Osiyoga birinchi bo'lib kelgan elchi Chjang Chyan (mil.avv. 114-yilda vafot etgan) bo'lgan. Umuman olganda, Xitoy ma'murlari bunday elchilarga elchilik vazifasini bajarib bo'lgach, "buovang-xuo" ("uzoqni ko'ruvchi – bilimdon to'ra") unvonini berishgan. Bu unvon ba'zan viloyatlarning harbiy nozirlariga ham berishgan. Bundan tashqari, Farg'onaga yuborilgan Xan qo'mondoni Li Guangiga hatto "rieysheiy jyangjyun" ("Ershi qo'mondoni") degan unvonga sazovor bo'lgan. Bu kabi unvonlar Xitoy diplomatik institutlariga xos bo'lsa-da, O'rta Osiyoga kelgan elchilarining yoki boshqa soha vakillarining mansab darajalarini belgilashda muhimdir.

O'rta Osiyodan Xitoyga elchilik missiyalari ham uzluksiz jo'natilib turilgan. "Beyshi" solnomasining 97-bobida keltirilishicha, milodiy 229-yilda, ya'ni Tayxe hukmronligining uchinchi yilida Farg'onadan Vey imperatori huzuriga elchilar yuboriladi. Ular imperatorga "tanasiidan qonsimon ter oqadigan ot" sovg'a qilganlar. Bu davrdagi O'rta Osiyo Xitoy munosabatlarida nafaqat otlar, balki "antiqa" hunarli shaxslarning saroydagi mahoratlari ham manbalarda aks etgan. "Tungdyan" solnomasining 3-jild, 193-bobida yozilishicha, Shimoliy Vey hukmdori Tay-u Chjenjyun hukmronligining 9-yili, ya'ni 416-yilda Yaypan (xunlar davlati – Yivatpuan/Yuepan) hukmdoridan elchilar kelgan. Elchilar o'zlari bilan sovg'a sifatida bir nafar nayrangbozni olib kelishgan. Bu nayrangboz odamni kallasini tanasiidan judo qilib, uni giyohlar bilan davolab, o'likni tiriltirgan. Shundan so'ng imperator "odamlarga /uning/ hunarini o'rganishni va undan to'la foydalanishni buyuradi". Shu o'rinda hozirda mashhur Xitoy tabobati o'z vaqtida ayrim davolash usullarini o'rta osiyoliklardan o'rganganligi ehtimoli ham paydo bo'ladi.

Umuman, Eftaliylar davrida O'rta Osiyoning tashqi aloqalarida, chorva mollari – zotdor qo'ylar, otlar kabi sovg'alar bilan chetga elchilarni yuborish odat bo'lgan ko'rinadi. Qolaversa, Farg'onaga tashrif buyurgan Xan imperiyasi elchilari o'zlari bilan yurtlariga uzum va beda urug'i olib qaytishgani taxminan 990-1007-yillarda yozilgan "Tayping xuanyuy ji" ("Tinchlik o'rnatilgan zamin bayoni") manbasida ham

aks etgan. Bu elchiliklar bir necha yuz kishidan iborat bo'lgan. Elchilarning ayrimlari "buvang-xau" (bilimdon hokimlar) unvonida bo'lgan. Elchilar bir yilda 5-6 va ba'zan 10 martagacha yuborilgan. Masofaga qarab elchilar bir necha yildan 8-9 yilgacha safarda bo'lishgan. Xitoydan yuborilgan elchilarning ixtiyori o'zida bo'lmay, bunday og'ir safarga imperatorning farmoni bilan chiqishga majbur bo'lishgan. Xan davri ma'lumotlariga ko'ra, yuborilgan elchilarning bir qismi kambag'allardan bo'lgani bois xorijda o'zlarini tuta bilishmagan. Natijada "xorij davlatlar Xan elchilarini hurmat qilmay qo'yishgan"⁷. Bu kabi holatlar elchilar taqdirini murakkab ahvolda qoldirgan. Ammo qay holatda bo'lmasin, tomonlarning aloqalari davom etavergan.

O'rta Osiyo, jumladan Farg'onadan Xitoyga yuborilgan elchilar tomonidan hukmdorga otlar sovg'a qilish odati, "Tungdyan" solnomasiga ko'ra, "xepin" (tinchlik) davrining (460-465) 6-yili (465 yil)da va Shyaoven-di (471-477) zamonasidagi "tayxe" (oliy darajadagi tinchlik) davrining 3-yili (479 yil)da ham kuzatilgan⁸.

Eftaliylar davrida O'rta Osiyo, Xitoy, Eron o'rtasida savdo sohasida raqobat ancha kuchaydi. Bu esa ayrim hollarda harbiy harakatlarga ham sabab bo'ldii. O'sha davrda o'zaro kelishuvga ko'ra, Xesi hududi, tarixchi Li Min-vey fikricha: "o'ziga xos mustaqil yoki yarim mustaqil, barqaror hudud", deb e'lon qilingan bo'lsa-da⁹, u yerga kelgan o'rta osiyolik savdogarlar uchun turli sun'iy to'siqlar qo'yildi. Natijada o'rta osiyoliklarning erkin savdo qilishlari qiyin kechdi. Hatto, 439-yilda Shimoliy Vey imperatori Tay U-di erkin savdo shahri Lanchjouni egallab, aksariyat o'rta osiyolik, xususan so'g'diy bo'lgan savdogarlarni asirlikka oldi. Bundan xabar topgan So'g'd ma'muriyati o'z elchilarini Xitoyga yuborib, katta garov evaziga asirdagi

⁷ Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). Фарғона, 2013.Б. 127, 143-146.

⁸ Ўша жойда.Б.120-121

⁹ Отахўжаев А.Эфталлийлар ҳукмронлиги даврида Фарғонанинг дипломатик алоқалари // "Фарғона водийси янги тадқиқотларда" мавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона, 2014. Б. 2014. Б. 159-160.

so'g'diylarni yana Lanchjouga qaytarishga muvaffaq bo'lishgan¹⁰. Shundan so'ng muzokaralar olib borilib, Xesi urushlardan xoli etilgan hudud sifatida e'tirof etilgan.

Ilk o'rta asrlarning dastlabki bosqichi V–VI asrlarda So'g'd butun Markaziy Osiyoda o'z tasarrufini o'rnatgan Eftaliylar davlati tarkibida bo'lsa ham, o'zining nisbiy siyosiy va mutlaq iqtisodiy mustaqilligi saqlab qoldi. Bunga Eftaliylarning davlat boshqaruvidagi o'ziga xoslik, ya'ni ko'chmanchi turmush tarzi ta'sirida shakllangan boshqaruv usuli ham imkon bergan edi. Eftaliylar o'troq hudud aholisining iqtisodiy imkoniyatlari va aholisining savdo-tijorat sohasidagi salohiyatlaridan unumli foydalandilar. Ayni vaqtda O'rta Osiyo mulkliklariga to'liq iqtisodiy faoliyat uchun zamin yaratib, ularning manfaatlarini himoya qildi. Bundan unumli foydalangan mahalliy hokimliklar o'sha davr tashqi siyosatiga xos diplomatik institutlarida mavjud an'analarini saqlab qoldilar. Eftaliylar tasarrufidagi bepoyon hududlar geografik jihatdan ularga yangi imkoniyat qirralarini ochib berdi. Qolaversa, eftallarning o'zlari ham shahar sharoitiga moslashib, shaharlarda yashay boshlaganlar. Ularning kuchli harbiy qobiliyati va qurollangan soqchilari mamlakat ichkarisidagi barqarorlikni ushlab turgan. Karvonlar va ular bilan safarga o'tlangan diplomatlarning xavfsizligi shu kuchlar tomonidan ta'minlangan.

Eftaliylar davri siyosatida bu sulolaning mahalliy hukmdorlarning o'z tashqi aloqalarini amalga oshirishlari uchun erkinlik berishi ikki jihat bilan xarakterlanadi. Ijobiy jihat, o'rta osiyolik hokimlar xorij davlatlari bilan emin-erkin savdo-iqtisodiy aloqalarini yo'l qo'yishgan va eftaliy hukmdorlarga o'lpon va soliqlar to'lab turish bilan kifoyalanishgan. Salbiy jihat shunda ediki, O'rta Osiyo mulklaridan Xitoyga yuborilgan elchilari qudratli imperiyalar oldida bir qadar himoyasiz edilar. Bu holat Xitoyga tashrif buyurgan elchilarning munosabatlarda o'ta ehtiyotkor bo'lishlarida va imperatorlarning ko'nglini ovlashga harakatlarida kuzatiladi. Shu bois behisob, qimmatbaho sovg'a-salomlar bilan Xitoyga tashrif buyurilgani ham sir emas.

¹⁰ Ўша жойда. Б. 159.

Xulosa qilib aytganda, Eftaliylar hukmronligi davrida mintaqalari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya uchun muayyan imkoniyatlar paydo bo'lgan edi. Eftaliy hukmdorlarining mahalliy hokimliklar (Sug'd, Farg'ona, Choch, Ustrushona, Tohariston va b)ning ichki ishlariga aralashmasligi, ularning faol tashqi aloqalar olib borishlari uchun zamin yaratdi. Qolaversa, Eftaliylarning O'rta Osiyo hududlarini Sosoniylar hurujidan himoya etganligi, mahalliy hokimliklarning barqaror rivoji uchun muhim omil bo'lgan edi.

563-yilda eftalitlarga qarshi ikki tomonlama hujum uyushtirildi. Ya'ni shimoldan turkiylar, janubdan eron Sosoniylarini hujumi natijasida Eftaliylar inqirozga yuz tutadi. Bu jarayon 562-567-yillarni o'z ichiga oladi.

G'arbiy turk xoqonligi ushbu epopeyasini qaytardi. VI asr oxirida Yettisuv dashtlarida va Tyanshan tog'ida vujudga kelgan G'arbiy turk xoqonligi tez orada Farg'onada o'z hukmronligini o'rnatdi. "Poytaxt" vodiysidagi turklar Farg'ona vodiysiga qo'shni bo'lgan, Talosdagi turklar Ketmontepa va Chotqol orqali Farg'ona vodiysiga kirib kelishi mumkin bo'lgan¹¹. Turklarning Farg'ona bilan tor doiradagi o'zaro munosabatlarining mohiyati shunda ediki, turklarning qabristoni Chotqolning janubiy yonbag'rida, Namangan viloyati shimolidagi Ungur tog'ida joylashganligi edi. Turklar vodiyni bosib olganidan so'ng bir muddat mahalliy sulola o'z boshqaruvida qoldirilgan ko'rinadi. Chunki xitoy manbalarida 560-yillardan to 627-649-yillar oralig'idagi davrda Farg'onadagi siyosiy vaziyat va hukmron sulola haqida va umuman, qadimgi turklarning hukmdorlik siyosiy hayotiga aralashganligi borasida hech qanday ma'lumot uchramaydi. Faqat "Suy-shu"da 605-yili mahalliy hukmdorning Xitoyga o'z mahsulotlari bilan elchi jo'natganligi qayd etilgan, xolos¹². Shuningdek, Vey sulolasiga oid manbada Farg'ona davlati hukmdori, uning poytaxti va boshqa shunga o'xshash muhim ma'lumotlar uchraydi. Masalan, : "Fargona davlatining poytaxti Pomir (Tsongling)ning g'arbida 50 li narida joylashgan bo'lib, u

¹¹ Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). - Ташкент: изд-во АН Уз ССР, 1951. С. 22.

¹² Хотамова М. Фарғонада туркий сулола // "Фарғона водийси янги таджикотларда" мавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона, 2014. Б. 81.

qadimda Giashieu deb atalar edi. Hukmdorning familiyasi Jabgu (Chjav'u), ismi Alchi (Alichi). Poytaxt devori aylanmasiga 4 li (2,304 km) keladi. Askarlarining soni bir necha ming kishidan iborat. Hukmdor oltin qo'chqor shaklidagi taxtda o'tiradi. Hukmdorning xotini oltin toj taqadi. Bu yerda qizil kum, oltin, temir ko'p"¹³. Farg'ona hukmdorining xitoy manbalarida "jabg'u" tarzida uchrashi Farg'onaning Turk xoqonligiga tobeligi davriga oid bo'lsa kerak, chunki boshqa manbalarda Farg'ona hukmdorlari "ixshid" deb yuritilgan. Turk xoqoni To'nyabg'u davrida boshqa qaram o'lkalar singari Farg'ona hukmdoriga ham hoqonlik noibligini anglatuvchi "yabg'u" unvoni berilgan. Xitoy tarixchilari shunga asoslangan bo'lishi mumkin. Biroq, mahalliy ixshidliklar boshqaruvi ham saqlangan. Bu haqda Ibrat : "...Kosonda Mug'niy qo'rg'oni va o'rdasi deb mashhurdir ...Ixshid deb zikr qiladurg'on So'g'd podsholari ham bul yerda hukmronlik qilgan"¹⁴ , - deb yozgan edi. Xitoy manbalarida aytilishicha, vodiya shayton bor, Farg'ona va Kuchar bir-biriga qarindosh. Farg'ona hukmdori sherga o'xshash oltin taxtda o'tirar ekan. Boshida peshonasi bilan ensiz mato bog'lagan (lenta), xuddi g'arbiy turk xoqonlari singari. Yuqoridagi ma'lumotlarning barchasi Farg'ona va Kuchar turklarga qaram bo'lganligini ko'rsatadi¹⁵.

Ammo VII asr boshlariga kelib turk xoqonlari bir nechta voqa hukmdorliklaridagi boshqaruv sulolalarga barham berib, o'rniga o'z xonadoni vakillarini tayinlay boshlaganlari kuzatiladi¹⁶. Bu holat Farg'onani ham chetlab o'tmagan. Chunonchi, "Tan-shu"ga ko'ra, "Chjen-guan davri (627-649)da hukmdor Kibi G'arbiy tukiye (turk)lardan bo'lmish Gan Moxedu tarafidan o'ldirildi. Ashena

¹³Хўжаев А. Қадимги Хитой манбаларида Фарғонага оид маълумотлар (таржима ва шарҳлар). – Тошкент: 2011. Б. 69 .

¹⁴Исхокхон Жунайдуллоххўжа ўғли Ибрат.Фарғона тарихи // Мерос . – Тошкент : Камалак, 1991.- Б. 277.

¹⁵Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). - Ташкент: изд-во АН Уз ССР, 1951 .С. 23.

¹⁶Бобоёров Г.Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми.Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.Тошкент, 2012. Б. 257-310.

Shuni (Ashina Shen) undan (ya'ni, Gan Moxedudan) shahar (Sitszyan)ni olib qo'ydi"

17

Dastlab Gan Moxedu, to'g'rirog'i, To'n Bahodur va Ashina Shunilar aslida kim va nima sababdan ular o'rtasida nizo chiqqanligi masalasiga e'tibor qaratamiz. So'g'dshunos olimi O.G.Smirnovaning fikricha, Kibi 619-yilgacha To'n Bahodur tomonidan o'ldirilgan edi. Biroq xitoy manbasida uning o'ldiriishi Chjen-guan davri – 627-649-yillar orasida yuz berganligi ko'rsatilgani inobatga olinsa, O.G.Smirnovaning fikri unchalik asosli emas. Buning ustiga xitoy yilnomalarida Moxedu (*turk.* Bahodur) nomli bir nechta shaxslar tilga olingan. Masalan, 630-yilda To'n yabg'u xoqonni o'ldirgan amakisi Moxedu (*turk.* Bahodur; 628-631), 641-yili *Ibi Shabolo Shexu-kexan* (*turk.* Elbi Ishbara Yabg'u-xoqon) nomi bilan taxtga chiqqan Bixudu shexu (*turk.* Bahodur? yabg'u), 713-740-yillarda Chochda hukmronlik qilgan Moxedu tutun (*turk.* Bahodur tudun) kabilar shular jumlasiga kiradi. Ta'kidlash kerakki, yilnomalarda nomi berilgan hukmdorlarning hammasi shaxsiy ismi bilan emas, muayyan epitet va unvonlar bilan yuritilgan. Ayniqsa, taxtga chiqmasdan oldin berilgan ismi sifatida uchrovchi *Bahodur*, *To'nga-shad*, *Yuquq-shad*, *Qutlug'-shad*, *Bo'gu-cho'r* ismlar aslida epitetli unvonlar ekanligi diqqatga sazovor. Demak, *bahodur* epiteti ham asosan Ashina xonadoni vakillariga tegishli epitetlardan biri bo'lgan.

Xo'sh, xitoy manbalarida keltirilgan Bahodurlardan qaysi birining Farg'ona hukmdorligi bilan aloqasi bo'lishi mumkin? Yuqorida keltirilgan tarixiy shaxslardan faqatgina To'n yabg'u-xoqonga suiqasd uyushtirgan amakisi Bahodur va 641-yili xoqonlik taxtiga chiqqan Bixudu shexu (*turk.* Bahodur? yabg'u)larning faoliyat ko'rsatgan yillari Xitoydagi 627-649-yillar (ya'ni, Chjen-guan davri)ga to'g'ri keladi.

Ayrim tadqiqotchilar To'n Bahodurni To'n yabg'u-xoqonning amakisi Bahodur bilan bir shaxs bo'lganligini ta'kidlab, shu asosda Farg'onada Ashina xonadonining

¹⁷ Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). Фарғона, 2013. Б. 85.

bir tarmog'i 630-yillardan boshlanganini taxmin qiladilar. Ma'lumki, 630-yili Bahodur o'z jiyani To'n yabg'u-xoqonni o'ldirib, taxtga chiqqach, o'ziga *Kyuyli Sibi ke-xan* (turk. Kulug Sibir xoqon) unvonini qabul qilgan. Oradan ko'p o'tmay, ya'ni 631-yilda Bahodur xoqonning boshqaruvidan norozi bo'lgan *To'las* qabilalari unga qarshi isyon ko'tarib, To'n yabg'u-xoqonning o'g'li Seli Dele (turk. El Tegin)ni qo'llab-quvvatlaydilar. Biroq u xoqon bo'lguniga qadar xitoy manbasida faqat *Moxedu* (Bahodur) deb tilga olingan bo'lib, *Gan* (To'n) ismi, to'g'rirog'i, epiteti esa qo'shilmagan. Xullas, To'n Bahodurning aslida kim ekanligi masalasi to'la hal etilmagan bo'lsa-da, har ikkisi ham (To'n yabg'u-xoqonning o'g'li va amakisi) Ashina xonadoniga mansub shaxslar bo'lgan. Buni ularning unvon va epitetlari, qolaversa, xitoy yilnomasida ularga nisbatan qo'llanilgan "G'arbiy turklardan" iborasi ham tasdiqlaydi.

Endi Ashina Shuni shaxsi haqida qisqacha to'xtalsak. Arxeolog A.N.Bernshtam Ashina Shunining *shunishi* urug'iga mansub Ashina ismli shaxs ekanligini ilgari surgan¹⁸. Biroq Ashina ismi faqat xoqonlik boshqaruvchi xonadoni vakillariga berilganligi nazarda tutilsa, Ashina Shunining shunishi urug'idan emas, balki xoqonlikning boshqaruv sulolasi bo'lmish Ashina urug'idan bo'lib, turkiy shahzodalardan biri ekanligi oydinlashadi.

Biroq, nima uchun Ashina xonadoniga mansub To'n Bahodur (xit. *Gan Moxedu*) tomonidan egallangan hukmdorlik keyinchalik shu xonadon shahzodasi Shuni tomonidan tortib olingan? Bu masalada manbalarda to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar uchramaydi. Shu boisdan o'sha yillarda sodir bo'lgan voqealar tahlili asosida mazkur masalaga birmuncha javob topish mumkin.

Avvalo, Chjen-guan davridagi 627-649-yillarga e'tibor qaratish zarur. Ma'lumki, G'arbiy Turk xoqonligining eng yuksalgan davri Tun yabg'u-xoqon davri – 618-630-yillarga to'g'ri keladi. Biroq 630-yilda Tun yabg'u-xoqonning o'z amakisi *Moxedu* (Bahodur) tomonidan o'ldirilishi va taxtni noqonuniy egallanishi natijasida

¹⁸ Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). - Ташкент: изд-во АН Уз ССР, 1951. С. 23.

boshlangan ichki kurashlar avj olib, xoqonlik taxtiga da'vogarlar o'rtasidagi to'qnashuvlar va xoqonlarning qisqa muddatda almashinuvi yuz beradi. Nushibi va dulu qabilalarining u yoki bu xoqonni qo'llab-quvvatlashlari natijasida hokimiyat almashinuvlari to 649-yilda Ashina Xeluning isyon ko'tarib, xoqonlikdagi butun hokimiyatni qo'lga kiritishi bilan tugaydi¹⁹. Demak, 630-yildan to 649-yilgacha G'arbiy Turk xoqonligida siyosiy parokandalik yuz bergan va bu voqealar, albatta, xoqonlik qo'l ostidagi voha hukmdorliklariga ham ta'sir ko'rsatgan.

G'arbiy Turk xoqonlari hokimiyat talashib o'zaro kelishmay qolgan paytda qo'l ostidagi vassal hukmdorliklarga murojat etar edilar. Biroq, xoqonlar duch kelgan voha hukmdorliklariga panoh istab bormaganlar. Chunonchi, Yuquq Dulu-xoqonning hujum qilishidan qo'rqqan Ishbara Xili Sher (Xilishi) xoqon – avval Qorashahr, 639-yili esa Farg'ona (xit. Boxanna)ga qochib boradi va o'sha yerda o'ladi²⁰. Har holda mazkur xoqonning Farg'onaga boshpana izlab kelishining sababi u yerda Ashina xonadonidan bo'lgan hukmdorlar boshqaruvi o'rnatilganligi bilan bog'liq bo'lishi kerak. G'.Boboyorovning fikricha, Farg'onadagi "xoqon" unvoni bilan zarb etilgan tangalarning ba'zilar G'arbiy Turk xoqonlari bilan aloqador bo'lishi ham mumkin. Tadqiqotchi o'z fikrining asosi sifatida yuqorida keltirilgan Ishbara Xili Sherning Farg'onaga qochganligi va u yerda turgan vaqtida o'z nomidan tanga bostirgan bo'lishi ehtimoli mavjud ekanligini ta'kidlash bilan birga bu ehtimolning juda ozligi va bu boradagi taxminlardan biri ekanligini ham yozadi.

Xullas, mahalliy sulola hukmdorligiga Ashina xonadoni vakili bo'lmish To'n Bahodur tomonidan barham berilgach, Farg'onada turkiy Ashina xonadoni vakillari sulolasi tashkil topadi. Xoqonlikdagi o'zaro taxt talashuvlari natijasida To'n Bahodur o'rniga Ashina xonadoni shahzodalaridan biri Ashina Shuni hukmdorligi o'rnatiladi. Bu esa Farg'onada Ashina xonadonining bir tarmog'i bo'lgan sulolaning tashkil

¹⁹ Хотамова М. Фарғонада туркий сулола // "Фарғона водийси янги тадқиқотларда" мавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона, 2014. Б. 83.

²⁰ Бобоёров Г. Г'арбий турк хоқонлигининг давлат тузуми. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2012. Б. 117.

topishi Ashina Shunidan boshlangani haqidagi xulosani qayta tahrir qilishni taqozo etadi. Garchi, tadqiqotchilar ushbu sulolalaning boshqaruv yillarini 630-750-yillar bilan belgilagan bo'lsalar-da, ushbu sana aniq bo'lmay, balki taxminiydir.

Shuni ta'kidlash kerakki, Chochda turkiy Teginlar sulolasi o'rnatilgan bo'lib, Turk xoqonligida *tegin* unvoni faqat Ashina xonadoniga mansub shahzodalargagina berilganligi ma'lum. Shu sababli ham, mazkur sulola yozma manbalar, numizmatik materiallar va ilmiy adabiyotlarda "Choch Teginlari" yoki "Chochning turkiy Teginlar sulolasi" tarzida yuritiladi²¹. Ammo Farg'onadagi turkiy sulolaning nomi qanday yuritilganligi aniqlanmagan. Faqat yozma manbalarda mazkur sulola vakillariga nisbatan "G'arbiy turklardan" yoki Ashina nomi qo'shilganligi uchun ular shartli "Ashina xonadonining bir tarmog'i" yoki "xoqonlikka aloqador sulola" tarzida yuritilmoqda. Ehtimol, ular ham Chochdagidek Teginlar sulolasi bo'lgandir, sababi Ashina xonadoni shahzodalari *tegin* yoki *shad* unvonlari bilan yuritilganini hisobga olish zarur. Lekin hozircha bunday atash uchun dalillar yetarli emas.

Farg'onada ro'y bergan keyingi siyosiy voqealar "Tan-shu"da quyidagicha o'z aksini topgan: "Shunining o'limidan so'ng o'g'li Yebochji o'rniga taxtga chiqadi, Kibining qarindoshi Alyaoshen ham hukmdor etib tayinlanadi. U Xumin shahrida, Yebochji esa Chjen-chju (Sirdaryo)ning shimolidagi Gyesay shahrida yashaydi. 656-yilda Yebochji saroy (Xitoy)ga sovg'alar bilan elchi jo'natdi. Imperator Gaotszun bundan juda mamnun bo'ladi"²². Mazkur ma'lumotlar tadqiqotchilarga o'lkada qo'shhokimiyatchilikning yuzaga kelganligi, qadimgi turklar butun Farg'onani egallay olishmagani va vodiyning faqat shimoliy qismigina turklarga bo'ysungani haqidagi xulosalar uchun asos bo'lgan. Shu sababli, ko'pchilik olimlar aynan shu davrdan boshlab Farg'ona vodiysi ikkiga bo'linib ketganligi, uning shimoliy qismida qadimgi turklar (aniqrog'i, Ashina xonadoni shahzodalari), janubiy qismida esa

²¹ Хотамова М. Фарғонада туркий сулола // "Фарғона водийси янги тадқиқотларда" мавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона, 2014. Б. 85.

²² Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). Фарғона, 2013. Б. 85.

mahalliy sulola vakillari boshqaruvni o'z qo'llariga olganlar, deb hisoblaydilar.

Agar xitoy yilnomasidagi “*Alyaoshan ham hukmdor etib tayinlanadi*” jumlasiga e'tibor berilsa, aslida turkiy sulola hukmdori Yebochji mahalliy sulola vakili bo'lmish Alyaotsan (Alyaoshan)ni o'zining vassali (prefekti) etib tayinlagan bo'lishi haqiqatga yaqinroqdir²³. Qolaversa, Yebochjining asosiy hukmdor ekanligi uning Xitoy imperatoriga sovg'a jo'natganligidan ham anglash mumkin. Bordi-yu, Alyaotsan ham bosh hukmdor bo'lganida edi, u ham Yebochji singari o'z elchilarini Xitoyga yuborish huquqiga ega bo'lardi. Bu ham Alyaotsan 657-yilgacha turkiy sulola tomonidan mahalliy sulola boshqaruviga tayinlangan unga bo'ysunuvchi vassal hukmdor (prefekt) mavqeyida bo'lganini ko'rsatadi.

657-yilga kelib esa G'arbiy Turk xoqonligi Xitoy tomonidan tor-mor etilib, xoqonlik qo'l ostidagi voha hukmdorliklarida Tan imperiyasiga xos ma'muriy bo'linish joriy etiladi. Shular qatorida Farg'ona ham 658-yili Xitoyning harbiy voliyliklaridan biriga aylantiriladiki, bu voqealar xitoy yilnomalarida o'z aksini topgan: “Ikki yil o'tgach (658-yilda.), Gyesay Xyusyun nomli viloyatga o'zgartirildi. Alyaoshen u (Xyusyun)ning hukmdori etib tayinlandi, shu vaqtdan e'tiboran har yili saroy (Xitoy)ga elchi jo'natib turdi”²⁴.

Demak, Farg'ona Tan imperiyasining voliyliklaridan biriga aylantirilgach, Gyesay nomi Xyusyun shaklida o'zgartirilib, bu yerda viloyat ta'sis etiladi. Mazkur viloyat boshqaruviga Ashina xonadoniga mansub Yebochji emas, balki mahalliy sulola vakili Alyaotsanning tayinlanishining ham o'ziga xos sabablari bor edi. Ushbu sabablardan biri, olimlarning fikricha, bir yil oldin xitoy qo'shini tomonidan tor-mor etilgan G'arbiy Turk xoqonligining boshqaruv xonadoniga mansub bo'lgan Yebochji xitoyliklar nazarida ishonchli vakil bo'la olmagan. Aksincha, uning qo'l ostidagi prefekti Alyaotsan unga nisbatan ancha ishonchliroq noib bo'lishi mumkin edi. Buni

²³ Хотамова М. Фарғонада туркий сулола // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона, 2014. Б. 85.

²⁴ Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). Фарғона, 2013. Б.85.

Alyaotsanning Xitoy imperatoriga har yili sovg'a-salomlar bilan elchilik hay'atini jo'natib turganligidan ham tushunib olish mumkin. Yuqoridagi ma'lumotlardan Yebochjining hokimiyatiga barham berilgani yoki berilmaganini aniqlash qiyin. Faqat shuni aytish mumkinki, Yebochjining qarorgohi hisoblangan Gyesay shahri Alyaotsanga markaz sifatida belgilangani haqidagi ma'lumotning o'ziyoq Yebochjining Farg'onadagi mavqeining pasayganligidan darak beradi. Xitoy manbasida ham 658-yildan keyin Yebochji haqida boshqa ma'lumot uchramaydi, demak uning hukmdorligi shu yilgacha davom etgan bo'lishi kerak .

Biroq, Farg'onadagi turkiy sulolaga 658-yillarda barham berilmagan, Yebochji esa Gyesay yoki Xyusyunda bo'lmasa ham, Farg'onaning boshqa shahrida turib o'z boshqaruvini davom ettirgan bo'lishi kerak. Buni so'nggi yillarda Farg'ona vodiysining Quva, Axsikat, Mug'tepa (Kosonsoy), Munchoqtepa kabi qadimgi shahar xarobalaridan topilgan ilk o'rta asrlarga oid arxeologik topilmalar ham tasdiqlamoqda²⁵ . Ayniqsa, Quva shahar xarobasidan topilgan ikkita mis tanga ahamiyatli bo'lib, ularning o'ng tarafida uzun sochli, dumaloq yuzli, bodomsimon ko'zli hukmdor boshi tasvirlangan, orqa tarafida esa tog' echkisiga o'xshash tamg'a tushirilgan. Diqqatga sazovor jihati shuki, hukmdor tasvirining o'ng va chap tomonlarida bir-biriga bog'lanmasdan yozilgan qadimgi turk-run yozuvida jumla yozilgan, tanganing orqa tarafida esa sug'diy yozuvdagi jumla bitilgan. G'.B. Boboyorov bu tangadagi qadimgi turk yozuvidagi jumlaning so'roq ishorati bilan *qag'an* (xoqon), sug'diy jumlaning esa *xaqan pani* (xoqonning tangasi) tariqasida o'qigan . Shuningdek, tangadagi tamg'a VI–VIII asrlarga doir Choch tangalaridagi tamg'alar bilan deyarli bir xil. Choch vohasi tangalari bilan Farg'ona vodiysi tangalaridagi bunday ikonografik jihatdan yaqin o'xshashlik tadqiqotchilarga ular orasida yaqin aloqadorlik bor, degan taxminni ilgari surish bilan birga tamg'a shakllari tangalarning vodiyni boshqargan Ashina sulolasiga oidligini tasdiqlaydi .

²⁵ Хотамова М. Фарғонада туркий сулола // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона, 2014. Б. 85.

Keyingi yillarda turkolog G'. Boboyorovning Farg'onadan topilgan VII asrlarga oid tangalar tahlili asosida tarixshunoslikda Farg'onada tanga pullar VIII asr boshlarigacha muomalada bo'lmagan tarzidagi xulosa asossiz ekanligi isbotlandi. Demak, Farg'onada ham Chochdagi singari turk xoqonlari o'zlarining ilk tangalarini zarb qildirgan. Faqat Choch tangalaridan Farg'ona tangalarining farqi shuki, ularda bitilgan yozuvning qadimgi turk alifbosida yozilganidir . Buning ham o'ziga xos sabablari mavjud. Chunki O'zbekistondan topilayotgan qadimgi turk yozuvli yodgorliklarning asosiy qismi Farg'ona vodiysidan chiqayotganligi Farg'ona qadimgi turk yozuvi keng tarqalgan va muomalada bo'lgan hududlardan biri hisoblanganini ko'rsatadi. Qolaversa, Farg'ona tangalarida "xoqon" unvoni bilan birga, Turk xoqonligi tamg'asiga (𐰽) o'xshash arxar shaklli tasvir joy olgan (𐰺). Bu har holda vodiya Ashina xonadonining bir tarmog'i hukm surgani bilan aloqalidir. Mazkur tangalarning o'rtasi kvadrat shaklda teshilgan bo'lib, O'rta Osiyoda bu tipdagi tangalarni zarb qilish an'anasi asosan G'arbiy Turk xoqonligi Xitoyga bir muddat qaram bo'lib qolgan paytdan, aniqrog'i, 650-yillardan boshlab keng yoyilgan edi. Demak, Farg'onadagi xoqonlikka aloqador sulola vakillari shu paytdan e'tiboran, xitoy tangalariga taqlidan tangalar zarb qildirish boshlaganlar .

Farg'onashunos mutaxassislar N.G.Gorbunova va G.A.Brikinalar hammuallifligida yozilgan tadqiqotda Farg'ona VII asr boshlarida siyosiy jihatdan Turk xoqonligiga bo'ysungan bo'lsa ham, chamasi, qadimgi turklar bu yerdagi etnogenetik jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatmaganlar tarzidagi xulosa ilgari surilgan. Ularning fikricha, buning boisi, VIII asrlarda ham farg'onaliklar o'zlarining mahalliy tillarida so'zlashganlar, faqat keyinroq turkiy aholining ko'chib kelishi, ularning o'troqlashuvi va shaharlarga joylashishi oqibatida bu yerdagi vaziyat birmuncha o'zgargan. Biroq, fikrimizcha, bu mulohazalar to'la asosga ega emas. Chunki butun O'zbekiston hududidan topilayotgan qadimgi turk yozuvi tushirilgan ashyo va yodgorliklarning deyarli barchasi Farg'ona vodiysiga to'g'ri keladi. Qolaversa, vodiya qadimgi turklar bilan bog'liq ko'mish marosimi izlari, aniqrog'i, murdani

kuydirib ko'mish joyi va ot qo'shib ko'mish aniqlangan, qadimgi turklarning tosh haykallari va balballari ham topilgan. Shu o'rinda o'tgan asrning 50-yillaridayoq arxeolog A.N.Bernshtam Farg'onada arablar ham, xitoyliklar ham emas, balki turklar katta ahamiyatga ega bo'lganini e'tirof etgani holda²⁶, VI–VIII asrlarni Farg'ona tarixiga “turk davri” nomi bilan kiritganini ta'kidlash kerak.

Shunday qilib, Farg'onada VII asr boshlariga kelib, Turk xoqonligining Ashina xonadoniga mansub sulola tashkil topadi va bu sulola arablar istilosidan keyingi davrlarda ham o'z mavqeyini yo'qotmaydi. Farg'onadagi turkiy sulolaning boshqaruv markazlarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki Farg'ona vodiysidagi qadimiy yirik shaharlarning o'rnini aniqlash masalasida mutaxassislar haligacha bir to'xtamga kelganlaricha yo'q. Biroq bu ishning o'zi alohida tadqiqotni talab etadi.

²⁶ Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). - Ташкент: изд-во АН Уз ССР, 1951. С. 25.

1.2. Farg'ona Arablar bosqini davrida

Arablar istilosi davrida Farg'ona vodiysida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarix fanida yetarli darajada o'rganilmagan. Taniqli tarixchi olim A.N. Bernshtam "Qadimgi Farg'ona" nomli ilmiy-ommabop risolasida ushbu masalaga qisqacha to'xtalib o'tgan, xolos²⁷. Mavzuga doir boshqa maxsus tadqiqotlar hozircha yo'q. Bizningcha, bu hol ushbu masalaga doir yozma manbalarning nisbatan ozligi bilan izohlanadi. Shunday bo'lsa-da, VII-VIII asrlarda Farg'onada kechgan siyosiy voqealar ma'lum darajada Mug' tog'idan topilgan sug'd arxivi hujjatlarida, Farg'onaga tashrif buyurgan koreyalik budda rohibi Xuey CHaoning "Vangu tyanchju chjuan" ("Hindistondagi beshta davlatga qilingan safar bayoni"), xitoylik harbiy sarkarda Du Xuanning "Du Xuan djingshing dji" ("Du Xuanning borgan joylari xotiralari"), Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-muluk" ("Payg'ambarlar va podshohlar tarixi"), Balazuriyning "Kitob futuh al-buldon" ("Mamlakatlarni fath etilishi kitobi"), shuningdek, Narshaxiy, Ibn Havqal, al-Istaxriy asarlarida o'z aksini topgan.

Ma'lumki, VI asrning ikkinchi yarmida Turk xoqonligi O'rta Osiyo, shu jumladan Farg'ona vodiysini ham zabt etgan edi. Ammo turk xoqonlari dastlab bu hududda bevosita o'z hukmronligini o'rnatmay, Eftaliylar singari har bir viloyatda hukm surgan mahalliy sulolalarni o'zlariga tobe etish bilan cheklandilar. Mahalliy hukmdorlar turk xoqonining vassali bo'lib, har yili unga belgilangan miqdorda o'lpon to'lar edilar.

Qadim zamonlarda Parkana, Davan, Dayyuan nomlari bilan atalgan bu diyor ilk o'rta asrlar davriga taaluqli sug'd manbalarida Faragana, Fragana, xitoy solnomalarida esa Feyxan, Boxan, Paxanna nomlari bilan tilga olinadi.

²⁷ Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). - Ташкент: изд-во АН Уз ССР, 1951. С. 26-27.

VII asrning boshlarida Farg'onani "ixshid" unvoniga ega bo'lgan mahalliy sulola vakillari idora qilganlar. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, bu davrda Sug'd (Samarqand) podsholari ham "ixshid" deb atalgan. "Ixshid" atamasi sug'diylar (hamda farg'onaliklar) tilida "shahanshoh", "malik ul-muluk" ("podsholar podshosi") degan ma'noni anglatgan. "Ixshid" atamasi asrlar osha xalqning xotirasida hamda tarixiy adabiyotlarda saqlanib qolgan. Masalan, XX asr boshlarida ta'lif etilgan Ichoqxon Junaydullox'o'ja o'g'li Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida qo'yidagi satrlarni o'qiymiz: "...Kosonda Mug'niy qo'rg'oni va o'rdasi deb mashhurdir, qalin devor va katta xishtlar ilan bino qilgan, ikki ming yillar o'tub, holo ham muoyanadir. Ani ta'rixlar ko'rgan kishilar bo'lsa ixshid deb zikr qiladurgon Sug'd podsholari ham bul yerda hukmronlik qilgan"²⁸. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona ixshidlari sulolasi asli kushonlardan bo'lib, bu yerda III asrdan buyon uzluksiz hukmronlik qilishgan²⁹.

O'sha davrda (VII asr) bu diyorga tashrif buyurgan xitoy sayyohi Syuan Szyan Farg'onaning tuprog'i unumdor va serhosil ekanligi, bu yerda ko'p miqdorda sabzavot, meva va gullar yetishtirilishi, mashhur otlar va qora mollar boqilishini qayd etgan. VIII asrda Farg'onaga kelgan koreys sayyohi Xuey Chao uning ma'lumotlarini to'ldirib, bu o'lkada tuya, xachir va otlar parvarish qilinishi, paxta ekilishini ta'kidlaydi. U aholi ko'p tandir non iste'mol qilishi, teri va paxtadan kiyimlar kiyishini ma'lum qiladi. Farg'onaliklar hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo sohasida ham katta yutuqlarga erishgan edilar. Bu yerdan qo'shni mamlakatlarga otlar, bo'yoqlar, rangli shisha buyumlari va hokazolar chiqarilar edi³⁰.

Farg'ona o'sha davrda O'rta Osiyoda katta harbiy kuch va siyosiy nufuzga ega bo'lgan qudratli mulklardan biri edi. G'arbiy Turk xoqonligiga vassal bo'lishiga qaramay, Farg'ona ixshidlari tanga zarb etish, ko'shni davlatlar bilan diplomatik aloqa

²⁸ Исҳоқхон Жунайдуллоххўжа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. Нашрга тайёрловчилар Ҳайдарали Бобобеков, Маҳмуд Ҳасаний // Мерос. - Тошкент: Камалак, 1991. Б. 277.

²⁹ Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). - Ташкент: изд-во АН Уз ССР, 1951. С. 23.

³⁰ Гафуров Б.Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн I. - Душанбе: Ирфон, 1989. С. 369-370.

o'rnatish, ular bilan harbiy ittifoq tuzish huquqiga ega bo'lganlar. Xuddi shunday huquqlardan Sug'd, Tohariston, Xorazm, Choch, Iloq va boshqa viloyat hukmdorlari ham foydalanganlar. Davlatning bunday tartibda tuzilishi dastlab Turk xoqonligini qoniqtirgan, chunki ko'chmanchi chorvador turklar o'troq ziroatkor aholi yashaydigan katta hududlarni boshqarish borasida yetarli tajribaga ega emas edilar. Ammo mahalliy hukmdorlarning keng muxtoriyatga ega bo'lishi markaziy hokimiyatni zaiflashtirib, Turk xoqonligini mo'rt, konfederativ davlatga aylanishiga olib keldi. Shundan so'ng xoqonlar mahalliy sulolalar huquqlarini cheklash va shu asosda hokimiyatni markazlashtirish yo'lini tutdilar.

618-yilda G'arbiy Turk xoqonligi hukmdori Tunyabg'u siyosiy islohot o'tkazib, ahvolni o'nglashda harakat qildi. U O'rta Osiyoning mahalliy hukmdorlariga "eltabar" unvonini taqdim etdi. "Eltabar" Turk xoqonligida yuqori darajali unvonlardan biri bo'lib, "elni, davlatni tutib turuvchi" ma'nosini anglatar edi. Ushbu tadbir orqali Tunyabg'u mahalliy hukmdorlarga ular mustaqil bo'lmay, balki xoqon tomonidan tayinlangan viloyat hokimlari ekanligini ta'kidlab o'tdi. Ayni vaqtda xoqon viloyatlarga, shu jumladan Farg'onaga o'zining ishonchli vakillari – tudunlar (tutuqlar) ni yubordi. Ular mahalliy hukmdorlar huzurida doimiy faoliyat yuritib, xoqon farmoyishlarini o'z vaqtida bajarilishi, o'lponlarning muntazam ravishda uning qarorgohiga yuborilishini nazorat qilar edilar.

Tunyabg'u islohoti kutilgan natijani bermadi: Turk xoqonligi markazlashgan kuchli davlatga aylanmadi. Ammo bu siyosiy tadbir asta-sekinlik bilan O'rta Osiyo viloyatlarida turk zodagonlari, jumladan tudunlarning mavqeining kuchayishiga olib keldi. Ba'zi viloyatlarda, masalan, Choch, Tohariston va Farg'onada turk zodagonlari mahalliy sulolalarni hokimiyatdan chetlashtirib, ularning o'rnini egallab oldilar. Yozma manbalarda Farg'ona hukmdorlarining ismi-shariflari dastlab mahalliy, keyinchalik turkiy lafzda tilga olinishi ushbu fikrni tasdiqlaydi.

VII asrning birinchi yarmi va o'rtalaridan boshlab Farg'onaning siyosiy hayotida turklarning mavqei tobora oshib borayotganligi haqida xitoy manbalaridan

ma'lumotlar olish mumkin. Tunyabg'u vafotidan so'ng (630-yil) Farg'ona shimoliy ixshidlik va janubiy podsholik mulklariga bo'linadi. Shimoliy Farg'ona ixshidligi chegarasi shimolida Tangritog' (Tyanshan), janubda Sirdaryo bilan, janubiy Farg'ona podsholigi esa shimolda Sirdaryo va janubda Pomir-Oloy tizmalari bilan chegaralangan edi. Farg'ona janubidagi podsholikning poytaxt shaharlari Ershi (Marhamat) va Xumin (Quva) bo'lib, uni Ashina Shuni (630-650), Alyaotsen (640-660), Alatar (700-720) va Arslon tarxon (720-745) kabi podsholar boshqarganlar. Shimoliy Farg'ona ixshidligining markaziy shaharlari Axsikat va Koson bo'lgan. Bu yerda Ashina Shunining o'g'li Ebochji (650-660) hukmronlik qilgan³¹.

Arablar istilosi arafasida Farg'ona va O'rta Osiyodagi siyosiy ahvol ana shunday edi.

VII asrning o'rtalaridan boshlab Arab xalifaligi Xuroson va Movarounnahrni istilo qilish maqsadida harbiy yurishlar boshladi. Arablar bosqini bu hududlarda yashayotgan xalqlar uchun og'ir sinov bo'ldi. Kuchli dushmanga ro'para bo'lgan mahalliy hukmdorlar bosqinchilarga qarshi kurashda bir-biridan yordam olishga, g'animlarga qarshi kurashda yagona koalitsiya tuzishga harakat qildilar. VII asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida arablar hujumiga duchor bo'lgan Sosoniylar davlati va Sug'd hukmdorlarining da'vati bilan Farg'ona podsholari ham arablarga qarshi janglarda ishtirok eta boshladilar.

Farg'onaliklarning arablar bilan dastlabki harbiy to'qnashuvi VII asrning 40-yillarida ro'y berdi. Bu borada tarixchi Tabariy quyidagi ma'lumotlarni keltiradi. 643 yilda Sosoniylar davlatining hukmdori Yazdigard III arablarga qarshi harbiy harakatlar olib borib, sug'd ixshidi va turk xoqoniga elchi yuboradi va ulardan yordam so'raydi. Ammo tezda yordam kelavermaganligi bois, u Amudaryoning o'ng sohiliga chekinadi. Keyinchalik turk xoqoni Yazdigard III ga yordam berishga qaror qiladi. Bu haqda Tabariy quyidagilarni yozadi: "U (xoqon – *mualliflar*) turklar bilan

³¹ Отаҳўжаев А. Илк ўрта асрларда Шимолий Фарғона ихшидлиги масаласига оид мулоҳазалар // "Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда" мавзусидаги республика илмий анжумани материаллари. Фарғона .2009. Б. 147.

keldi va Farg'ona hamda Sug'd aholisidan [askar] to'pladi. So'ngra ular bilan yurish qildi. Yazdigard ham Xurosonga qaytib kelib yurish qildi: u daryodan kechib o'tib, Balxda turdi. Xoqon ham u bilan birga suvdan kechdi. Kufaliklar Marvarrudda, al-Ahnafning huzuriga chekindilar. Kofirlar (ya'ni Yazdigard III va xoqon qo'shinlari – *mualliflar*) esa Balxdan yurish qilib, Marvarrudga al-Ahnaf ro'parasiga kelib to'xtadilar”³². Demak, farg'onaliklar turk xoqoni qo'shini tarkibida ilk marotaba 643 yilda Marvarrud shahri yaqinida arab bosqinchilariga qarshi jangda ishtirok etdilar.

Tabariy shu voqea bilan aloqador yana bir qiziq ma'lumotni keltiradi. Marvarrud voqeasidan so'ng turk xoqoni o'z yurtiga qaytmoqchi bo'ldi. SHunda, aftidan, o'z kuchiga ishonmagan Yazdigard ham u bilan birga ketish istagini bildirdi. Lekin uning ba'zi lashkarboshilari e'tiroz bildilar. Natijada o'rtada nizo chiqib, lashkarning bir qismi shohni tashlab ketadi. Bundan foydalanib, arablar Yazdigardga qarshi hujum qilib, uni yengadilar. „ U qochdi, – deb yozadi Tabariy, – va daryodan (Amudaryodan – *mualliflar*) kechib o'tib panoh izlab, Farg'onaga, turklar huzuriga keldi. U o'sha tomonda [xalifa] Umar hukmronligining oxirigacha qoldi”. Demak, Eron shohi Yazdigard 643-644 yillarda, bir yilcha muddat davomida Farg'onada panoh topgan. Yazdigard o'zi bilan birga Farg'onaga haramini, shu jumladan balog'atga yetgan qizini ham olib keladi. Keyinchalik bu qiz arab adabiyotida “arusa al-Farg'ona”, ya'ni “Farg'ona kelini” nomi bilan mashhur bo'lib, adabiy qahramonga aylanadi³³.

Sosoniylarning so'nggi shohi Yazdigard III ning taqdiriga kelsak, u keyinchalik Xurosonga qaytib kelib, arablarga qarshi kurashni davom ettiradi. 651-yilda u Farg'ona ixshidiga xat yuborib, yana undan madad so'raydi. Bu iltimosga binoan Farg'ona hukmdori unga yordam berganligi haqida manbalarda ma'lumot uchramaydi. Oqibat o'sha yilning yozida Yazdigard III o'ldiriladi, Marv shahri esa arablar qo'liga o'tadi. Shu tariqa Sosoniylar davlati barham topadi.

³². История ат-Табари. Пер. с араб. В.И. Беляева с дополн. О.Г. Большакова, А.Б. Халидова. – Ташкент: Фан, 1987. С. 19.

³³ Ахмедов А. Ахмад ал-Фарғоний. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. Б. 19.

Marv shahrini egallab olgan arablar Xurosonda mustahkam o'rnashib olib, yarim asrdan ortiqroq muddat davomida Movarounnahr (arab tilidan "daryoning narigi tomoni" deb tarjima qilinadi), ya'ni Amudaryodan shimoldagi hududlarga talonchilik yurishlar qildilar. Har gal yurish qilganda, ular boy o'ljalarni qo'lga kiritib, Xurosonga qaytar edilar. Ammo 705-yildan Arab xalifaligining siyosati o'zgardi. Xuroson noibi etib tayinlangan Qutayba ibn Muslimga Movarounnahrni zabt etish va uni Arab xalifaligiga qo'shib olish vazifasi yuklatildi. 705-712 yillar orasida olib borilgan qator qonli janglardan so'ng arablar Balx, Poykand, Buxoro, Shuman, Nasaf, Xorazmni istilo qilib, Samarqand shahrini qamal qildilar.

Arablar bosqini O'rta Osiyo hukmdorlarini jipslashishga va dushmanga qarshi yagona harbiy ittifoq tuzishga chorladi. Bunday ittifoq tuzilmasa, bosqinchilar ularni birin-ketin o'zlariga bo'ysundirishi muqarrar edi. Bu borada arablar hujumiga duchor bo'lgan sug'diylarning Choch va Farg'ona hukmdorlariga yuborgan maktubidagi quyidagi satrlar e'tiborga loyiqdir: "Arablar bizni yengsa, sizlarni ham shu kuyga soladi, shu bois hech bo'lmasa o'zlaringiz uchun harakat qilinglar"³⁴.

Yuzaga kelgan tahlikali siyosiy vaziyatda Choch va Farg'ona hukmdorlari, Turk va Turkash xoqonlari to'g'ri qaror qabul qilib, istiloning avvalidan arablarga qarshi kurashda faol ishtirok etdilar. Farg'onaliklar bir necha bor buxorxudotlar Qabaj xotun va uning o'g'li Tug'shoda hamda Sug'd ixshidlari Tarxun va G'urakka yordam uchun yetib bordilar³⁵.

Arablar Samarqand shahriga hujum qilganda, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, sug'diylar Choch hukmdorlari, Farg'ona ixshidi va Turk xoqonidan madad so'radilar. Ularga yordamga yuborilgan qo'shinga turk xoqoning o'g'li Inal xoqon boshchilik qilgan. Tabariyning yozishicha, turk lashkari "podshoning o'g'illari va uning eng jasur yosh askarlaridan" iborat edi. Ammo o'z josuslari orqali bundan xabar topgan

³⁴. Бартольд В.В. К истории арабских завоеваний в Средней Азии // Соч. – Москва: Наука, 1964. Т. II (2). С. 282-284.

³⁵ Отахўжаев А. Фарғона подшоҳи Алутарнинг илк ўрта асрлар тарихидаги ўрни // "Фарғона водийси янги тадқиқотларда" мавзусидаги иккинчи республика илмий анжумани. Фарғона, 2012. Б. 98.

Qutayba ularga qarshi o'z ukasi boshchiligida saralangan arab qo'shinini yubordi. Arablar pistirma qo'yib, turklarni butkul tor-mor qilishga erishdilar³⁶.

Turklardan yordam ololmagan G'urak bir necha janglarda mag'lubiyatga uchrab, arablar bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, G'urak arablarga vassal bo'lish sharti bilan Sug'd ixshidi mansabida qoldirildi. Ammo ushbu shartnoma imzolanganidan keyin ham sug'diylar qarshilikni to'xtatmadilar. G'urak arablarga vassal bo'lganidan so'ng bosqinchilarga qarshi kurashni Panj viloyatining hokimi Devashtich davom ettirdi.

Arablarga qarshi kurashda Devashtich ham Choch, Farg'ona va Turk xoqonligidan yordam olishga umid bog'ladi. Dushmanga qarshi yagona koalitsiya tuzish maqsadida Choch hukmdori, Farg'ona podshosi va turk xoqoni huzuriga o'z elchisi Fatufarnni yubordi. Elchining Chochdan Devashtichga yuborgan maktubi (A-14) Mug' tog'idan topilgan hujjatlar tarkibida bizgacha yetib kelgan. Unda Fatufarn Chochga yetib kelganligi, Choch hukmdori (tuduni) ga Devashtichning maktubini topshirganligi va tudun hamda uning yordamchisiga "og'zaki aytiladigan gaplar"ni yetkazganligini ma'lum qiladi. So'ngra elchi turk xoqoni bilan uchrashishning ilojini topolmay, vaziyat taqozosi bilan xoqonga va Farg'ona podshosiga tegishli maktublarni o'sha kunlarda Chochga kelgan Farg'ona tutug'i orqali berib yuborganligi haqida xabar beradi³⁷.

Ammo Devashtichning umidlari ro'yobga chiqmadi, chunki Choch va Farg'ona hukmdorlari hamda turk xoqoni Sug'd taxtiga da'vogarlik qilayotgan Devashtichga emas, balki "qonuniy" podsho G'urakka yordam berishni ma'qul topdilar. Shunday bo'lsa-da, Devashtich ulardan yordam olish ishtiyoqidan voz kechmadi. U Samarqand shahri yaqinida joylashgan Xaxsar qishlog'i hokimi Afarunga yuborgan xatida

³⁶ Гафуров Б.Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн II. - Душанбе: Ирфон, 1989. С. 17.

³⁷ Исҳоқов М.М. Унутилган подшоликдан хатлар (Бир туркум суғд ҳужжатларининг ўзбек тилига таржимаси ва изоҳлари). - Тошкент: Фан, 1992. Б. 5-6.

Farg'ona podshosi hamda turklar va xitoyliklardan yordam kutayotganligini ma'lum qiladi³⁸.

Arablar istilosi davrida Farg'ona tarixida sezilarli iz qoldirgan hukmdor Alutar edi. U bosqinchilarga qarshi mahalliy hukmdorlar koalitsiyasi tarafdori va ishtirokchisi edi. Yozma manbalarda uning nomi at-Tar, Alutar, A-leo-ta, Alloda shaklida zikr etiladi. Ammo Alutarning hukmronlik qilgan yillari, uning etnik kelib chiqishi xususida tadqiqotchilar o'rtasida yakdillik yo'q. Ayrim olimlar uning hukmronlik davrini 700-726, boshqalari 710-739, uchinchilari esa 710-726 yillar deb belgilaydilar. Alutarning kelib chiqishi masalasida tarix fanida u Farg'onada bir necha asrdan buyon hukmronlik qilib kelgan mahalliy sulola vakili bo'lgan, degan fikr mavjud. Oxirgi paytlarda esa ba'zi olimlar Alutar etnik kelib chiqishiga ko'ra turkdir, degan nuqtai nazarni ilgari surmoqdalar. Bizningcha, ushbu bahsli masalalarga oydinlik kiritish uchun qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zarur.

713-714 yillarda arab bosqinchilariga qarshi olib borilgan harbiy harakatlarda Sug'd, Choch, Farg'ona va turklar ittifoqi muhim o'rin tutgan. Qutaybaning Choch, Ushrushona va Farg'onaga qilgan yurishlariga ular birgalikda qarshi turganlar.

Katta harbiy tajribaga ega bo'lgan Qutayba ibn Muslim o'z qo'shinini bosib olingan viloyatlar aholisi hisobiga to'ldirib, 713-yilda o'z nigohini Choch va Farg'onaga qaratdi. Uning asosiy maqsadi arablarga qarshi koalitsiyaning harbiy jihatdan kuchli bo'lgan ishtirokchilari – chochliklar, farg'onaliklar va turklarga zarba berish edi. Qutayba katta qo'shin to'plab, ikki yo'nalishda hujum boshladi. Urushga safarbar qilingan keshliklar, nasafliklar va xorazmliklardan iborat birinchi (shimoliy) guruh Qutaybaning ukasi Abdurahmon boshchiligida Choch tomonga yuborildi. Qutayba qo'mondonlik qilgan va asosan arablardan iborat bo'lgan ikkinchi (janubiy) guruh esa Xo'jand va Farg'onaga qarab yo'l oldi³⁹. Farg'onaga qilingan yurishning muhimligini unga shaxsan Qutaybaning o'zi boshchilik qilganidan ham bilib olish

³⁸ Лившиц В. А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья.-Санкт-Петербург, 2008. С. 238.

³⁹ Гафуров Б.Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн II. - Душанбе: Ирфон, 1989. С. 20.

mumkin. Qolaversa, bu Farg'onada arablarga qarshi jiddiy kuchlarning mavjud bo'lganligidan darak beradi.

Shimol tomonga yuborilgan harbiy kuchlarning harakatlari to'g'risida manbalarda batafsil ma'lumot yo'q. Ular Choch shahrini egallab, uning atroflaridagi aholi yashaydigan ko'p joylarga o't qo'ydilar. Qutayba boshchilik qilgan janubiy guruh esa Xo'jandni egallab, Kosonga yaqinlashdi. Shu yerda Chochga yuborilgan askarlar qaytib kelib, Qutayba qo'shiniga qo'shildi. Ibn Havqal va Istaxriylar bergan ma'lumotlarga ko'ra, shundan so'ng Qutayba Usrushona vohasi va ushbu viloyatning tog'oldi hududlarida harbiy harakatlar olib borgan. Manbalarda Qutayba Farg'onaga arab noibini tayinlagani, Choch va Farg'onada arab manzilgohlari barpo etilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Ammo Qutaybaning qo'lga kiritgan bu g'alabalaridan qat'i nazar, chochliklar va farg'onaliklar dushmanga bo'yin egmay, qarshilikni davom ettirdilar⁴⁰.

714-yilda Qutayba yana bir marta Chochga hujum uyushtirdi. U Chochni egallab, Isfijob (hozirgi Sayram)ga yurish qildi. Bundan asosiy maqsad bu shaharni zabt etib, turklarning o'rta osiyoliklarga yordamga keladigan asosiy yo'lini to'sish edi.

715-yilning boshida Qutayba ikkinchi marta Farg'onaga yurish qildi. Farg'ona hukmdori qochishga majbur bo'ldi. Manbalarda ushbu yurishning tafsilotlari keltirilmagan bo'lsa-da, arablar Farg'onaning katta qismini (janubiy va sharqiy hududlarni) bosib olganliklarini taxmin qilish mumkin. Ikkinchi yurish boshlanishidan oldinroq xalifa Volid ibn Abdumalik vafot etib, taxtni uning ukasi Sulaymon ibn Abdumalik egallab oldi. Ammo marhum Volid o'limidan oldin taxtni o'zining o'g'li Abdulazizga vasiyat qilib, bu borada barcha noib va lashkarboshilarga maktub yo'llagan edi. Iroq hokimi al-Hajjoj va unga bo'ysungan sharqiy o'lkalar noibi Qutayba ibn Muslim ushbu maktubga binoan Abdulazizga bay'at qilgan edilar. Natijada Farg'onada turgan Qutayba yangi xalifa Sulaymonga qarshi isyon ko'tardi.

⁴⁰ Там же.

U Sulaymonning odamlaridan xavfsirab, o'zining oila a'zolari va qarindosh-urug'larini Marvdan Samarqandga ko'chirtirib keldi. Ammo, bu chora-tadbirlar uning o'zini halokatdan saqlab qololmadi.

Ushbu voqealardan ancha oldin, Buxoroni fatx etish uchun jang qilayotgan Qutayba va uning lashkari buxorxudot hamda unga yordamga kelgan Samarqand ixshidi Tarxun qo'shinlarining kuchli zarbalariga uchraydi. Mag'lubiyatga uchrashi mumkinligini anglab yetgan Qutayba hiyla ishlatishga qaror qiladi. U Hayyon ismli obro'li bir arabni Tarxun huzuriga elchi qilib yuboradi. Tarxun bilan muzokara olib borgan Hayyon ittifoqchilar o'rtasida nizo urug'ini sochib, Samarqand ixshidi bilan separat sulh tuzadi va Qutaybani og'ir ahvoldan qutqaradi. Ammo Volid vafot etganidan keyin Hayyon Sulaymon tomoniga o'tib, Qutaybaning dushmaniga aylanadi. Narshaxiyning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Hayyon yangi xalifa tarafdori bo'lgan askarlarga bosh bo'lib, Qutaybaga qarshi jang qiladi va uni o'ldiradi. Tabariy bergan ma'lumotga ko'ra, Qutaybaning boshi Sulaymonga yuboriladi. Narshaxiyning yozishicha, uning tanasi Farg'onadagi "Raboti Sarhang" degan joyda⁴¹, Koh nomli qishloqda ko'miladi*.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, arablar istilosi davrida Farg'ona o'ziga qo'shni bo'lgan yirik davlatlarning geosiyosiy manfaatlari to'qnashgan hudud edi. Arab xalifaligi bu hududni o'z tarkibiga qo'shib olishga harakat qilar, Turk xoqonligi esa unga vassal bo'lgan bu o'lkani qo'ldan chiqarishni istamas edi. Bu davrda ancha kuchaygan Tibet Sharqiy Turkistonni bosib olib, O'rta Osiyoni zabt etishga urinardi. Xitoydagi Tan imperiyasi ham Farg'onani bo'ysundirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi⁴².

⁴¹. История ат-Табари. Пер. с араб. В.И. Беляева с дополн. О.Г. Большакова, А.Б. Халидова. — Ташкент: Фан, 1987. С. 158.

*В.В.Бартольд "Туркистон мўғуллар истилоси даврида" номли асарида маҳаллий аҳолининг берган маълумотларига таяниб, Қутайбанинг қабри Андижон уездининг Жалолқудуқ волостида жойлашганлигини таъкидлаган эди. А. Н. Бернштам ҳам Қутайба ҳозирги Андижон вилоятининг Жалолқудуқ туманида дафн этилган, деб ёзади.

⁴² Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). - Ташкент: изд-во АН Уз ССР, 1951. С. 25

Ana shunday siyosiy vaziyatda Farg'ona hukmdorlari gohida turklar, gohida xitoyliklar bilan ittifoq tuzib, o'z mulklarini arab bosqinchilaridan himoya etishga harakat qildilar. Shu munosabat bilan Tan imperiyasining farg'onaliklarga yordami masalasiga to'xtalib o'tmoqchimiz. A. N. Bernshtam yuqorida eslatib o'tilgan risolasida arablarga qarshi kurashda Xitoyga tayanish farg'onaliklar uchun qimmatga tushgan, buning evaziga Farg'ona VIII asrda (757-yilga qadar) vaqtincha bo'lsa-da, o'z mustaqilligini yo'qotib, ikki marta rasman bo'lsa-da xitoy prefekturalari tarkibiga kirgan, deb ta'kidlagan edi⁴³.

Ammo L. N. Gumilev va B. G'. G'ofurovlar Xitoyning arablarga qarshi kurashda ishtirok etganini inkor etishadi. L. N. Gumilev Tan hukumati farg'onaliklar va sug'diylarga yordam berish uchun bironta ham harbiy birlashma yubormaganligini qayd etadi. Uning fikricha, imperator O'rta Osiyo aholisi arablar va tibetliklarning talon-tarojidan qo'rqib, muqarrar ravishda Xitoyga moyil bo'ladi, deb hisoblagan. B. G'. G'ofurovning yozishicha, Xitoy imperatorlari arablarga qarshi kurashda O'rta Osiyo hukmdorlariga yordam va'da qilishar, ammo amalda bajarilmagan bu va'dalar evaziga ulardan Xitoyga vassal bo'lishni talab qilishar edi⁴⁴. Darhaqiqat, O'rta Osiyo va Farg'ona xalqlari arab bosqinchilariga qarshi kurash olib borgan paytida Tan imperiyasidan amaliy yordam ololmadilar.

Tarixiy manbalarda keltirilgan qator ma'lumotlar Farg'ona vodiysining arablar tomonidan bosib olinishi sanasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ilmiy va o'quv adabiyotlarda arablar 715- yilda Farg'ona va butun Movarounnahrni uzil-kesil bosib olganlar, degan fikr ustuvordir. Ammo yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Qutaybaning 715-yilda Farg'onaga qarshi boshlagan ikkinchi yurishi yakunlanmay qoldi. Shunday ekan, 715-yilda arablar butun Farg'onani bosib oldilar, degan fikr mantiqan to'g'ri emas. Qolaversa, 727-yilda Farg'onaga kelgan Xuey Chao ham Farg'ona vodiysining janubiy qismigina arablar tasarrufida bo'lganligini takidlaydi:

⁴³ Там же.

⁴⁴ Гафуров Б.Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн II. - Душанбе: Ирфон, 1989. С. 23.

“Kangkiya davlatidan sharqqa qarab yurib Farg’ona davlati [Baxena-guo]ga yetib keldik. [Bu mamlakatda] ikkita hukmdor [vang] bor ekan, ularni o’rtadan oqib o’tadigan Fucha [Sirdaryo] ataladigan katta daryo ajratib turadi. Daryoning janubidagi hukmdor arablarga [dayshi, dashi], uning shimolidagi hukmdor turklarga [tujyue] itoat qiladi”⁴⁵. Demak, Qutayba Farg’onaning janubini egallagan, xolos. Shimol esa o’z mustaqilligini saqlab qolgan. Butun vodiyni bo’ysundirish uchun arablarga yana 50 yil kerak bo’lgan.

Movarounnahrning turli viloyatlarini bosib olgan arablar ham mahalliy sulolalarni hokimiyat tepasida qoldirib, ularni o’zlariga vassal qilib oldilar. Ayni vaqtda arablar bu yerda islom dinini yoyishga asosiy e’tibor qaratdilar, aholiga xiroj, jiz’ya singari soliqlar soldilar. Og’ir soliqlarning joriy etilishi, tub joyli aholining tili, madaniyati, diniy e’tiqodlarining kamsitilishi tabiiy ravishda istilochilarga qarshi ozodlik harakatining boshlanishiga olib keldi. Xalq chiqishlariga ba’zan mahalliy hukmdorlar ham qo’shildilar. Ular qo’zg’olondan o’z maqsadlari yo’lida foydalanishga, xalq ommasi yordami bilan arablarga qaramlikdan qutilishga va mustaqil bo’lishga intilar edilar. E’tiborga loyiq hodisa shundan iboratki, bunday qo’zg’olonlar paytida ham mahalliy hukmdorlar bir-biridan ko’mak olishga harakat qilganlar.

720 -yilda sug’diylar qo’zg’olon ko’tardilar. Ularga yordam berish uchun turk xoqoni Kursul boshchiligida qo’shin yubordi. Ittifoqchilar arablarga jiddiy shikast yetkazdilar. Xuroson noibining qo’zg’olonni bostirishga qaratilgan harakatlar natija bermadi. Shunday sharoitda Xuroson noibi etib Said al-Xarashiy tayinlandi. U Iroqdagi qo’zg’olonni bostirishda “dong chiqargan” edi. Yangi noib qo’zg’olonchilar bilan muzokara boshladi. Sug’d zodagonlarining bir qismi xiyonat yo’liga o’tdilar. Ular orasida Sug’d podshosi G’urak ham bor edi. Ammo qo’zg’olonchilarning boshqa

⁴⁵ Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). Фарғона, 2013. Б. 120.

bir guruhi arablarga taslim bo'lishni xohlamay, bosqinchilar tasarrufida bo'lmagan boshqa viloyatga ketishni istab qoldilar. Shunday viloyat Farg'ona edi.

Sug'diylar Farg'ona podshosi Alutarga maktub yo'llab, arablar bilan olib boriladigan muzokaralarda vositachilik qilish va ularga vodiy shaharlaridan birida boshpana berishni so'radilar. Alutar sug'diylarga homiylik qilishga va'da berdi. Ammo Tabariyning xabar berishicha, Alutarning onasi sug'diylarning vodiya kiritilishiga qarshi chiqdi⁴⁶. Ehtimol, u o'z o'g'lining keyingi taqdirini o'ylab, shunday qarorga kelgandir.

Shunday qilib, sug'diylarning katta guruhi Farg'onaga ketishga qaror qildilar. Ularga jasur va mard kishi – Korzanch boshchilik qildi. Aslida Korzanchga Farg'onada yashirinish g'oyasi ma'qul bo'lmagan. U o'z safdoshlariga boshqa rejani taklif etadi: arablarning ilg'or qismiga hujum qilib, ularni tor-mor etish yoki Sirdaryodan shimolga, turklar yurtiga ketish. Ammo sug'd savdogarlari va dehqonlari (yirik zamindor boylar) bu taklifga rozi bo'lmay, Farg'onaga borishni qattiq turib talab qildilar.

Shundan so'ng sug'diylar Farg'onaga yo'l oldilar. Ammo Alutar Said al-Xarashiy huzuriga o'z amakivachchasi Nilan-Balazni elchi qilib yuborib, xiyonatkorlarcha arablar bilan muzokara boshlab yubordi. Sug'diylarga esa o'z zimmasiga olgan majburiyatni 20-40 kundan keyin, ular Isfara yaqinidagi rustoqlardan biriga joylashgandan so'ng bajarishini ma'lum qildi. Darhaqiqat, Farg'onaga yetib kelgan sug'diylarning bir qismi Isfara yaqinidagi Isama g'origa joylashtirildi⁴⁷.

Muzokaralar davom etayotgan paytda sug'diylarning asosiy qismi vaqtincha Xo'jand shahrida turgan edilar. Shu paytda shaharga Said al-Xarashiy yuborgan arab qo'shini yetib keldi. Alutar sug'diylarga yordam bermadi.

⁴⁶ История ат-Табари. Пер. с араб. В.И. Беляева с дополн. О.Г. Большакова, А.Б. Халидова. – Ташкент: Фан, 1987. С. 184-188

⁴⁷ Кадырова Т. Из истории крестьянских движений в Мавераннахре и Хорасане в VIII– начале IX в. – Ташкент: Фан, 1965. С. 73-75.

Arablarga Xo'jandni zabt etish (722-yilning bahori yoki yozi) oson bo'lmadi. Sug'diylar mardonavor jang qildilar. Ular shahar darvozasi yaqinida xandaq qazib, uni ustini berkitdilar va go'yo chekinayotgandek bo'lib, arablarni xandaqqa tushirishga va asir etishga muvaffaq bo'ldilar. Ammo arablarga qo'shimcha harbiy qismlar yetib keldi. Dushman devorni teshuvchi moslama – manjaniqlarni ishga soldi. Shundan so'ng qiyin ahvolga tushgan shahar himoyachilari arablar bilan muzokara olib borishga majbur bo'ldilar. Arablar ulardan Sug'dga qaytish, xiroj solig'ini to'lash, asirlarni ozod etish va qurollarni topshirishni talab qildilar. Sug'diylar ushbu og'ir shartlarga rozi bo'lishdi. Ammo arablar sug'diylardan birini arab ayolini o'ldirishda ayblab, shu bahonada ularni qirg'in qila boshladilar. Sug'd jangchilari hayotining so'nggi lahzalarida ham qahramonlik ko'rsatdilar. Tabariyning yozishicha, qurolsiz qolgan sug'diylar dushmanga qarshi tayoq va to'qmoqlar bilan jang qildilar. Deyarli barcha sug'diylar qirib tashlandi. Faqat 400 nafar savdogar o'z jonlarini qimmatbaho mollar evaziga sotib oldilar. Oddiy xo'jandliklar ham aziyat chekdilar: arablarning boshlig'i xo'jandliklarga o'z bo'yinlarida qo'rg'oshin tamg'a osib yurishni buyurdi, buyruqni bajarmaganlar qatl etildi⁴⁸.

Qo'zg'olon ko'targan sug'diylarning yana bir guruhiga Devashtich boshchilik qildi. Arablarning tazyiqi ostida ular Panjikentdan Zarafshonning yuqori oqimi tomon harakat qildilar. Taniqli tarixchi olim A. Yu. Yakubovskiyning taxmin etishicha, Devashtich ham o'z odamlarini Shahrison dovoni orqali Xo'jandga, undan keyin Farg'onaga olib kelmoqchi bo'lgan⁴⁹. Lekin uning bu niyatlari amalga oshmadi. Mug'tog'idagi qal'ada joylashgan Devashtich askarlari dushman bilan qahramonlarcha jang qildilar. Arablar qal'a himoyachilari bilan muzokara olib borib, 107 oila a'zolariga, shu jumladan Devashtichga ularning hayotini saqlab qolishga kafillik berdilar. Ammo bu safar ham arablar o'z va'dalariga vafo qilmadilar: 722-yilda Devashtich Rabinjon

⁴⁸ Гафуров Б.Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн II. - Душанбе: Ирфон, 1989. С. 25.

⁴⁹ Там же.

(Kattaqo'rg'on)dagi ibodatxonada qatl etiladi, uning boshi esa Iroq hokimiga yuborildi⁵⁰.

Said al-Xarashiy Farg'ona hukmdori Alutarni ham jazoladi. Undan 100 ming dinor pul, 50 ta g'ulom va 50 ta kanizak undirib, Samarqandga qaytdi. Bu "nohaqlik" dan keyin Alutarning arablarga munosabati o'zgardi. U turli vatanparvar kuchlar bilan birlashib, yana arablarga qarshi kurash maydoniga chiqdi. Avvalambor, Alutar 50 ming qarluqdan iborat qo'shin bilan arablarga hujum qilib, berilgan o'ljalarni qaytarib oldi⁵¹. Hijriy 105 (milodiy 723/724) yilda u Ushrushonaga yurish qilgan Xuroson noibi Ibn al-Kulabiyga qarshi chiqdi. Bu gal unga Turkash xoqoni Sulukxon (717-738) yordamga keldi. Ularga sug'diylar va chochliklar ham qo'shildilar. Natijada 20 mingdan iborat ittifoqchilar qo'shini arablarni Samarqandgacha ta'qib etib bordilar⁵².

Ushbu voqealar bayonidan so'ng tarixiy manbalarda Alutar haqidagi ma'lumotlar uchramaydi. Alutarning vafot etishi va undan keyin Farg'onada hokimiyat Arslon tarxon qo'liga o'tish sanasi xususida aniq ma'lumotlar yo'q. Ayrim tadqiqotchilar bu voqealar 726-yilda, boshqalar esa 739-yilda yuz bergan, degan taxminlarni o'rta tashlaydilar. Alutarning o'limidan to Arslon tarxonning taxtga chiqishiga qadar o'rtada boshqa hukmdor bo'lganligi ham ehtimoldan xoli emas.

A. Otax'jaevning fikricha, Arslon tarxon 700-726 yillarda tarxon lavozimida faoliyat yuritgan va asli kelib chiqishi turkiy chigil qabilasidan bo'lgan. Ammo, manbalarda u butun Farg'onani boshqarganmi yoki uning janubi yo shimoliy qismini idora etganmi, degan savolga javob yo'q. Arablar Janubiy Farg'onani egallaganidan so'ng u yerdagi mahalliy sulolaga barham berib, Arslon tarxonni o'z noibi etib tayinlagan bo'lishi mumkin. Lekin 744-747 yillarda Farg'ona va Xitoy o'rtasidagi aloqalar tahlili Arslon tarxon Shimoliy Farg'ona hukmdori bo'lganligini tasdiqlaydi.

⁵⁰ Отаҳўжаев А. Илк ўрта асрларда Шимолий Фарғона ихшидлиги масаласига оид мулоҳазалар // "Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда" мавзусидаги республика илмий анжумани материаллари. Фарғона .2009. Б. 150.

⁵¹ Кадырова Т. Из истории крестьянских движений в Мавераннахре и Хорасане в VIII– начале IX в. – Ташкент: Фан, 1965. С. 77.

⁵² Байпаков К.М. Западнотюркский и Тюркешский каганаты: тюрки и согдийцы, степь и город // Известия НАН РК, 2009. №1. С. 109.

Farg'onaning yangi hukmdori Arslon tarxon o'z tashqi siyosatida Tan imperiyasiga tayanadi. Ma'lumki, Farg'onadan shimolda joylashgan Talas vodiysi Turk xoqonligi g'arbiy hududlarining ma'muriy markazi bo'lib, turklar bu yerdan Chotqol tog'laridan oshib o'tib, vodiygga hujum qilar edilar. Arslon tarxon o'z davlatining xavfsizligini ta'minlash maqsadida 739-yilda Talosga yurish qildi. Ayni vaqtda Xitoy ham bu hududni o'ziga bo'ysundirishga harakat qilardi. Natijada Qoshg'ardagi xitoy garnizoni ko'magida Arslon tarxon Talos hokimi Tuaxueysianni mag'lub qiladi. Bu voqeani Xitoy manbalari ham tasdiqlaydi. "[Imperator] Shyuanzung (712-756-yillarda taxtda o'tirgan, ismi Li Lungji) ning Kayyuan davrining 27 yilida [739-y.] Tuaxueysianni itoat qildirishga [Tang qo'shinlari bilan] hamkorlik qilgani uchun [Farg'ona] hukmdori (vang) Arslon-Tarxonga fengxua-vang ("madaniyatga intiluvchi hukmdor") unvoni in'om etildi"⁵³. Arslon tarxon davrida, Tyanbao davrining 3-yilida (744-y.) xitoyliklar ushbu davlat [Fargona] ga Ningyuan – "olisdagi sokinlik" deb nom berdilar⁵⁴.

Arslon tarxonning to'liq ismi Arslon Er To'g'rul alp Burg'jon Alp Tarxon bek bo'lib, xitoy manbalarida qisqa shaklda "Asilan Dagan" shaklida tilga olinadi⁵⁵. U Farg'onada turklar hukmronligini qayta tikladi, qadimiy kushon sulolasiga barham berdi. 744-yilda Arslon tarxon o'z qarorgohini Chjenju ("Gavharli daryo", ya'ni Sirdaryo) bo'yidagi yangi joyga ko'chiradi (Sirdaryo turkiy tilda "Yinchu o'g'uz" deb atalgan). A. N. Bernshtam yangi turkiy sulola Xitoy bilan tinch aloqalarni o'rnatganligini ta'kidlaydi. Bunga dalil sifatida Arslon tarxonning Xitoy malikasi (Xeyi) ga uylanganligi, uning vorisi Chjungje o'z o'g'li Shyueyuyni Xitoyga yuborib, imperatordan "xitoy urf-odatlarini o'rganish uchun" uni saroy xizmatiga qabul qilishni so'raganligini eslatib o'tadi⁵⁶. Xitoy manbalarining bilimdoni A. Xo'jaev bu masalaga aniqlik kiritadi: Birinchidan, Farg'ona hukmdori Chjungje o'z o'g'li

⁵³ Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). Фарғона, 2013. Б. 86.

⁵⁴ Ўша жойда

⁵⁵ Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). - Ташкент: изд-во АН Уз ССР, 1951. С. 25.

⁵⁶ Там же.

Xitoyga 771-yilda emas, balki 754-yilda (Tyanbao davrining 13-yilida) “xitoy madaniyatini o’rganish uchun” yuboradi. Ikkinchidan, Chjungje imperatordan o’g’lini soqchilik xizmatiga qabul qilishni so’raydi. [Imperator bu iltimos]ga quloq solib, [Fargona hukmdorining o’g’liga] tszuo-uvey tszyantszyun (“chap qanot saroy soqchilari qo’mondoni”) unvonini berdi⁵⁷.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan VIII asrda Farg’ona davlati va Xitoy o’rtasidagi munosabatlar teng huquqli hamkorlik bo’lmay, balki Farg’ona hukmdorlari ma’lum darajada Tan imperiyasiga qaram bo’lgan, degan xulosa kelib chiqadi. Xitoyning Farg’ona hukmdorlari bilan yaxshi munosabati o’rnatishidan asosiy maqsad O’rta Osiyoni arablar tasarrufidan chiqarib, o’z ta’sir doirasiga kiritish edi. Bundan keyingi siyosiy voqealar ushbu fikrni tasdiqlaydi.

VIII asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoda bir tomondan Tibetning, ikkinchi tomondan arablarning ta’siri kuchayib bordi. Buni oldini olish maqsadida 747 yilda Tan sulolasi g’arb tomonga harbiy yurish qildi. Bu jarayonda xitoy qo’shini Toshkentga bostirib kelib, Choch davlatining mol-mulkini talon-toroj qildi va mahalliy hukmdorni Xitoy poytaxti Chan’anga yubordi, u yerda hukmdor qatl etildi. Shundan so’ng, Toshkent hukmdorining o’g’li arablardan madad suradi. Natijada etnik kelib chiqishi koreys bo’lgan Gao Shanfa qo’mondonligidagi xitoyliklar va ularning ittifoqchisi bo’lgan Farg’ona qo’shini arablar bilan to’qnashdi. 751 yilda Talas daryosi bo’yida yuz bergan besh kunlik katta to’qnashuvda 50 ming xitoy lashkarlari qurbon bo’ldi, 20 ming kishi asirga tushdi. Gao Shanfa mag’lubiyatiga Farg’ona qo’shinlarini tashkil etgan qarluqlarning arablar tomoniga o’tib ketganligi sabab bo’ldi⁵⁸.

Arab xalifaligi va Farg’ona davlatining o’zaro munosabatlariga kelsak, farg’onaliklar uzoq muddat davomida arablar hokimiyatini tan olmadilar. Albatta, arablar vodiyni o’z holicha qoldira olmas edilar, shu boisdan 724 yili Farg’ona

⁵⁷ Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). Фарғона, 2013. Б. 87.

⁵⁸ Хо’жаев А. Буюк Ипак Йўли. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашр., 2007. Б. 172.

chegaralarida Muslim binni Said noib etib tayinlandi. U Farg'ona hukmdori harakatlarini nazorat qilishi kerak edi. Ammo u tez orada turklardan mag'lub bo'ladi. 739-yilda Arslon tarxon Tuaxueysian (Tuxosyan)ning Talosdagi qarorgohini zabt etgandan so'ng vaziyat o'zgardi: Turk xoqonligi ancha zaiflashdi. Bundan foydalanib, Xurosonning yangi noibi Nasr ibn Sayyor (738-748) Samarqand, Choch va Farobga harbiy yurish tashkil etadi. Birinchi yurishida u Farg'onaga arablar omili (noibi) etib Muhammad ibn Xolid al-Azdiyni tayinlaydi va Quvada to'xtab, Farg'ona hukmdori vorisi bilan jang qiladi. Ikkinchi yurishida Nasr o'z tashabbusi bilan Usrushona, Shosh va Farg'ona hukmdorlari bilan sulh tuzib, u yerlarga o'z noiblarini yuboradi⁵⁹.

748-yilda Turk xoqonligining poytaxti Suyob shahrining xarob etilishi hamda 751-yilda Talosda xitoy qo'shinlarining tor-mor qilinishi siyosiy vaziyatning arablar foydasiga o'zgarishiga olib keldi. Ular Farg'ona vodiysida ham o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qildilar. Xalifa Mansur davrida Farg'ona hukmdori Qoshg'arda yashashga va arablarga o'lpon to'lashga majbur bo'ldi. Ammo farg'onaliklar uzoq vaqt davomida arablarning asosiy talabi – islomga o'tishni rad etdilar. Faqat xalifa Mahdiy davrida (775-783) Ahmad ibn Asadning yurishidan keyin Kosonda turgan Farg'ona podshosi rasman xalifalik hokimiyatini e'tirof etdi. Lekin VIII asrning 90-yillarida Farg'onada hokimiyatni yana qarluqlarning yabg'usi o'z qo'liga oldi. Shuning uchun arablar xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) davrida yana Farg'onaga yurish qilishga majbur bo'ldilar. Xorun ar-Rashidning buyrug'i bilan uning Movarounnahrda noibi G'itriif Ato Farg'onaga Amr binni Jamol boshchiligida qo'shin jo'natadi⁶⁰. Bu yurishdan asosiy maqsad arablarga qarshi kurashda Farg'ona hukmdorini qo'llayotgan qarluq yabg'usini vodiya quvib chiqarish edi. Ammo Amr binni Jamol mag'lub bo'ldi va arablar bu yurishdan ko'zlagan maqsadiga erisha olmadilar.

⁵⁹Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). - Ташкент: изд-во АН Уз ССР, 1951. С. 26.

⁶⁰Шаниязов К. Узбеки-карлуки. - Ташкент: Фан, 1964. С. 22-23

Farg'ona vodiysi IX asrning boshlarida ham notinch mintaq bo'lib qolaverdi. Jumladan, 806-yilda xalifalikka qarshi Rofe ibn Lays boshchiligida qo'zg'olon boshlandi. Farg'onaliklar Ushrushona, Buxoro, Xorazm va boshqa hududlar aholisi singari bu qo'zg'olonda faol ishtirok etdilar. Qo'zg'olon 810-yilgacha davom etib, unda uyg'urlar (to'quz o'g'uzlar), qarluqlar va hatto tibetliklar ham qatnashdilar⁶¹.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ajdodlarimiz VII-VIII asrlarda arab istilochilariga qarshi uzoq muddat davomida kurash olib bordilar. Bu kurashda Farg'ona hukmdorlari goh O'rta Osiyoning Choch, So'g'd mulklari bilan, goh turklar va xitoyliklar bilan ittifoq tuzib, bosqinchilar bilan ko'p janglar qildilar. Ammo oxir-oqibat bu kurashda farg'onaliklar mag'lub bo'ldilar va Farg'ona vodiysi Arab xalifaligi tarkibiga qo'shib olindi. Bu yerda asta-sekinlik bilan islom dini yoyildi va shariat qonunlari qaror topdi.

⁶¹ Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). - Ташкент: изд-во АН Уз ССР, 1951. С. 26.

II bob. IX-XIII asrlarda Farg'onadagi siyosiy jarayonlar

2.1. Farg'ona vodiysi Somoniylar davlati tarkibida

O'rta Osiyoning IX-X asrlari tarixi birmuncha yaxshi tadqiq etilgan davrlardan biridir. Tarixiy manbalarda siyosiy voqealar sodir bo'lgan markaziy viloyatlar tarixi yaxshi yoritilgani xolda, Somoniylar davlati tarkibiga kiruvchi viloyatlar tarixi haqida qisqa ma'lumotlar berilgan, xolos. Mana shunday viloyatlardan biri Farg'ona vodiysidir. Tarixiy manbalarda Farg'onaning IX – X asrlar tarixiga oid faqat uzoq – yuluq ma'lumotlar berilgan va bu ma'lumotlar hozirgi kunga qadar umumlashtirilmagan.

VIII va IX asrning birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda ro'y bergan xalq harakatlari bundan buyon Arab xalifaligi bu hududlarni faqat qurol kuchi bilan itoatda ushlab turishi amri mahol ekanligini ko'rsatdi. Shu boisdan xalifalik bu yerda o'z siyosatini o'zgartirishga qaror qildi. Ular mahalliy zodagonlarni davlatni boshqarish ishlariga jalb etish yo'li bilan o'z hokimiyatini saqlab qolishga urindilar. Xalifalar sharqiy o'lkalarni idora etishga Somoniylar va Tohiriylar xonadoni vakillarini jalb etdilar.

Somoniylar sulolasining asoschisi – Somonxudot Somon qishlog'ining hokimi bo'lgan. Bu qishloq qayerda joylashgan edi, degan savolga tarixiy manbalarda turli javoblar uchraydi. Ayrim mualliflar bu qishloq Balx viloyatida bo'lgan deb yozsalar,

boshqalar uni Samarqand atroflarida, uchinchilari esa Termiz yaqinida joylashganligini ta'kidlaydilar ⁶².

Somonxudot Xuroson voliysi Asad ibn Abdulloh Kushayriy timsolida o'ziga homiy topdi, islomni qabul qildi va uning sharafiga o'z o'g'liga Asad degan ism qo'yadi ⁶³. Asad ulg'ayib, Xurosonning keyingi voliysi Ma'mun xizmatiga kiradi. Uning o'g'illari, ya'ni Somonxudotning nabiralari Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyos ham Ma'munning xizmatida bo'lib, Tohir ibn Husayn singari Rofe ibn Lays qo'zg'olonini bostirishda xalifalikka yaqindan yordam beradilar. Xalifa Ma'mun qilgan xizmatlari evaziga 819-820 yillarda Nuhni Samarqandga, Ahmadni Farg'onaga, Yahyoni Chochga, Ilyosni esa Hirotga hokim etib tayinlaydi ⁶⁴.

Taxminan shu yillarda Xuroson viloyatining voliyligi ham mahalliy Tohiriylar sulolasi qo'liga o'tadi. 821-yilda Tohir ibn Husayn, bir yildan so'ng u vafot etgach, uning o'g'li Talxa Xuroson voliysi (noibi) etib tayinlanadi. Movarounnahr viloyatlaridagi Somoniy hokimlar Xurosonda noiblik qilgan Tohiriylarga vassal bo'lib, ularga bo'ysunar edilar.

Farg'onaga hokim etib tayinlangan Ahmad ibn Asadning bu yerdagi siyosiy faoliyati osonlik bilan kechmadi. Farg'onada arablarga qarshi qo'zg'olon boshlanganligi bois Ahmad bu yerni tashlab ketishga majbur bo'ldi. Qo'zg'olon Talxa ibn Tohir tomonidan bostirilgandan keyingina Ahmad Farg'onaga qaytib kelib, uzoq muddat hokimlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dastlabki somoniy hokimlarning Farg'onadagi ichki siyosati haqida ma'lumotlar ko'p emas. Gardiziy hijriy 224 (milodiy 839) yilda Farg'onada kuchli zilzila sodir bo'lganligini qayd etadi. Boshqa bir tarixiy manbada 859-yilda Farg'onaning Asht nohiyasidagi Shavdar qasabasida isyon bo'lib o'tganligi hamda

⁶²Неъматов Н. Давлати Сомониён: тоҷикон дар асрҳои IX-X. – Душанбе: Ирфон, 1989. Б 19.

⁶³Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев // Мерос. - Тошкент: Камалак, 1991. Б. 133.

⁶⁴Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Таърих (Полный свод истории) Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечания и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина. - Ташкент: Узбекистан, 2006. С. 66.

isyonchilardan bir necha ming kishi qirib yuborilganligi haqida xabar beriladi ⁶⁵. Ammo bu manbada isyonning sabablari haqida ma'lumot berilmagan.

Numizmatik manbalardagi ma'lumotlardan kelib chiqib, Asadning o'g'illari o'z lavozimlaridan Movarounnahrda kuchli yagona davlat barpo etish uchun foydalanganlar, degan xulosa chiqarish mumkin. Masalan, Nuh ibn Asad nomidan mis tangalar uning mulki bo'lgan Samarqandda emas, balki ukasi Yahyoning mulki hisoblanmish Shoshning markazi – Binkatda ham zarb etilgan. Demak, hokimiyat masalasida Nuhning ukalari uning ustivor siyosiy mavqeini e'tirof etishgan⁶⁶. Narshaxiyning bergan ma'lumotiga ko'ra, Nuh o'limi oldidan o'ziga voris sifatida ukasi Ahmadni tayinlaydi ⁶⁷. Nuh ibn Asad Farg'onada notinch qo'shnilar bo'lmish turk-og'uz va qarluqlar bilan tinimsiz kurash olib borgan. Ibn al-Asirning xabar berishicha, Nuh ibn Asad Ushrushona afshinining mag'lubiyatidan so'ng (838-839 yy) Farg'ona shimolidagi Koson va Urestni, 840-yilda esa Isfijobni o'zining mulklariga qo'shib oladi va chegara bo'ylab mudofa inshootlarini qurdiradi⁶⁸

Nuh va Yahyoning vafotidan so'ng Ahmad ibn Asad butun Movarounnahrni o'z qo'li ostida birlashtirdi. U odatga ko'ra yirik viloyatlarni o'g'illari va vassallariga taqsimlab berdi. Jumladan, Samarqand Nasrga, Farg'ona Asadga, Shosh Muslimga berildi. Ahmad ibn Asadning o'zi esa oliy hokimiyatni saqlab qolgan holda, Farg'onadan turib deyarli butun Movarounnahrni idora etdi. Shu tariqa, IX asrning o'rtalariga kelib, deyarli butun Movarounnahr (Buxoro, Kesh va Chag'oniyyondan tashqari) Somoniylar tasarrufida bo'lgan. Aytish mumkinki, Somoniylar davlatiga tamal toshi Farg'ona hukmdori Ahmad ibn Asad tomonidan qo'yildi. Farg'ona bu davlatning ilk markazi bo'lgan. Keyinchalik, markaz dastlab Samarqandga, so'ngra

⁶⁵ Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. – Москва: Наука, 1963. Т. I (1). С. 268.

⁶⁶ Анарбаев А. Ахсикат – столица древний Ферганы. – Ташкент: Издательство «Тафаккур», 2013. С. 492.

⁶⁷ Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул мухаррир А.Ўринбоев // Мерос. - Тошкент: Камалак, 1991. Б. 147.

⁶⁸ Кадырова Т. Из истории крестьянских движений в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в. – Ташкент: Фан, 1965. С. 181.

Buxoroga ko'chgan bo'lsa-da, lekin Farg'ona muhim mintaqasi sifatida o'z mavqeiini saqlab qoldi.

864-yilda Ahmad ibn Asad vafot etadi. Uning o'rniga Somoniylar davlatining yetakchisi sifatida Samarqand hokimi Nasr maydonga chiqadi. 875-yilda xalifa Mu'tamid Nasrga uni butun Movarounnahrning amiri sifatida e'tirof etganligi to'g'risida yorliq yuboradi. Shundan so'ng 878-879-yilda Nasr ibn Ahmad Somoniylardan birinchi bo'lib o'z nomidan kumush dirham va oltin dinorlar zarb etadi. Bu holat Somoniylar davlati amalda mustaqillikka erishganidan dalolat berar edi.

An'anaga ko'ra, Nasr ibn Ahmad Movarounnahrning turli viloyatlarini o'z ukalariga bo'lib berdi. Farg'ona Abul Ash'os Asad ibn Ahmadga tegdi. U Farg'onaning markazi – Axsikatda turib, o'z nomidan mis tangalar zarb etdi hamda katta huquqlarga ega bo'lgan holda butun viloyatni idora etdi.

Ma'lumki, 874-yilda Nasr ukasi Ismoilni Buxoroga hokim etib yuboradi ⁶⁹. Shu davrdan Somoniylar davlatining tarixida ulkan rol o'ynagan Ismoil Somoniyni siyosiy faoliyati boshlanadi. Ismoil 849-yilda Farg'onaning Xaylam shahrida tug'ilgan. Manbalarda xabar berilishicha, uning otasi Ahmad ibn Asad bu shaharning nomini o'g'li Nasr sharafiga Nasrobod deb o'zgartirgan.

Taxmin etish mumkinki, Ismoil Buxoroda noib bo'lgan dastlabki yillarida akasi Nasrga bo'ysunib, yig'ilgan soliqlarning belgilangan qismini uning xazinasiga yuborib turgan va vassallik majburiyatlarini ado etgan. Ammo keyinchalik Buxoroda o'z mavqeiini mustahkamlab olgan Ismoil markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik yo'lini tutadi. Narshaxiyni yozishicha, u viloyatdan to'plangan 700 ming dirham soliqning salkam 500 ming dirhamini o'zida olib qolish va uni mahalliy ehtiyojlarga sarf qilishga qaror qiladi. Bunga javoban Nasr boshqa birodarlari, shu jumladan

⁶⁹ Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Таърих (Полный свод истории) Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечания и комментарии, введение и указатели Ш.С. Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. С. 68.

Farg'ona hokimi Abul Ash'os Asaddan ko'mak olib, Buxoroga qo'shin tortadi⁷⁰. Ismoil Buxorodan Farobga chekinadi va Xuroson hukmdori Rofe' ibn Xarsamadan yordam so'raydi. Ismoil Somoniy va Rofe' ibn Xarsamaning birgalikda Samarqandga qilgan yurishi muvaffaqiyat qozonmadi. Natijada Ibn Xarsama vositachiligida Nasr va Ismoil o'rtasida sulh shartnomasi tuzildi. Unga ko'ra, Ismoil Buxoroda Nasr foydasiga soliq yig'ish uchun mutasaddi etib tayinlandi.

Oradan 15 oy o'tgach, Nasr ukasi Ismoilidan to'lanishi kerak bo'lgan xirojni talab qiladi. Ismoil esa bu ishni yana paysalga soladi. Shu boisdan Nasr ikkinchi marotaba Ismoilga qarshi qo'shin tortadi. Bu gal ham Nasrga uning ukasi, Farg'ona hokimi Abul Ash'os Asad ibn Ahmad hamrohlik qiladi. Nasr va Ismoil qo'shinlari o'rtasidagi muhoraba 888 yilning kuzida sodir bo'ladi. Bu jang Ismoilning g'alabasi bilan yakunlanadi. Nasr asirga tushdi. Ammo Ismoil Nasrni rasman bo'lsa-da, sulola boshlig'i va oliy hukmdor sifatida tan oldi, Nasr esa uni taxt vorisi etib tayinladi. Lekin amalda hokimiyat Ismoilning qo'liga o'tdi.

Ushbu voqealardan so'ng Nasr tarafdori bo'lgan Abul Ash'os Asad ibn Ahmad Farg'ona hokimi lavozimidan mahrum etilib, uning o'rniga Ismoilning boshqa ukasi Ishoq ibn Ahmad tayinlanadi. 890/891-yillarda Axsikentda Ishoq nomidan zarb etilgan tangalar shundan dalolat beradi. Abul Ash'os Asaddan farqli o'laroq, Somoniylarning hokimiyat uchun o'zaro kurashida Ishoq Ismoilni qo'llab-quvvatlagan edi⁷¹.

892-yilda Nasr vafot etgach, Somoniylar davlatida rasman Ismoilning hukmronligi boshlandi. Is'hoq ibn Ahmad Ismoil Somoniyga davlatni mustahkamlash va uning hududlarini kengaytirishga qaratilgan siyosatini amalga oshirishida yordam berdi. Jumladan, 900-yilda Ismoilning Xurosonga, Safforiylarga qarshi yurishida Farg'ona qo'shini ishtirok etdi. Tarixiy manbalarda bu jangda har ikki tomondan

⁷⁰ Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев // Мерос. – Тошкент: Камалак, 1991. Б. 151.

⁷¹ Анарбаев А. Ахсикат – столица древний Ферганы. – Ташкент: Издательство «Тафаккур», 2013.С. 492.

qatnashgan askarlarning soni haqida ma'lumotlar yo'q, ammo Narshaxiy ushbu muhorabada Farg'ona va Turkistondan kelgan qo'shinning soni 30 mingdan iborat ekanligini eslatadi ⁷².

Hududi tobora kengayib borayotgan davlatni samarali tarzda idora qilish maqsadida Ismoil Somoniy markaziy boshqaruv organlarini tashkil etish va kuchli qo'shin tuzishga e'tibor qaratadi. Natijada, poytaxt Buxoro va barcha viloyatlarda, shu jumladan Farg'onada boshqaruv idoralari – devonlar faoliyat olib bordi. Mamlakat fuqarolari hisobidan tuzilgan lashkar bilan bir qatorda asir tushgan turk askarlari – g'ulomlardan saroy gvardiyasi ("shurat") tuzildi. V.V. Bartold qayd etganidek, Ismoilidan keyin Somoniylar xonadonidan uning darajasidagi siyosiy arbob yetishib chiqmagan bo'lsa-da, ammo u barpo etgan boshqaruv tizimi yuz yilga yaqin muddat davomida davlatning faoliyat olib borishini ta'minladi.

Ismoil somoniyning vorisi – uning o'g'li Ahmad o'ta dindorligi bilan shuhrat qozongan edi. Agar Ismoil davrida davlat hujjatlari fors tilida tuzilgan bo'lsa, Ahmad yana arab tiliga davlat tili maqomini berishga harakat qildi. Arabchani bilgan ma'muriy amaldorlarni davlat himoyasiga olinishi xos askariy kuchlar – shuratning noroziligiga sabab bo'ldi. 914-yilda Ahmad o'zining g'ulomlari tomonidan o'ldirildi.

Amir Ahmadning o'limi va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi qator viloyatlarda separatistik harakatlarni kuchayishiga olib keldi. Farg'ona hokimlari ham rasman markaziy hokimiyatni tan olsalar-da, amalda mustaqil siyosat olib borishga intilar edilar. Ibn al-Asirning bergan ma'lumotlariga ko'ra, 310/922-yilda Ilyos ibn Ishoq Farg'onada Nasr II ibn Ahmadga qarshi isyon ko'taradi. U Muhammad ibn Husayn Mut'i yordamida 30 ming kishidan iborat otliq qo'shin yig'adi va Samarqandga yurish boshlaydi. Nasr II unga qarshi Abu Muhammad ibn Asad boshchiligida bor-yo'g'i 2500 kishidan iborat harbiy bo'linma yuboradi. Abu

⁷² Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев // Мерос. – Тошкент: Камалак, 1991. Б. 156.

Muhammadning kuchlari oz bo'lishiga qaramay, u dushmanga pistirma qo'yib, Ilyosni mag'lub eta oldi.

Ammo Ilyos tinchlanmadi. U Shosh hokimi (voliysi) Abul-Fazl ibn Abu Yusufning yordamiga tayanib, yana isyon ko'taradi. Ammo uning ikkinchi yurishi ham muvaffaqiyat qozonmadi. Ilyosning lashkari Muhammad ibn Yasa boshchiligidagi kuchlar tomonidan tor-mor etildi, uning o'zi esa Qoshg'arga qochdi. Unga yordam bergan Shosh voliysi Abul-Fazl esa asirga olinib, Buxoroga yuborildi va u yerda qatl etildi⁷³.

Qoshg'arda Ilyos ibn Ishoq To'g'on Takin ismli dehqon bilan ittifoq tuzib, yana Farg'onaga yurish boshlaydi. O'sha vaqtda Farg'onada hokim bo'lgan Muhammad ibn al-Muzaffar viloyat mudofasini tashkil etadi. Pirovard natijada Ilyos yana bir bor mag'lubiyatga uchrayd⁷⁴i.

Ilyosning Farg'onaga qilgan so'nggi yurishining sabab va oqibatlariga batafsilroq to'xtalib o'tish zarur, deb hisoblaymiz. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Ilyosning otasi Ishoq ibn Ahmad 888-yilda Ismoil Somoniyga bergan yordami tufayli Farg'ona viloyatiga hokim etib tayinlangan edi. U va uning o'g'li Muhammad 914-yilgacha bu viloyatni idora qildilar.

Yozma manbalarda Ishoq ibn Ahmad to'g'risida batafsil ma'lumotlar yo'q. Uning Farg'ona hokimi bo'lishidan (888) yigirma yilcha vaqt o'tgach, u haqida yozma manbalarda yana ma'lumotlar uchraydi. 907-yilda Ismoil Somoniy vafot etgach, Ishoq ibn Ahmad suloladagi eng yoshi ulug' inson sifatida oliy hokimiyatga da'vogarlik qiladi. Ammo taxtga, yuqorida ta'kidlanganidek uning jiyani, Ismoil Somoniyning o'g'li Ahmad o'tiradi. Ishoq bundan norozi ekanligini yashirmadi. Natijada Ahmadning tarafdorlari uni qamoqqa tashladilar. Ammo Ishoqning o'g'li Muhammad Farg'onani idora etish huquqini o'z qo'lida saqlab qoldi.

⁷³ Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Таърих (Полный свод истории)//Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечания и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. С. 100.

⁷⁴ Там же.

910-911 yilda Ahmad ibn Ismoil amakisini avf etib, unga Samarqandni boshqarishni topshiradi. 914-yilda Ahmad vafot etib, uning o'rniga 8 yashar o'g'li Nasr II taxtga chiqarildi. Bundan norozi bo'lgan Ishoq yana bir marta, bu gal Samarqandda isyon boshladi. Isyon bostirilib, Ishoq qamoqqa olinadi va u yerda vafot etadi. Ushbu voqeadan keyin Ishoq ibn Ahmadning avlodlari Farg'onani boshqarish huquqidan mahrum etiladi. Nasr II boshqa amakisi – Asadning avlodlariga ishonch bildirib, 915-yilda Farg'onani Muhammad ibn Asadga in'om etadi. Ilyos ibn Ishoq esa, 922-yilda Nasr II ga qarshi isyon ko'tarishidan maqsad ota meros mulki, ya'ni Farg'onani qaytarib olish edi, degan xulosa chiqarish mumkin.

Somoniylar sulolasi a'zolari orasida sharq mualliflari tomonidan Farg'ona hokimi sifatida Muhammad ibn Asad nomi yozma manbalarda keltirilmagan. Ammo Abu Amr Muhammad ibn Asad ismli sarkarda nomi 922-yilda Farg'onada yuz bergan isyon voqeasida uchraydi⁷⁵.

Ilyos ibn Ishoq Farg'ona viloyatini qayta qo'lga ololmadi. Ammo bu yerda Asad avlodlarining hukmronligi ham uzoqqa bormadi. Muhammad Farg'onada hokimlik qilgan Somoniylar xonadonining so'nggi vakili bo'ldi. Undan keyin bu yerda hokimlik qilish turk sarkardalarining ixtiyoriga o'tib ketdi.

Hijriy 335-344-(milodiy 946-956) yillarda Nasrobodda zarb etilgan mis tangalarning orqa tomonida “Amir al-muslimin mavlosi amir Malik ibn S.k.r. tegin” degan yozuv uchraydi⁷⁶. Tangalardagi “tegin” so'zi Malikning kelib chiqishi turklardan ekanligiga ishoradir⁷⁷. Numizmatik ma'lumotlardan biz Malik ibn S.k.r. tegin 924- yilda O'zgandda, 932-yil Axsikentda, 937-938 yildan esa butun Farg'onada hukmronlik qilganini bilib olamiz.

⁷⁵ Давидович Е.А. Ферганские Саманиды по нумизматическим данным // ЭВ. Вып. XI. — М.—Л., 1956, С. 18.

⁷⁶ Мамадалиев Х. IX-X асрлар араб манбаларида Фарғона шаҳарларининг тавсифи. “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзuidaги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. Фарғона, 2009. Б. 144.

⁷⁷ Кочнев Б.Д. Заметки по средневековой нумизматике Средней Азии. Часть 6 (Раннее средневековье, Саманиды, Караханиды) // ИМКУ. Вып. 19. С. 185-205. Ташкент, 1984. С. 201.

Shunday qilib, IX asrning 30-yillarida Farg'onada hokimlik qilish Somoniylar xonadoniga mansub voliylerden etnik kelib chiqishi turklardan bo'lgan arboblarga o'tdi. Buning asosiy sababi, bir tomondan, Somoniylar xonadoni vakillari orasidagi ichki nizolar bo'lsa, ikkinchi tomondan mintaqaning siyosiy hayotida turk harbiylari mavqeining mustahkamlanib borishi edi.

Nasrobodda zarb etilgan mis tangalarda Bakr ibn Malikning nomi ham zikr etilgan ⁷⁸. U Malik ibn S.k.r. teginning o'g'li, Nasrobodning hokimi bo'lgan. Somoniy amir Nuh alohida xizmatlari uchun bu shaharni unga taqdim etgan edi ⁷⁹. Demak, S.k.r tegin, uning o'g'li Malik va nabirasi Bakr Nasrobodda ketma-ket hokimlik qilganlar. Bakr Somoniylar qo'shinida sipohsolar, ya'ni qo'mondon bo'lgan. U o'zi turk bo'lishiga qaramay, boshqa turkiy sipohsolorlar bilan nizoga boradi. G'animlarining qo'li baland kelib, 956 yilda Abdumalik ibn Nuh saroyining darvozasi oldida Bakr amir gvardiyasining boshlig'i Alptegin tomonidan qatl etiladi ⁸⁰.

Bakr binni Malik faoliyati haqida Ibn al-Asir va Gardiziyning asarlarida ma'lumotlar mavjud. Ushbu tarixiy manbalarda Bakrning kelib chiqishi Farg'onadan ekanligini bildiruvchi faktlar bor.

Taniqli tangashunos olimi E. A. Davidovich Farg'ona fuluslarida boshqa mahalliy hokimlarning nomlari zikr etilganligi haqida ma'lumot beradi. Jumladan, hijriy 355-356 (milodiy 965-967) yillarda Axsikentda zarb erilgan tangalarda Mansur ibn Boyqaroning nomi zikr etiladi. Shuningdek, Quboda zarb etilgan tangalarda ham uning nomini uchratish mumkin. Vodiyning ikki yirik shaharlarida zarb etilgan tangalarda Mansur ibn Boyqaro ismining zikr etilishi u hijriy 358 (milodiy 968-969) yilda Farg'ona viloyatini hokimi bo'lgan, degan xulosa chiqarish imkoniyatini beradi

⁷⁸ Мамадалиев Ҳ. IX-X асрлар араб манбаларида Фарғона шаҳарларининг тавсифи. “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзuidaги республика илмий-назарий конференсияси материаллари. Фарғона, 2009. Б. 144.

⁷⁹ Нейматов Н. Давлати Сомониён: тоҷикон дар асрҳои IX-X. – Душанбе. Ирфон, 1989. Б. 103.

⁸⁰ Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. – М.: Наука, 1963. Т. I (1). С 309-310

⁸¹. Al-Muqaddasiy esa Mansur ibn Boyqaro somoniy hukmdor Mansur ibn Nuhning birinchi hojibi (hojib ul-hujjob) bo'lganligi haqida ma'lumot beradi ⁸².

Mansur ibn Boyqarodan keyin ham Farg'onani turkiy hokimlar boshqarganlar. Masalan, uning vorisi Ahmad ibn Mansur viloyatni 969-978 yillarda idora qiladi. Hijriy 372-(milodiy 982/983) yilda Farg'ona noibi vazifasini Bilgategin ibn To'g'ru'ljargan. 987-988 va 990-991 yillarda Farg'onani Somoniy hukmdor Nuh ibn Mansurning hojibi Ayach boshqargan.

Somoniylarning Farg'onada hukmronligi rasman 992-yilgacha davom etdi. 992-yilda Farg'onani Bug'roxon boshchiligidagi qoraxoniylar qo'shini egalladi. Shu bilan Somoniylarning bu yerda 170 yildan ziyod hukmronlik qilgan davri nihoyasiga yedi. Ushbu voqeadan ko'p o'tmay, 999-yilda Somoniylar davlati barham topdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Farg'onaning Somoniylar davri tarixini 2 bosqichga bo'lish mumkin deb hisoblaymiz.

Birinchi bosqich 819/820-yildan 932-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Bu yillar oralig'ida Farg'onani bevosita Somoniylar xonadoniga mansub voliylar idora etganlar. Ular Ahmad ibn Asad (819/820 – 864), Abul Ash'os Asad ibn Ahmad (864 - 890/891), Ishoq ibn Ahmad (890/891 - 906/907), Muhammad ibn Ishoq (907-914), Muhammad ibn Asad (914/915-932)lardir. Birinchi bosqichda Muhammad ibn Asaddan tashqari deyarli barcha Somoniylar xonadoniga mansub voliylar markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka harakat qilganlar. Ishoq va uning o'g'li Muhammad zarb ettirgan tangalarda oliy hukmdorlar ismining zikr etilmaganligi shundan dalolat beradi.

Ikkinchi bosqich 932/933-991/992-yillarni qamrab oladi. Bu bosqichda Farg'onani turkiy urug'ga mansub amaldorlar va sipohsolorlar boshqarganlar. Ular Bakr ibn Malik, Mansur ibn Boyqaro, Hojib Qilich, Hojib Tosh, Bilga tegin ibn

⁸¹ Мамадалиев Х. IX-X асрлар араб манбаларида Фарғона шаҳарларининг тавсифи // “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзuidaги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. Фарғона, 2009. Б. 145.

⁸² Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. – Москва: Наука, 1963. Т. I (1). С. 310.

To'g'ru'l va Hojib Ayachlarni kiritish mumkin. Farg'onada hokimlik qilish turkiy urug' vakillari qo'liga o'tishi, bir tomondan Somoniylar sulola vakillarining separatistik hatti-harakatlari, hokimiyat uchun o'zaro kurashlarni avj oldirishlari bilan, ikkinchi tomondan, mamlakatning siyosiy hayotida turkiy qavmlarga mansub amaldorlar va xos qo'shin – shuratning mavqei tobora kuchayib borganligi bilan izohlanadi.

2.2. Farg'ona vodiysi Qoraxoniylar hukmronligi davrida

Ismoil Somoniy vafotidan so'ng, Somoniylar davlatida qattiqqo'l va kuchli davlat boshlig'ining bo'lmaganligi bora-bora viloyatlarda ma'muriy va harbiy ishlarni o'zida jam etgan sipohsolorlarning markaziy hokimiyatdan mustaqil siyosat yuritishiga qulay sharoit yaratib berdi. Bu esa o'z navbatida davlat asoslariga darz ketib, uning kuchsizlanishiga olib keldi. Somoniy hukmdorlardan Nuh ibn Asad, Nasr ibn Ahmad va Ismoil Somoniylar Farg'ona vodiysining shimoliy tumanlariga, Isfijob hududlariga harbiy yurishlar tashkil etib, ko'chmanchi turkiy qabilalarning birlashib Farg'ona va Movarounnahrning obod dehqonchilik tumanlariga qilishlari mumkin bo'lgan bosqinlarining oldini oldilar. X asrning ikkinchi yarmidan boshlab Somoniylar davlatidagi siyosiy inqiroz Sharqiy Turkistonda parchalanib ketgan qabila ittifoqlarining qaytadan kuchayishiga va ularning g'arbga qarab siljib borishlariga qulay vaziyatni yaratib berdi.

Qoraxoniylar qarluq konfederatsiyasiga kiruvchi, chigillardan tuzilgan, edgishey(egdishey) qabilasidan kelib chiqqan edi⁸³. Ilk qoraxoniylar davlatini bir

⁸³ Анарбаев А. Ахсикат – столица древний Ферганы. – Ташкент: Тафаккур, 2013. Б. 496.

vaqtning o'zida bir-biridan amalda mustaqil bo'lgan “*oliy xoqon*” va “*soxoqon*” idora etgan. “So-xoqon” tegin titulini olgan, katta mustaqillikdan foydalanuvchi hukmron xonadon a'zolari hisoblangan⁸⁴. X asr oxirida Qoraxoniylarda oliy xoqon Sharqiy Turkistonda turuvchi Arslonxon Ali ibn Muso bo'lib, uning so-xoqoni Bug'roxon Xorun ibn Sulaymon Somoniylarning siyosiy inqirozidan foydalanib, 990-yildan boshlab Movarounnahrda yurish boshladi. Dastlab Isfijob zabt etiladi va shundan so'ng tezlik bilan Amudaryodan shimoldagi viloyatlar ham egallanadi. Bug'roxon Isfijobdan Samarqand va Buxoro ustiga yurish qilib, Somoniylar markazini zabt etar ekan, xalqning qarshiligi umuman sezilmagan. Aftidan oxiri ko'rinmagan urushlardan zerikkan xalq sulola almashinishiga sukut bilan javob bergan. Nuh bin Nasr zamonidan moliyaviy inqirozlar natijasida Somoniylar soliqlarni orttirishga majbur bo'lgan edilar.

992-yilda Xorun ibn Sulaymon Buxoroni zabt etib o'z nomidan tanga zarb ettiradi. Somoniylar tarafidan Hojib Oytosh (Oytoh, Oytak) Bug'roxonga qarshi jo'natildi, ammo u mag'lub etildi va asir olindi. Bug'roxon Xorun ibn Sulaymon 991/992-yillarda Farg'ona vodiysiga bostirib kirib uni egallaydi. Somoniy Nuh ibn Mansurning vodiydagi noibi Ayachning qarshiligi foyda bermadi. Bug'roxon Ayachning o'rniga o'z noibi Arslon tegin ibn Ulug' teginni tayinladi⁸⁵. Ammo Bug'roxon Xorun Somoniylarning yerlarini to'laligicha egallay olmadi. Qoshg'arga qaytayotgan Bug'roxon yo'lda kasallanib vafot etadi. Bug'roxonning Buxoroda o'z nomidan tanga zarb ettirishi musulmon olamida hokimiyatning Somoniylardan yangi sulola – Qoraxoniylarga o'tganligini anglatar edi. Bug'roxon vafotidan so'ng Nuh ibn Mansur Saljuqiylar yordamida hokimiyatni qaytarib oladi⁸⁶.

Bug'roxonning vorisi sifatida buyuk xoqon Arslon Alining o'g'li Ahmad ibn Ali ko'tariladi. Shunday bo'lsa-da, Movarounnahrni to'laligicha zabt etish uning ukasi

⁸⁴ Там же.

⁸⁵ Указ соч. С.497.

⁸⁶ Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. 1 – Москва: Наука, 1963. С. 318-319.

(Ahmad ibn Alining) Nasr ibn Ali nomi bilan bog'liqdir. G'azna hokimi Sobuqtegin Nasr ibn Ali bilan bitim tuzib, Movarounnahrni uch qismga taqsimlashadi. Movarounnahrning mazkazigina mintaqaning sobiq hukmdori Somoniylarga qoldirilib, janubi va shimoli G'aznaviy va Qoraxoniylar o'rtasida bo'lib olinadi. Chunki Qoraxoniylardek kuchli raqib bilan bevosita chegaradosh bo'lishdan ko'ra, Sobuqtegin uchun ular o'rtasida Somoniylarning kuchsiz davlati saqlanib qolishi qulay edi. Ammo Sobuqtegin vafotidan foydalangan Nasr ibn Ali butun Movarounnahrni qarshiliksiz bosib oladi. Nasr Eloqxon dushanba 23 oktyabr 999 yili Buxoroni zabt etadi va xazinani musodara qiladi. Abdulmalik va boshqa Somoniylar oilasiga mansub boshqa kishilarni O'zgandga jo'natadi. Nasr Eloqxon Buxoro va Samarqandga o'z hokimlarini tayin etib, o'zi O'zgandga qaytadi.

Shu tariqa Somoniylar davlati barham topdi. Ammo oradan hech qancha o'tmasdan Abu Ibrohim Ismoil Somoniy O'zgandagi zindondan kanizak yordamida qochib, Qoraxoniylarga qarshi kurashadi. Abu Ibrohim Ismoil Xorazmga borib Somoniylardan qo'shin to'plab, 1000-yilda Buxoroga qo'shin tortib, shaharni egallaydi, Qoraxoniylarning qolgan qo'shini Samarqanddan panoh topishadi. Bundan xabar topgan Abu Ibrohim Ismoil o'zining hojibi Arslon Bolu boshchiligida Samarqandga qo'shin yuboradi. Samarqandda Qoraxoniylar xonining ukasi Ja'far Tegin ularga qarshi harakat qiladi, ammo mag'lub bo'lishadi, asirga olinib, O'zgandagi Abu Ibrohim Ismoil qarindoshlari ozod qilinib o'rniga ular zindonband qilinadi. Muntasir o'ziga ittifoqchi topish maqsadida Somoniylarni vassallari (sobiq) o'g'uzlarga murojaat qiladi. Bu davrda o'g'uzlar Sirdaryo quyi oqimi va Orol atrofida yashashar, markaziy shahri Yangikent edi. O'g'uzlar yordami bilan Muntasir 1003-yil Nasr Eloqxon qo'shinlarini tor-mor keltiradi. Ammo Muntasir o'g'uzlarni unga qarshi suiqasd qilishidan qo'rqib, boshqa ittifoqdosh topish yo'lini izlaydi. Dobusiya shahri yaqinida Muntasir Eloqxon noibi qo'shinlarini tor-mor keltiradi. Muntasir qo'shini sonini ko'paytirib 1004-yilda Burnomad shahri yaqinida (Istiravshan g'arbida) Nasr Eloqxon qo'shinini tor-mor keltirdi. Nasr Farg'onaga qaytib keladi va yangi qo'shin

to'plashga tushadi. Bu vaqtda o'g'uzlar 4 ming qo'shin bilan qoraxoniylar tarkibiga kelib qo'shiladi va Muntasirni Xurosonga qaytib kelishiga majbur qiladi. Bu mag'lubiyatdan so'ng Abu Ibrohim Muntasir Somoniylar sulolasini hokimiyatni qo'lga olishiga harakatini to'xtatib qolmadi. Muntasirni Xurosonda G'aznaviylar noiblari va Kovus ibn Vushmagir lashkarlari ta'qib qilishardi. 1004-1005 yillarda qishda yana Movarounnahrqa qaytib keladi, Nasr Eloqxon bundan xavotirga tushib, 1005-yilda arab badaviysi qo'li bilan Somoniylarni oxirgi vakili Muntasir o'ldirtiradi. Shunday qilib, Somoniylarning harakati natijasiz tugadi. Abulrahim Ismoil Muntasir zakovatmand va shoir bo'lganligi manbalarda, jumladan Utbi, Ibn al-Asir asarlarida ta'kidlagan.

Ayni shu vaqtda Qoraxoniylarning ulug' xoqoni Arslon Ali vafot etib, o'rniga katta o'g'li Ahmad ibn Ali (Tog'anxon) taxtga o'tiradi. Kichik xoqon (so-xoqon), Qodirxon Yusuf ibn Xorun Qoshg'arda turib, Sharqiy Turkustonni idora etardi. Rasmiy iyerarxiyaning uchinchi bo'ginida Nasr in Ali turar edi. Tez orada Nasr ibn Ali Farg'onadan (O'zganddan) turib butun Mavarounnahrni idora eta boshladi va o'ziga Arslon ilig titulini qabul qildi. Nasr ibn Ali sirtidan mustaqil siyosat yuritisa-da, lekin rasmiy ravishda akasi ulug' xoqon Ahmadga itoat etardi. Urushda qo'lga kiritilgan o'ljalardan unga ulush jo'natilgan hamda zarb etiladigan tangalarda uning nomi keltirib o'tilgan.

Nasr ibn Alining qo'l ostidagi yerlarida Movarounnahrni zabt etishda tayanch bo'lgan Farg'ona vodiysi alohida ahamiyatga ega edi. Sharq mualliflari tomonidan O'zgand turklar bilan chegara shahar sifatida eslatib o'tilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, Nasr ibn Ali O'zgandni o'ziga poytaxt sifatida belgilaydi.

1012-yilda Nasr ibn Ali O'zgandda vafot etdi va shu yerga dafn etiladi⁸⁷. Siyosiy sahnaga marhum xoqon Arslon Alining yana bir o'g'li Mansur keldi. U akasi ulug' xoqon Ahmad nomidan Movarounnahrning markaziy viloyatlarini, Xo'jand va

⁸⁷ Абу-л-Фадл ибн Мухаммад Джамал ад-Дин Карши. Мулкахат ас-сурах (пер с персидского Р.Ш. Шарафутдиновой) // Материали по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. С. 107.

Farg'onani idora etardi. Bu katta hududlar unga mustaqil siyosat yurita olishiga imkon berardi. Shu sababli tez orada aka-uka orasida oily hokimiyat uchun kurash boshlanadi. 1014-1017 yillarda davom etgan kurashda Mansurning qo'li baland kelib, akasi Ahmad Samarqand va Buxorodan tashqari O'rta Osiyodagi barcha mulklaridan ajradi. Arslonxon Mansurning eng qudratli vassallaridan biri Muhammad ibn Ali bo'lib, u Movarounnahrning markazi va Farg'onani idora etardi. Keyingi o'n yilliklarda Farg'onani Ahmad ibn Muhammad, Ahmad ibn Mansur va Muhammad ibn Nasr idora etganlar.

1024-ilning ikkinchi yarmiga kelganda Arslonxon Mansur vafot etadi. Shundan so'ng oily hokimiyat Xasaniylar qo'liga o'tadi. Xoqonlik taxtiga Muhammad ibn Xasan – To'g'onxon, keyin esa Sharqiy Turkiston hukmdori Yusuf Qodirxonlar kelishadi. Shunday bo'lsa-da, Nasr ibn Ali avlodlari Farg'onadagi hukmronligini davom ettiraveradilar. Numizmatik manbalarga ko'ra, Muhammad ibn Nasr Yusuf Qodirxon (1029-1032) boshqaruvining so'nggi yillarida amalda butun Farg'onani idora etgan. Ammo uning o'g'li Abbos davrida Farg'onaning shimoligina bu xonadon ixtiyorida edi, xolos.

1038-1039-yillarga kelib uzoq muddatli tanaffusdan so'ng Muhammad ibn Nasrning ukasi Ibrohim ibn Nasr boshqaruvni o'z qo'liga olib, tez orada Samarqand va Movarounnahr markazini o'ziga bo'ysundiradi. O'ziga xoqonlik tituli Tamg'ach Bug'roxon nomini qabul qiladi. Shu davrdan boshlab poytaxti Samarqand bo'lgan G'arbiy Qoraxoniylar davlati vujudga keladi.

Ushbu holatda Qoraxoniylar davlati ikkiga – g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'linib ketdi. Ayni vaqtda sharqiy xoqonlikni Xasaniylar va g'arbiy xoqonlikni Alilar sulolasi idora etmoqda edi. Ibrohim Tamg'achxon davrida g'arbiy xoqonlik kuchayib, sharqiy xoqonlikning Sharqiy Turistondan tashqari barcha yerlari egallanadi. Ibrohim Tamg'achxon tomonidan Farg'ona va shu kabi udel yerlarda amalga oshirgan markazlashtirish siyosati natijasida Movarounnahrda uzoq vaqt

siyosiy barqarorlik o'rnatildi. Shu sababli o'rta asr mualliflari tomonidan Ibrohim Tamg'achxon adolatli, ideal hukmdor sifatida ta'riflanadi⁸⁸.

Ammo Ibrohim Tamg'achxon vafotidan so'ng vorislari o'rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Jumladan, taxtga o'tirgan Shams ul-mulkka qarshi ukasi Shuays isyon ko'taradi. Bundan foydalangan sharqiy Qoraxoniylar Farg'onaga bostirib kirib, uni egallaydi. Lekin Shams ul-mulk Farg'onani qaytarib oldi. Shams ul-mulkdan so'ng xoqonlik taxtiga uning birodari Xizraxon o'tiradi. Xizraxon 1080-1081 yillarda qisqa hukmronlik qilib, to'satdan vafot etadi. Uning me'rosiga o'gli Ahmad ega chiqadi (1081-1089). Ahmadning boshqaruvi davrida Movaraunnahr ishlariga Saljuqiylar aralasha boshlaydi. 1089-yilda saljuqiy Malikshoh g'arbiy Qoraxoniylar yerlariga bostirib kiradi va Samarqandni egallaydi. Shundan so'ng Xo'jand orqali Farg'onaga bostirib kirgan saljuqiylar vodiyning o'sha paytdagi poytaxti O'zgandni egallaydi. Ahmad esa asir olinib, Isfahonga yuboriladi. Ammo 1092-yilda Malikshoh uni yana Samarqand taxtiga qaytaradi. Shunga qaramay, Ahmad 1095-yilda fitnachilar tomonidan qatl etiladi. Ahmadning qo'shini uni yoqtirmas va uni zindiq⁸⁹ deyishardi. Aslida Samarqanddan asir qilib olib ketilgan Ahmad Isfahonda daylamiylar guruhiga qo'shiladi. Daylamiylar Ahmadni o'z talimotlariga jalb qiladilar va uni to'liq ozod bo'lishiga bor imkoniyatlarini ishga solishadi. Movarounnahrda daylamiylarning dindan qaytganligi haqidagi ovozalar tarqaladi. 1092-yilda Ahmad Daylamiylar yordamida Samarqandga qaytganda unda islom dinidan qaytganlik alomatlari namoyom bo'ladi. Shundan so'ng uning tarafdorlari undan yuz o'girib, uni o'ldirish rejasini tuzishadi. Ular Koson qala'si qo'mondoni To'g'ul Yinalbek bilan kelishib isyon tayyorlashadi⁹⁰. Kelishuvga ko'ra, To'g'ul Yinalbek Kosonda isyon ko'tarishi, isyonni bostirish uchun Ahmadxon Farg'onaga kelishi kerak edi. Kosonda isyon ko'tariladi va bundan bexabar Ahmadxon qo'shini bilan uyerga yetib boradi.

⁸⁸ Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. 1 – Москва: Наука, 1963. С. 374-375.

⁸⁹ Zindiq-yeretik

⁹⁰ Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Таърих (Полный свод истории) Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечания и комментарии, введение и указатели Ш.С. Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. Б. 227.

Shunda To'g'ul Yinalbek va Ahmadxonning qo'shini birlashib, Ahmadxonni asirga olishadi. Samarqandga olib kelingan Ahmadxon zindqlikda ayblanib qatlga hukm etiladi. Taxtga amakisining o'g'li Ma'sud o'tiradi⁹¹.

Shundan so'ng qisqa vaqt ichida bir qancha hukmdorlar almashadi. Ulardan faqatgina Arslonxon Muhammadgina (Ibrohim Tamg'achxonning evarasi) chorak asr mamlakatni idora eta oldi⁹². Xuddi shu Arslonxon Muhammadning Movarounnahrda va Husayn To'g'ulxonning Farg'onadagi hukmronligi davrida O'rta Osiyoda Qoraxitoylar istilosi yuz berdi.

Qoraxitoylar-Kidanlar X asrda Tinch okeanidan Sharqiy Turkistongacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan Lyao imperiyasiga asos solishgan edi⁹³. Kidanlar o'z davlatlarini Xitoy namunasi asosida tashkil etgan. 1125-yilda shimoliy Xitoyda Chjurchenlar tomonidan Kidanlar hokimiyati ag'dariladi. Ammo tez orada Kidanlarda hukmron sulola a'zolaridan bo'lgan Elyuy Toyshi (Dashi) G'arbiy Kidanlar (Qoraxitoylar) davlatiga asos soladi. 1133-yilda Kidanlar Sharqiy qoraxoniylar xoqonligini egallaydi va Farg'ona vodiysidan o'tib, Xo'jandga yaqinlashadi. Qoraxoniylarning Farg'onani jang bilan zabt etganligi haqida manbalarda ma'lumotlar hozircha yo'q. Ehtimol o'z hokimiyatini saqlab qolishni o'ylagan Husayn To'g'ulxon Kidanlarga bo'ysunib, ularga xiroj to'lash bilan cheklangandir. 1137-yilda Xo'jand yaqinida Samarqand hukmdori Mahmud Kidanlar tomonidan mag'lub etiladi⁹⁴.

1141-yilda Samarqand shimolidagi Qatvon dashtida Saljuqiylar va Qoraxoniylarning birlashgan kuchlari Kidanlar tomonidan qaqshatqich mag'lubiyatga uchratildi. Natijada butun Movarounnahr Kidanlar qo'lga o'tadi. Kidanlar mahalliy hokimlar ichki ishlariga aralashmay ulardan o'lpon olish bilan chegaralandilar.

⁹¹ Там же

⁹² Анарбаев А. Ахсикат – столица древний Ферганы. – Ташкент: Тафаккур, 2013. Б. 498.

⁹³ Там же.

⁹⁴ Там же

Kidanlar davrida Farg'ona qoraxoniylari mulki amalda mustaqil siyosat yurita boshladi. Farg'ona hukmdorlari O'zganddan turib vodiyni idora etar, Samarqand xoni va Kidanlar go'rxoniga nomigagina bo'ysunar edi. Hatto Farg'ona hukmdori Husayn To'g'rulxonning vorisi Ibrohim 1178-1179-yillarda Samarqandni egallab, o'z nomidan tanga zarb ettiradi va ismini xutbaga qo'shtiradi⁹⁵. Ibrohim Samarqandga ketganidan so'ng, Fargonani uning o'g'li Qodirxon idora eta boshladi. Qodirxon Farg'onani 1210-1211-yillargacha idora etdi. Otasi Ibrohim vafotidan so'ng Qodirxon, akasi Samarqand hokimi Usmon singari sulton titulini qabul qiladi.

1210-yilda Farg'ona vodiysiga bostirib kirgan Muhammad Xorazmshoh O'zgandgacha yetib boradi. Ilamish dashtida yuz bergan jangda Kidanlar mag'lub bo'ladi va Muhammad Xorazmshoh Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi. Shunday bo'lsa-da Movarounnahr va Farg'onaning shimoliy tumanlari naymanlar xoni Qo'shluxon ixtiyoriga o'tib ketadi. Qoraxoniylar sulolasiga xotima berilishi ham aynan Muhammad Xorazmshoh nomi bilan bog'liq.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Qoraxoniylar darida Farg'onada feodal tartiblar chuqur ildiz otdi. Movarounnahr va Sharqiy Turkiston orasida joylashgan Farg'ona vodiysi alohida udel sifatida shakllandi. Ammo shu udelning o'zi ham Koson va Marg'ilon singari mayda udellarga bo'lingan edi. G'arbiy va Sharqiy xoqonlikning bahsli hududiga aylangan bu mintaqa qulay geografik holatidan foydalanib, hatto G'arbiy xoqonlik yerlarini birlashtirish darajasiga yetdi (Ibrohim ibn Husayn tomonidan).

⁹⁵ Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. 1 – Москва: Наука, 1963. С. 417-418.

III bob. V-IX asrlarda Farg'onadagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

3.1. V-XIII asrlarda Farg'onaning ijtimoiy-iqtisodiy va shaharlar hayoti

Farg'onada ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, shu bilan birga shaharlar ilk o'rta asrlarda bir oz bo'lsada vodiya qo'shni hudud va O'rta Osiyo shaharlaridan ajralib turgan. Mug' tog'idan topilgan hujjatlarga asosan bizga shu narsa ma'lum bo'ldiki, jamiyatdagi hukmron sinf ham siyosiy, ham iqtisodiy rejada, yagona holatda ko'rinib turardi. Bu iyerarxiyaning eng yuqori qismi, O'rta Osiyoning hukmron sulolalari xitoy manbalarida "chjou" deb yuritilgan⁹⁶. "Beyshi", "Suyshi" va "Tanshu" kabi xitoy manbalarining xabar berishicha yuqoridagi sulolalar yuechjilardan kelib chiqqan. O.I Smirnovaning ta'kidlashicha, bir necha nomlar so'g'diy tangalar orqali

⁹⁶ Анарбаев А. Ахсикат — столица древний Ферганы. — Ташкент: Тафаккур, 2013. С. 490.

o'qib o'rganilgan bo'lib, bu sulolalarning uzoq yillar davomida eronlashganidan guvohlik beradi⁹⁷.

Yer egalari “dehqon” deb yutilgan. Arab manbalarida Movaraunnahr hukmron “dehqon” lari “malik” va “sohib” nomlari bilan tilga olingan⁹⁸. Bu paytda So'g'd hukmdorlari ham yer egalari bo'lgan. Masalan, arab matnlarida G'urak va Divashtich “dehqon” yoki oddiy “azim” nomi bilan atalgan. Solishtirib ko'rilganda, ularning ko'pchiligi oddiy dehqon – yer va qishloq hokimlari edi. Aynan shu dehqonlarning farzandlari dehqon-azimlar huzurida xizmatda bo'lgan⁹⁹. Shu bilan birga, bu vaqtda So'g'd hukmdorlari huzurida chokarlardan tuzilgan maxsus harbiy qismga ham ega edi. Syuan Szanning ma'lumotiga ko'ra, Samarqand chokarlari har tomonlama kuchliligi bilan ajralib turgan.

Mug' tog'idan topilgan A9 raqimli hujjatda jamiyatning ijtimoiy qatlamlari sanab o'tilgan. Unda takidlanishicha, “ziyolilar va savdogarlar” (ozod va ozodkor), oddiy xalq (ishchi) va ma'naviy rahnamolar (baxshi)lar jamiyatning ijtimoiy tarkibini tashkil etgan. Oxirgi quyi qatlamni xizmatchilarning (qullar) turli ko'rinishdagilaridan iborat edi. Ularning xizmat muddati umrbod yoki vaqtincha bo'lishi mumkin bo'lgan¹⁰⁰.

Ilk o'rta asrlarda jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va etnomadaniy hayotida tub o'zgarishlar yuz beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada mahalliy mayda mulk egalari — kashovarzlar orasida mulkiy tabaqalanish jadal kechadi. Mulkchilikning yirik shakllari chorvador jamoalarda, hunarmandchilikning qator jabhalari va savdo-sotiq jamoalari orasida ham kuzatiladi. Katta yer egalarining shahardan tashqaridagi mulki baland mudofaa devorlari bilan o'rab olinib, ular o'rtasida shahona qasr va qal'a-qo'rg'onlar paydo bo'ladi. Ilk o'rta asrlar ijtimoiy hayotining hosilasi sifatida kechagi kashovarzlarning kambag'allashgan qismi kadivarlar— yersiz ijarachi qo'shchilar

⁹⁷ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. Москва: Наука, 1970. С. 25.

⁹⁸ Анарбаев А. Указ. соч. С. 490.

⁹⁹ Смирнова О.И. Указ. соч. С. 38-45.

¹⁰⁰ Смирнова О.И. Указ. соч. С. 69-70.

qatlami paydo bo'ladi. Kashovarzlarning boyib borayotgan ishbilarmon qismi yirik mulk egalari —dehqonzodalarga ayla-nadi. Ilk o'rta asrlar davrining dehqonzodasi katta mulk egalari bo'lib, Yevropada shu toifa kishilar feodal, ya'ni katta mulk egasi ma'nosini anglatgan. Shuning uchun bu davr tarixda ilk feodalizm davri nomini olgan.

Ilk o'rta asrlar O'rta Osiyosining dehqonzodalari mayda mulk egalari — kashovarzlar, ozodkorlar va guvakorlar birgalikda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining asosini tashkil etganlar, ular jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi, jamoalari hisoblangan. Ungacha O'rta Osiyo sharoitida katta mulk egaligi bo'lmagani uchun O'rta Osiyoda quldorlik jamiyati bo'lmagan, degan xulosaga kelinmoqda. O'rta Osiyoning qadimgi sug'orma dehqonchilik mintaqalarida bronza¹⁰¹ davrida paydo bo'la boshlagan kashovarzlar yer egaligi va dehqonzodalar jamiyat iqtisodiy hayotining barcha jabhalariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Natijada, chorvachilik va hunarmandchilikning barcha jabhalarida, savdo-sotiqda yirik mulk egalari dehqonzodalar va o'rta va mayda mulk egalari — kashovarzlar bilan birgalikda jamiyat iqtisodiy hayotining asosi bo'lib qoldi. Jamiyatda harbiy hokimiyat o'rnatgan turkiy siyosiy kuch esa O'rta Osiyo shimoli-sharqidan to'xtovsiz turkiy etnik guruhlarining kirib kelishini tezlatadi. Joylarda boshqaruv tizimining turk aslzodalari ta'siriga o'tishi ham mintaqada etnogenetik jarayon rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada, Turon zaminda turkiy etnik qatlamning qalinlashuv hosilasi sifatida bu yurt yozma manbalarda Turkiston deb atala boshlaydi. Bu tarixiy va etnogenetik jarayonlar nafaqat yozma manbalarda, balki ilk o'rta asrlar davri arxeologik materiallarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shunday qilib, milodiy VI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda Turk xoqonligi hukmronligining o'rnatilishi bilan bu zaminda turkiy qabilalarning kirib kelishi shu qadar jadallashdiki, oqibatda O'rta Osiyoning shimoliy, shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy viloyatlarida turkiy etnos jamiyatning hukmron etnik qatlamiga

¹⁰¹ Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. — Тошкент: Университет, 2007. Б. 223.

aylandi. Sharqshunos olim A.Yu.Yakubovskiyning yozishicha, O'rta Osiyoning Amudaryogacha bo'lgan hududlarida turkiy qabilalar kirib bormagan biror joy qolmagan edi. Darhaqiqat, xoqonlikning yaqin 100 yil davom etgan hukmronlik davrida jamiyatning ijtimoiy qiyofasi turkiygo'y etnik qatlamlar foydasiga ishladi. Milodiy III-IV asrdan e'tiboran tarkib to'a boshlagan hokimliklar avval mahalliy sulolalar tomonidan boshqarilgan bo'lsa, Turk xoqonligi siyosiy maydonga chiqqach, ular turk sulolalari vakillari bilan almashtirila boshlandi. Ba'zi bir viloyatlarda, masalan Janubiy Qozog'iston va Toshkent vohasida mahalliy hokimliklar deyarli turkiylar qo'lga o'tib ketgan edi. Bu hol, yozma manbalarda ta'kidlanishicha, O'rta Osiyoning markaziy va janubiy viloyatlariga ham yoyilgan edi.

VIII asr boshlarida arablar O'rta Osiyoni juda ko'p talofatlar berish evaziga bosib olgandan keyin ularning oldida qator muammolar paydo bo'ldi. Birinchidan, erksevar mahalliy aholi arablarga osonlikcha yon bermadi. Arablar turkiy sulola hukmdorlaridan farqli o'laroq, mamlakatni boshqarishni o'z qo'llariga olishga intildilar. Mahalliy hokimliklarning o'z hududiy doirasida mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borishlariga qattiq qarshilik ko'rsatib, hokimiyatni xalifalik qo'lida to'plashga intildilar. Natijada, Movarounnahr va Xurosonda birin-ketin bosqinchilarga qarshi umumxalq harakati, qo'zg'olonlar boshlanib ketdi. Ikkinchidan, arablar mintaqa hududlarida ildiz ortgan turkiy hukmron siyosiy vaziyatga barham berish siyosatini olib boradilar. Chunki jangovar turkiy qabilalarning Movarounnahrda guruh-guruh bo'lib kirib kelishini keti ko'rinmas edi. Ularni Movarounnahrda kirib kelishini to'xtatish va mintaqaning yagona xo'jayini bo'lib olish uchun arablar Movarounnahr shimoli-sharqiga joylashgan dehqonchilik vohalari chegaralari bo'ylab mudofaa devorlarini qura boshladilar.

O'rta Osiyoda, jumladan Farg'ona vodiysida asosiy daromadli soha savdogarlik edi¹⁰². U ichki va tashqi savdo ko'rinishida olib borilgan. Vodiya savdo-

¹⁰² Анарбаев А. Ахсикат – столица древний Ферганы. – Ташкент: Тафаккур, 2013. С. 491

sotiq ishlari ilk o'rta asrlarda ham jadal kechgan, bu holatni vodiy Buyuk Ipak yo'li ikki qismga bo'lingan mintaqada joylashganligi bilan izohlash mumkin.

Ushrushonadan shimoli-sharqda, Sirdaryoning yuqori havzasida go'zal Fragana (Farg'ona vodiysi) joylashgan. U Herodotning «Tarix» asarida «pari-kaniylar yurti» nomi ostida eslab o'tiladi. Farg'ona so'zi sug'd manbalarida «Fraganik» shaklida yozilib¹⁰³, «tog'lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik» ma'nosini anglatadi. Xitoy manbalarida «Dayyuan, ya'ni Davan» deb atalgan. Dayyuan ham «tog'lar orasidagi vodiy» ma'nosini beradi. «Parikaniylar yurti» 'ahlaviy manbalarida «'arkan davlati» sifatida tilga olinadi. Qadimgi Farg'ona haqidagi mufassal ma'lumotlarni biz Xitoy manbalarida uchramiz. Bu ma'lumotlar xitoyliklarning mashhur «24 tarixi»ning 1-2 jildi, ya'ni Sima Syanning «Tarixiy xotiralar» va Ban Guning «Birinchi Xan sulolasi tarixi» asarida berilgan. Bu ikki asar N.Ya.Bichurin tarjimasi asosida bizgacha yetib kelgan. Ammo «24 tarixi»ning Markaziy Osiyoga tegishli ko'pgina boblari N.Ya.Bichurin tarjimasiga kiritilmagan. Ana shu «24 tarixi»ning 1-2 jilddaridagi Markaziy Osiyoga tegishli qismlari 1987-yildan boshlab uyg'ur tiliga tarjima qilina boshladi. Natijada, Farg'ona-Xitoy munosabatlariga doir yangi ma'lumotlar olish imkoniyati tug'ildi. Masalan, Farg'ona-Xitoy munosabatlariga oid ma'lumotlar «Tarixiy xotiralar»dagi «Xan Udi tazkirasi», «Farg'ona tazkirasi», «Hunnlar tazkirasi» va «Xannoma»dagi «Xan Udining tarjimai holi», «G'arbiy yurt (qo'rqor) tazkirasi», «Hunnlar haqida qissa», «Xan Vendi tazkirasi», Chjan Szyan, Li Guangli tarjimai holi», «Nag'ma nova tazkirasi», «Besh anosir (modda yoki jism) tazkirasi» kabi boblarda beriladi.

Qadimgi Farg'onaga nisbatan Xitoy manbalarida Davan davlati haqidagi ma'lumotlar oxirgi marta milodiy III asrda uchratiladi¹⁰⁴. 436-yilda imperator Vey elchisi Dun Vanning g'arbga safari munosabati bilan qadimgi Farg'ona «Polona» nomi bilan sobiq Davan o'rnida ishlatilgan. Qadimgi Farg'ona yana bir Xitoy

¹⁰³ Гафуров Б.Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн I. – Душанбе: Ирфон, 1989. С.369.

¹⁰⁴ Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. Б. 51.

manbasi «Bey-shi»da (VII asr) «Boxan», «Feyxan» nomlari bilan tilga olinadi. «Beyshi»da Feyxanda «hukmdor taxti oltin qo'chqor qiyofasida» ishlangan deyiladi. Boshqa bir Xitoy manbasi «Tanshu»da (X asr) Qadimgi Farg'onani «IV asrdan boshlab to hokimiyat tepasiga turklar kelganiga qadar bir sulola boshqargan» deyiladi 630-yili O'rta Osiyo orqali Hindistonga safarga otlangan Xitoy elchisi Syuan Szan sobiq Davanda mamlakat yagona hukmdor tasarrufida emas, u yerda mayda mahalliy hukmdorlar ko'pligini ta'kidlaydi.

Mahalliy yozma manbalarda to VIII asrgacha Farg'ona mulki haqida hech bir ma'lumot uchramaydi. Arablar bosqini munosabati bilan Panjikent hokimi va bir vaqtning o'zida Samarqand podshosi Divashtich arablarga qarshi mahalliy hokimliklarning birlashgan harbiy ittifoqini tuzish tashabbusi bilan chiqqan. U o'z ishonchli kishisini Choch tuduni, Turk xoqoni va Farg'ona mulki hukmdoriga tegishli xatlar bilan ular huzuriga yuborgan. Ana shu elchilik xatlarining Farg'ona ixshidligiga tegishli nomasida Farg'ona nomi sug'dcha «Fraganik» shaklida berilgan. Ilk o'rta asrlarda Farg'ona mulkining Fraganik ixshidligi nomi ostida yuritilishini arab tarixchilari ham tasdiqlaydi. Arab tarixchiari Yoqut va Qudamalarning xabar berishiga qaraganda, ilk o'rta asrlarda nafaqat Farg'ona mulki, balki uning bosh shahri ham Fraganik deb atalgan. Ibn Xurdodbehning «Yo'llar va podsholiklar haqida kitob» asarida xalifalikning sharqiy viloyatlarida karvon yo'llari qaysi shaharlar orqali o'tgani, ular orasidagi masofalar berilgan. Shu manbada «Samarqanddan Fraganikkacha (bu yerda u qadimgi Farg'onaning bosh shahrini ko'zda tutadi) 53 farsax¹⁰⁵ (1 farsax 6-8 km ga teng), Bab (Pop)dan Fraganikkacha 4 farsax» deyilgan¹⁰⁶. Darhaqiqat, Ibn Xordodbeh asarida ko'rsatilgan Popdan keyingi 4 farsax masofada joylashgan shahar punkti aslida Axsikent bo'lib, sug'diy manbalarda arablarga qadimiy nomi Fraganik sifatida ma'lum bo'lgan. Ayni paytda Farg'ona

¹⁰⁵Ибн Хордатбех. Книга путей и стран. Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карт Н.Велиховой.- Баку: Элм, 1986. С. 21.

¹⁰⁶ Асқаров А.Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. Б. 55.

poytaxti Koson yoki boshqa manbalarga ko'ra Axsikent¹⁰⁷. Biz keltirgan keyingi ikki manba (Divashtich va Ibn Xurdodbeh) ma'lumotlariga ko'ra, VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asr boshlarida Farg'ona vodiysining mayda mahalliy hokimliklari Fraganik hokimligi qo'l ostida birlashib, yagona Farg'ona mulkiga aylangan ko'rinadi. Biz keltirgan keyingi ikki manba (Divashtich va Ibn Xurdodbeh) ma'lumotlariga ko'ra, VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asr boshlarida Farg'ona vodiysining mayda mahalliy hokimliklari Fraganik hokimligi qo'l ostida birlashib, yagona Farg'ona mulkiga aylangan ko'rinadi. Bu holat arxeologik materiallar misolida yaxshi kuzatiladi. Masalan, qadimgi Farg'onaning Qoradaryo havzasida olib borilgan arxeologik dala tadqiqot natijalari bu masalaga oydinlik kiritishi mumkin. Arxeolog B.Abdulg'ozievaning tadqiqotlariga ko'ra, mazkur maskan antik va ilk o'rta asrlar davrida bir necha mikrovohalardan tarkib topgan 11 ta irrigatsion rayonlarni tashkil etgan. Ularda antik davrga oid (mil.avv. II-I asrlardan to milodiy III asrgacha) 247 ta yodgorlik (erkin dehqon xo'jaliklarining qishloqlari) bo'lsa, ilk o'rta asrlarga kelib (milodiy III-VII asrlar), ularning soni 166 taga tushib qolgan. Demak, qishloq jamoalari ichida mulkiy tabaqalanish jadal kechgan, mulk egalari — kashovarzlarning bir qismi mulksiz kadivarlarga, ular hisobiga boyib borayotgan kashovarzlarning badavlat qismi dehqonzodalar – mulkdor feodallarga aylana borgan.

Qoradaryo havzasi yodgorliklarining tarixiy topografiyasiga ko'ra, voha yodgorliklarini uch kategoriyaga, ya'ni shaharlar, qishloq hokimlarining qasrlari va qishloq jamoalari obyektlariga ajratilganda, quyidagi holatni kuzatish mumkin bo'ldi: Qoradaryo havzasida olib borilgan arxeologik tadqiqot natijalariga ko'ra, antik davrda qishloq jamoasi maskanlari ko'pchilikni tashkil etgan bo'lsa, ilk o'rta asrlarda shahar xokimliklarining qasrlari ko'paygan. Demak, ilk o'rta asrlarga kelib, mulkiy tabaqalanish badavlat dehqonzodalar foydasiga ishlayotganligi kuzatiladi. Har bir irrigatsion rayonda, uning iqtisodiy va siyosiy markazi sifatida shahar tipidagi yodgorlik qayd

¹⁰⁷ Гафуров Б.Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн I. – Душанбе: Ирфон, 1989. С. 369.

qilinadi, mikrovohalarda esa ularning bosh qarorgohi — qishloq hokimlarining qasrlari bo'lgan.

Shunday qilib, ilk o'rta asrlarga kelib Qoradaryo havzasining har bir irrigatsion rayoni doirasida tuman hokimliklari, mikrovohalar bazasida qishloq hokimliklari, umuman qadimgi Farg'onaning yirik shaharlari bazasida esa shahar-davlatlar tashkil to'gan. Qoradaryo havzasida arxeologik materiallar asosida kuzatilgan bu tarixiy jarayon nafaqat Farg'ona mulkiga, balki O'rga Osiyoning dehqonchilik madaniyati rivoj to'gan barcha viloyatlariga xos bo'lib, o'zbek davlatchiligining mahalliy ildizlari aynan ana shularga borib taqaladi.

Ilk o'rta asrlarda vodiyning muhim strategik o'rni Buyuk ipak yo'lidagi faoliyat tufayli yanada oshdi. Qolaversa, ayni shu davrda vujudga kelgan Turk xoqonligi (552-603) va uning vorislari Sharqiy (603-744) va G'arbiy Turk xoqonliklari (603-742) hamda Turkash xoqonligi (710-742) bilan So'g'd, Farg'ona, Choch, Xorazm, Tohariston kabi davlat va davlat uyushmalari o'rtasida siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar yangi davriy bosqichni vujudga keltirdi. Mahalliy davlatlar ba'zan yakka holatda, aksariyat esa uyushgan holda qoshnilari: Xitoy, Eron, Hindiston, Tibet, ko'chmanchi dasht qabilalari bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalar o'rnatdilar. Ta'kidlash joizki, Turk xoqonligi va mahalliy hokimliklar Xitoy tajovuzi, Eron tahdidi va Arab xalifaligi istilosiga qarshi birlashib kurashishga intilganlar.¹⁰⁸

Movarounnahr shu jumladan Farg'ona arab xalifaligi tarkibiga kiritilganidan so'ng bu yerlarda xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida biror muddat turg'unlik yuz beradi. Bu yerda kushonlar davridayoq boshlangan feodallashish jarayoni arablar istilosi davrida biroz to'xtab qoladi. Bu davrda xalifalikning markaziy qismlari – Iroq, Suriya va Misrda feodal munosabatlar jadal rivojlanadi¹⁰⁹. VII asr boshida arab jamiyati hali ijtimoiy tuzumning qabila – urug'chilik bosqichida turgan bo'lsa,

¹⁰⁸ Отаҳўжаев А. Илк ўрта асрлардаги Фарғона водийсининг халқаро муносабатларда тутган ўрни // “Фарғона водийси тарихи муоммоалари” мавзuidaги республика илмий анжумани материаллари. Наманган. 2012. Б.93.

¹⁰⁹ Аҳмедов А. Аҳмад ал-Фарғоний. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. Б. 26.

markazlashgan yagona xalifalik shakllanishi bilan xalifalikning ilg'or viloyatlarining xo'jalik , iqtisodiy va madaniy yutuqlarini o'zlashtirish natijasida u feodal munosabatlarga to'laqonli kirishadi¹¹⁰. Shunga ko'ra, VIII asr o'rtalarida xalifalikning markaziy viloyatlarida feodalizm Movarounnahrda nisbatan ancha yuqori pog'onaga ko'tarilgan edi. Lekin xalifalikning yagona iqtisodiy doirasiga kirish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining rivojlanishi, xalifalikning boshqa viloyatlari bilan faol savdo munosabatlari olib borish natijasida VIII asr oxirlaridan shaharlar rivojlanib va ishlab chiqarish kuchlari taraqqiy topib, Markaziy Osiyoning boshqa yerlaridagi kabi vodiya ham taraqqiy etgan feodalizm bosqichi boshlandi. Farg'ona vodiysi siyosiy markaz bo'lmagani uchun tarixiy manbalarda u haqda ma'lumotlar kam uchraydi. Ammo IX-X asrlar arab manbalarida Farg'ona shaharlari, iqtisodiy hayoti to'g'risida qiziqarli va qimmatli malumotlar uchraydi. Al-Muqaddasiy, Ibn Xavqal, Ibn Xurdodbeh asarlarida Somoniylar davrida Farg'onaning bir necha noxiyalar (tuman)ga bo'lingani, ulardagi shaharlar va yirik qishloqlarning nomlari hamda ularning tavsifi keltirilgan.

Al-Muqaddasiyning yozishicha, Xaytal mamlakatlari 6 mintaka (iklim) va 4 xududga bo'lingan. Turkular chegarasidan Farg'ona boshlanadi, keyin Isfijob, keyin Shosh, keyin Ushrushona, keyin Sugd, keyin Buxoro Sugdga tegishli deyilsa, maksadga muvofiq bo'ladi. Xududlar esa Iloq, Kesh, Nasaf va Sagoniyondir¹¹¹.

Farg'ona vodiysi haqida arab manbalarida yozilishicha, «u mintaqaning sharqiy qismida chapga qayrilmasingizdan avval boshlanadi. U juda gullab yashnagan bo'lib, u yerda 40 ta masjid bo'lgan» .

Ibn Havqalning yozishicha, Farg'ona - mamlakatning nomi bo'lib, u boy shaharlar va qishloqlarni o'z ichiga olgan keng viloyatdir. Uning poytaxti Axsikat [shahri] dir. Bu - *Shosh* daryosining bo'yida, tekislikda [joylashgan] shahardir,-

¹¹⁰ Ўша жойда.

¹¹¹ Мамадалиев Х. IX-X асрлар араб манбаларида Фарғона шаҳарларининг тавсифи. “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзuidaги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. Фарғона, 2009. Б.141.

Shahar bilan tog'lar orasidagi masofa taxminan 1 farsaxni [tashkil qiladi]. Shahar daryodan shimol tomonida joylashgan. [Shahar] da shahriston ichida joylashgan qo'rg'on bor, [shahriston] yonida rabod [joylashgan]. Bayram namozlari [o'tkaziladigan] yer - Shosh daryosining bo'yida: shahar bozorlari shahristonda va rabadda [joylashgan]; shahriston bozorlari [boshqalariga nisbatan] kengroqdir. Shaharning uzunligi taxminan uchdan bir farsaxni [tashkil qiladi]. [Uning] binolari loydan kurilgan. Rabad devor bilan o'ralgan. Shahristonning beshta darvozasi bor, ulardan biri Bujir darvozasi, qolganlari - Madkishiy darvozasi, Koson darvozasi, Jome' masjidi darvozasi va Garov darvozasi deb atachadi. Shahristonda va rabadda oqar suvlar va ko'p sonli hovuzlar mavjud. Rabadning barcha darvozalari oqar suvli qalin bog'larga chiqqan bo'lib, bu bog'lar shahardan kamida 2 farsax masofadagi yergacha davom etadi. Shosh daryosidan kechib o'tilsa, shaharning qarshisida o'tloqlar va ko'p sonli yaylovlar. shuningdek, bir kunlik yo'l masofadagi yerda qumlar yotibdi¹¹².

Al-Muqaddasiy esa quyidagi ma'lumotlarni keltirib Axsikat Farg'onaning poytaxti, keng va atrofi daraxtlar bilan o'ralgan muhim shahardir. Irmoqlarning barchasi uning yonidan to'planadi. U yaxshi rivojlangan hosildor mintaq bo'lib, undagi narxlar balanddir. U ichki shahar bo'lib, bir necha irmoqlar unda to'planadigan zaxira suvlari mavjud. Shahar pishiq g'isht, gips; va ohakdan yaxshilab qurilgan. Masjid va binolarning ko'pchiligi ichki shaharda qurilgan. Keng tashqi xududlar kuxandiz va bozorlar bilan o'ralgan. Sovuq qattiq bo'ladi, aholisi chidamli va yuzlari qizillik bilan qoplangan. Nasrobod daraxtlar asosan, oqterak va oq majnuntollar bilan o'ralgan katta shahardir, podsho uni o'z o'g'li Nasrga atab bino etganligi tufayli Nasrobod deb nomlangan.

Manbalarda yozilishicha, O'zgand - kofirlarning mamlakatlari bilan chegaradosh bo'lgan Farg'ona shaharlarining eng oxirgisidir. Uning [kattaligi]

¹¹² Ибн Хаукал. Китаб сурат ул-арз.(пер. с арабского О. ИБН Флоровой) // Материали по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. – Т.: Фан, 1988.С.18.

taxminan O'sh [shahri] ning uchdan ikki qismiga teng. Unda qo'rg'on, shahriston va [devor] bilan o'ralgan rabad mavjud bo'lib, [rabod] da bozorlar joylashgan. O'zgand - turklarning yerlari bo'sag'asidagi savdo markazidir. Uning yonida bog'lar va [oqar suvli] ariqlar mavjud. Movarounnahrda kattaligi bo'yicha Farg'onaning qishloqlariga yetadigani yo'q. Ayrim hollarda odamlarning ko'pligidan, shuningdek, chorva va yaylovlarning ko'pligidan [bir] qishloqning hududlari bir kunlik yo'l [masofa] ga cho'zilgan bo'ladi¹¹³.

Manora kichik shahar bo'lib, soy bu shaharda masjidning kirish eshiklari yonida to'planadi. Ranjadning bir necha ishlov berilgan dalalari bo'lib, masjid kovushdo'zlar mahallasida joylashgan. Shikit ko'p miqdorda yong'oq yetishtiruvchi katta shahardir, siz ming dona yong'oqni bir dirxamga sotib olishingiz mumkin. Masjid bozorda joylashgan. Tishon katta va gavjumdir, masjid paxtadan mato tukuvchilar mahallasida joylashgan. Zorakon o'rtacha kattalikda ko'p miqdorda gurunch yetishtiriladi. Masjid maydonida daraxtlar bilan o'ralgan ajoyib bog' mavjud. Xayralom bozorlarida masjid bor katta shahardir. Bishobishon eshigi bozorlar mavjud ochiq maydonga qaragan katta shahardir. Ushtikon kichik shahar bo'lib, masjid bozorlarda joylashgan¹¹⁴.

Ibn Havqal Qubo haqida quyidagilarni qayd etgan: Axsikatdan keyin kattaligi jihatdan Qubo [shahri] turadi, [u] Axsikat yaqinidagi [iqlimi] eng sog'lom shaharlardan biridir. Shaharda qo'rg'on, shahriston va rabad mavjud, qo'rg'on xaroba holatdadir. Jome masjidi qo'rg'onda, shahar bozorlari - rabodda, hukmdor saroyi bilan qamoqxona ham rabodda [joylashgan]. Rabod atroflari devor bilan o'ralgan, uning yonida ko'p sonli bog'lar va ariqlar joylashgan. Bog'larning va oqar suvlarning ko'pligi bilan Qubo [shahri] Axsikatdan ustun turadi. Qubodan keyin kattaligi jihatdan O'sh [shahri] turadi. Unda shahriston va qo'rg'on mavjud bo'lib, [ularning]

¹¹³ Ибн Хаукал. Китаб сурат ул-арз.(пер. с арабского О.Б Флоровой) // Материали по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988.С.18.

¹¹⁴ Мамадалиев Х. IX-X асрлар араб манбаларида Фарғона шаҳарларининг тавсифи // “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзuidaги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. Фарғона, 2009. Б. 141.

ikkalasi ham buzilmagan. Hukmdorning saroyi bilan qamoqxona qo'rg'onda [joylashgan]. Shahriston yonida rabad joylashgan, uning atroflari devor bilan o'ralgan. Bu [devor] toqqa borib taqaladi, tog' [usti] da esa turklarning [islom] dini uchun jang kiluvchilarning jangovar xarakatlarini kuzatuvchi soqchilari joylashgan. Shaharning uchta darvozasi bor: Tog' darvozasi, Daryo darvozasi va Mutkada darvozasi. Shahar darvozalari mustahkam [qurilgan]¹¹⁵. Al-Muqaddasiyning ma'lumoticha: Qubo poytaxtga qaraganda keng va katta shahardir, yaxshiroq yoqimliroq va mashhurroqdir. U bu ko'rsatkichlari bilan poytaxt bo'lishga xosdir. Olimlar aytganlarki, Farg'ona bu Qubodir. U yerda xamma narsa suv va o'tning ustidadir. Birink kichik shahar bo'lib, masjidi Samarqand tomondan kelganda ko'zga tashlanadi. Marg'inon kichik shahar bo'lib, masjid bozorlardan masofada joylashgan, uning asosiy darvozasi yonida soy mavjud. Rishton katta shahar bo'lib, uning asosiy darvozasi bozorlarga ochiladi va yana bir boshqa darvozasi esa umumiy maydonga qaragan. Vonkat ham shunga o'xshashdir¹¹⁶. Bu mintakada al- Muqaddasiy tomonidan qirqta shahar sanab ko'rsatilgan.

Shuningdek, ibn Xavqal ham quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: Farg'ona [viloyatining] tumanlari qatoriga [quyidagilar] kiradi: Yuqori Nasya, Quyi Nasya, Asbara, Nakod, Miyon Rudon, Jidgil, Urast, Biskand va Asht. Quyi Nasya - Farg'onaga Xo'jand viloyati [tomon] dan kirganda¹¹⁷, uning birinchi tumanidir. Bu yerda quyidagi shaharlar [bor]: Vankat, Suj(x), Xuvokand va Rishton. Bu tumanga Quyi Nasya [tumani] bevosita tugashgan bo'lib, unda Marg'inon, Zandarolin, Barang, Ushtikan va Andukon [nomli] shaharlar bor. Bu ikkala tuman yaylovli tekis o'tloqlardan iborat bo'lib, ular orasida tog' yo'q. Asbara tekislik va tog'larda joylashgan, unda Tamoxush va Bamkoxush shaharlari bor. Suj(x) - tog' tomonda

¹¹⁵ ¹¹⁵ Ибн Хаукал. Китаб сурат ул-арз.(пер. с арабского О. Б. Флоровой) // Материали по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. С. 18-19.

¹¹⁶ Мамадалиев Х. IX-X асрлар араб манбаларида Фарғона шаҳарларининг тавсифи // “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзусидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. Фарғона, 2009. Б. 143.

¹¹⁷ Ибн Хавқал. Китаб сурат ул-ард. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. Б. 80.

joylashgan shahar, uning atroflarida 60 ta qishloq bor. Bu alohida [joylashgan] tog'li tumandir. Naqod tog' o'lkasi - bu tumanda Miskon [nomli] shahar [joylashgan], unda boshqa shaharlar yo'q. O'sh va Qubo- shaharlarning nomlari, ularning atroflarida ko'p sonli qishloqlar mavjud. Qubo yaqin atrofida undan boshqa birorta ham shahar yo'q. O'sh yonida esa Madva [nomli] shahar mavjud. O'zgand - shaharning nomi uning atroflarida qishloqlar joylashgan, lekin uning tumanida boshqa shahar yo'q. Koson - shaharning nomi, shuningdek, ko'p sonli qishloqlari bor tumanning [nomi] dir. Jidg'il - tumanning nomi, unda Ardlankat [nomli] shahar mavjud, uning tumanida boshqa shaharlar yo'q. Miyon - tumanning nomi, unda qishloqlar ko'p. Uning bosh shahri Xaylom [shahri] dir, bu Abu-l-Xayrning uyidan bo'lgan Abu-l-Xasan Nasr ibn Axmadning tug'ilgan yeridir. Karvon shaharning nomi, uning atroflarida qishloqlar joylashgan. Najm ham shaharning nomi, uning atroflarida ham ko'p sonli qishloqlar, mavjud. Urast yonida ham ko'p [sonli] qishloqlar joylashgan. Biskand va Salot atroflarida [ham] qishloqlar joylashgan, bu ikkala shahar turk mamlakatining darvozalaridir. Bu shaharlarning viloyatiga Miyon Rudon tomonidan boriladi. Shuningdek, O'zgand ham turklar mamlakatining darvozasidir. Bu yerlar Xaftdeh, ya'ni Yetti qishloq deb ataladi¹¹⁸. Bu yerlar ilgari turklarga qarashli bo'lgan va yaqinda, faqat bizning zamonamizda, fath qilishgan. Bu [joy] O'zgandga yaqin yerda joylashgan bo'lib, uning [aholisi] islom [dani] ni kabul qilgan. Farg'onada, Naqod, Axsikat va boshqa [shaharlar] ning atroflarida oltin va kumush konlari mavjud. Suj shaharlarida simob qazib olinadi. Yuqori Nasya yonida qatron, toshpaxta, oltin, kumush, feruza [toshi] sariq mis va qalay konlari bor. Asbarada kora toshlardan [iborat] tog' bor bo'lib, bu [toshlar] ko'mirga o'xshab yonadi; ularning kuli bilan kiyimlar oqartiriladi. Asbarada rang-barang tog'lar bor. Ularning bir qismi qop-qora, boshqasi - yorqin qizil, uchinchi - to'q sariq. Farg'ona tog'larida tarxun buta usimliklari o'sadi, uning urug'lari ziravor sifatida ishlatiladi va barcha mamlakatlarga

¹¹⁸ Ибн Ҳавқал. Китаб сурат ул-ард. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011.Б.81.

olib ketiladi, shuningdek, Kulkana [nomli o'simlik o'sadi]. Bu yerdan [boshqa] bu [o'simlik] hech qayerda yo'q. Bu mamlakatda va turklar viloyatida ko'p miqdorda novshadir olinadi¹¹⁹, shuningdek, u Buttam- tog'larida ham olinadi¹²⁰.

Yuqoridagilardan shuni xulosa kilish mumkinki, Somoniylar zamonida Farg'ona viloyati arab mualliflari tomonidan O'rta Osiyoning, xususan, Movarounnahrning o'troq viloyati sifatida qayd etilgan. U Yuqori Nasya, Quyi Nasya, Asbara, Naqod, Miyon Rudon, Jidg'il, Urast, Biskand va Salot kabi tumanlarga bo'lingan. Axsikat, Qubo, O'sh, O'zgand, Xaylam kabi shaharlar IX-X asrlarda Farg'onaning eng yirik shaharlaridan bo'lgan. Shuningdek, Farg'ona viloyatida Vankat, Suj(x), Xuvokand, Rishton, Koson, Karvon, Madvo, Marg'inon, Andukon va boshqa shaharlar ham mavjud bo'lgan. Manbalarda Farg'ona viloyatining etnik tarkibi haqida hech narsa deyilmagan. Tangalarda bitilgan hukmdorlarning ismlari orqali biz Farg'ona hukmdorlari turkiylar bo'lganligi va viloyatda turkiylar va so'g'diylar yashaganligini xulosa qilishimiz mumkin¹²¹.

¹¹⁹ Ўша манба.Б.82.

¹²⁰ Ибн Хаукал. Китаб сурат ул-арз.(пер. с арабского О. Б. Флоровой) // Материали по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. С. 19-20.

¹²¹ Мамадалиев Х. IX-X асрлар араб манбаларида Фарғона шаҳарларининг тавсифи // “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзусидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. Фарғона, 2009. Б. 145.

III bob. V-XIII asrlarda Farg'onadagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

3.2. V-XIII asrlarda Farg'onadagi ilm-fan va madaniy hayot

Farg'ona vodiysi qadim tarixida ilk o'rta asrlargacha bo'lgan san'at asarlari namunalari boshqa xududlarga nisbatan unchalik ko'p topilmagan. Buning bir necha sabablari bor. Ya'ni, vodiylar o'ziga xos rivojlanish yo'liga ega bo'lgan va janub madaniyatidan bir oz olisroqda joylashganligidir. Moddiy madaniyatda mayda terrakota, devoriy rasmlarni uchramasligi, uzoq vaqt o'z tanga-chaqalari muomalada bo'lmagani bilan ajralib turadi. Biroq Farg'ona vodiysi O'rta Osiyodagi umumiy tarixiy taraqqiyotdan ayri bo'lmagan, albatta. Buni ayniqsa, buddaviylik dinini tarqalish jarayonida kuzatish mumkin. Ushbu dinni tarqalishida vodiylarning ham o'z o'рни va roli bo'lganini Quva buddaviylik ibodatxonasi yaqqol ko'rsatadi. Bu ibodatxona Baqtriya-Toxariston va So'g'dni Farg'ona orqali Xitoy imperiyasi bilan bog'lagan karvon yo'lida aniqlangan va kovlab o'rganilgan yagona budda inshootidir.

To'g'ri ushbu oraliq xududda budda dini bilan bog'liq ko'plab ashyoviy dalillar topilgan¹²²

Quva budda ibodatxonasi shahristondan tashqarida rabod xududida bunyod etilgan. Arxeologik tekshirishlarga ko'ra, VII asr oxiri - VIII asr boshlarida shahristonda uy-joy va aholi ko'payib, undan tashqari xududni o'zlashtirishga ehtiyoj tug'iladi. Asosiy hayot asta-sekin rabodga ko'chadi. Bu yerda kattagina yashash joyi V.A. Bulatova tomonidan kovlab o'rganilgan. Tekshirish mobaynida 80 dan ortiq xona, beshta ko'cha va ular bilan bog'liq markaziy maydon qazib ochilgan¹²³. Uy-joylar daha (kvartal)larga bo'lingan. Har bir dahada turar-joy va hunarmandchilik binolari joylashgan. Eng yirik dahada 14 ta uy, maydaroqlarida 4 ta uy (xona) qazib o'rganilgan. Ko'chalar ancha tor bo'lgan, piyoda va otliq yurishiga mo'ljallangan, arava bu ko'chalarga sig'magan.

Ushbu turar-joy binolari shimolida VII-VIII asrlarda foydalanilgan budda ibodatxonasi qoldiqlari o'tgan asrning 60-70-yillarida qazib ochildi. Bu inshoot ikkita katta zaldan iborat bo'lib, biri sig'inish-qurbonlik qilish uchun, ikkinchisi ibodat qilishga mo'ljallangan. Birinchi xonada iloh(xudolar)ga qurbonliklar (gul, meva-cheva va b.) keltirilib, o'rtadagi tagkursiga qo'yilgan va ibodat qiluvchilar aylanib chiqib ketishgan. Uni yonginasida asosiy ibodat bajariladigan xona bo'lib, xonaning yarmi saqlangan xolos. Kuchli yong'in natijasida binolar va ulardagi buyumlar kuyib yo'q bo'lib ketgan yoki yaroqsiz holga kelgan. Shunga qaramay, ikki otliq va ularni yonidagi jangchilar haykallari parchalari topilgan. Haykallar, tasvirlar majmuasida yovuzlik ilohi Mara, yaxshilik ilohi va budda himoyachisi Shri-devi kabilar¹²⁴ yomon saqlangan bo'lsalarda, budda ibodatxonasi belgilari sifatida bizgacha yetib kelgan¹²⁵.

¹²² Булатова В.А. Древняя Кува. Ташкент: Фан, 1972. С. 20.

¹²³ Там же.

¹²⁴ Матбобоев Б.Х. Илк ўрта асрлар жамиятида маданий жараёнлар: Маҳобатли санъатнинг шаклланиши (Фарғона водийси мисолида) // “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона, 2014. Б. 40.

¹²⁵ Ўша жойда.

Bu ibodatxona o'zining me'moriy yechimi va ayrim belgilariga ko'ra Sharqiy Turkiston yoki O'rta Osiyoning turli joylaridagi budda inshootlaridan bir oz farq qiladi. Unda budda ibodatxonalariga xos bo'lgan va diniy marosim o'tkazishda foydalanilgan ayrim me'moriy belgilar uchramaydi. Qurilishda ko'proq mavjud shart-sharoit va mahalliy qurilish an'anasidan foydalanilgan. Biroq bularga qaramasdan, bu inshoot budda ibodatxonasi bo'lgan degan fikrni ta'kidlamoq kerak. Chunki qazish paytida ibodatxonadan topilgan budda dini ilohlari bilan bog'liq siymolarni haykallari shundan dalolat beradi. Bunga ikki odam bo'yi bilan barobar haybatli budda haykalini va budda dinidagi Shri-devi, Manjushri ilohlari siymolari haykallari kiradi. Haykallarini yuz tuzilishi yoki boshqa belgilarida Markaziy Osiyo budda yodgorliklaridagi ana shunday topilmalar bilan umumiy o'xshashlik bor. Lekin Quvadagi budda obrazlarini siymolarida ozgina bo'lsada, turkiylashgan qiyofa berishga harakat qilingan. Bu ham monumental san'at maktabining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Quva ibodatxonasi arab istilosi davrida vayron qilingan bo'lishi kerak. Chunki 726-yili Xitoy sayohatchisi Farg'onaga kelmagan bo'lsada, unga ma'lumot beruvchilar bu davrda vodiya budda dini ta'limoti yo'q deb xabar berganlarida qisman bo'lsada xaqiqatni aytgan edilar¹²⁶. Ya'ni, VIII asrning 1-yarmida Janubiy Farg'ona arablar qo'li ostida edi va Xoy Chaoni Farg'onani ta'rifini berganda (726-yili) Quva budda ibodatxonasi buzilib ketgan edi¹²⁷.

Quva budda ibodatxonasi va undan aniqlangan topilmalar mutaxassislar tomonidan ko'plab tortishuvlarga sabab bo'ldi. Bu fikrlar xilma-xil, ba'zida birlariga zid. Dastlab ayrim g'arblik mutaxassislar Farg'ona vodiysidagi ushbu ibodatxona belgilariga shubha bilan qaradilar. Aksariyat budda dini tadqiqotchilari uni so'zsiz budda ibodatxonasi deb talqin qilganlar. Vodiydagi ushbu buddaviylik inshootining noyoblighi va o'ziga xosligi keyingi paytlarda olib borilayotgan

¹²⁶ Бернштам А.Н. Тюрки и Средняя Азия в описаниях Хой Чао (726) // ВДИ. №1. Москва, 1952. С. 187-195.

¹²⁷ Матбобоев Б.Х. Илк ўрта асрлар жамиятида маданий жараёнлар: Маҳобатли санъатнинг шаклланиши (Фарғона водийси мисолида) // “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзуидаги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона, 2014. Б. 41.

tadqiqotlar natijasida ayon bo'lmoqda. Ya'ni, oxirgi paytlarda uni ushbu hududdagi budda dinidagi mustaqil oqim - vadjrayana yo'nalishiga taalluqli O'rta Osiyodagi yagona yodgorlik deb talqin qilinmoqda. Buddaviylikdagi ushbu diniy yo'nalish I ming yillik o'rtalarida induizmning kuchli ta'siri ostida paydo bo'ladi. Lekin buddaviylikning vadjrayana oqimi Sharqiy Turkistonda ilk o'rta asrlarda ancha tarqalgan edi. Shuning uchun Quva budda ibodatxonasi Xo'tan (Sharqiy Turkiston – Shinjon) ta'sirida paydo bo'lgan degan fikrni aytish mumkin¹²⁸. Yaponiyalik olim Kato Kyudzo bu fikrni qo'llab-quvvatlab, uni rivojlantirib, bu aloqa tizimini Tibet-Ladak-Xotan-Farg'ona yo'nalishida bo'lgan deydi.

Bu ibodatxona Farg'ona ilk o'rta asrlar tarixi uchun yagona va noyob topilmadir. Sababi, hozirga qadar vodiya bunday o'xshash yodgorlik aniqlangani yo'q. To'g'ri, Farg'ona viloyatida N.G.Gorbunova va T.G.Obolduevalar Karkidon suv ombori qurilishi vaqtida budda ibodatxonasi stupasi topilganini eslatadilar. Ammo Karkidonda na ibodatxona qoldiqlari, na biror haykal topildi. Shunga qaramay inshoot qurilish rejasida budda sajdagohlariga juda o'xshash tomonlari ko'p. Balki bu budda sajdagohlarini Farg'onadagi o'ziga xos shaklidir.

Quva budda topilmalari Hindiston va Sharqiy Turkistonda aniqlangan materiallarga aynan o'xshashligi, o'rta asrlardagi madaniy-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlanganini, madaniyat va san'atni yuksalganini ko'rsatadi. Qolaversa, Quva Qashqar-Farg'ona xalqaro savdo yo'li bo'yidagi yirik shahar edi. Bu shaharda g'arbdan, sharqdan va janubdan kelayotgan savdo karvonlari qo'nim topganlar. Quva ibodatxonasi xuddi shu yo'lovchi dindorlarga mo'ljallab qurilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Shunday qilib, Quva mahobatli san'at maktabi uchun o'ziga xos haykallar yasash va oddiy devoriy suratlar solish xarakterli edi va bu markaz unchalik uzoq vaqt yashamadi. Qolaversa, ushbu yo'nalishni keyingi davrlarda rivojlanishi uchun sharoit bo'lmadi. Chunki islom dini shiddat bilan jamiyatni hamma sohalarini egallab

¹²⁸ Ўша жойда.

bormoqda edi. Ammo bu inshoot O'rta Osiyo xalqlari diniy-mafkuraviy hayotida chuqur iz qoldirdi. Quvadagi budda ibodatxonasi vodiya yagona bo'lib, SHarqiy Turkistondagi budda dini ta'sirida paydo bo'lgan va bizningcha savdo karvonlariga xizmat qilgan.

V-IX asrlarda Farg'ona vodiysidagi madaniy jarayonlar vodiya qo'shni bo'lgan hududlardagi madaniy jarayonlardan katta farq qilmaydi. Xususan, vodiya So'g'd madaniyatining ta'siri ancha yuqori bo'lgan. Turk xoqonligida savdo ishlarini so'g'diylar o'z qo'llariga olgan edilar. Bu yerda so'g'diylarning ta'siri kuchli bo'lganligidan dalolat beruvchi bir hujjat mavjud: Farg'ona podshosi ham So'g'd podshosi kabi ixshid deb ataladi. Ta'lim tizimi ham so'g'diylarning talim tizimiga yaqin bo'lsa kerak. Vodiya Eftaliylar davrida so'g'd yozuvi, turk xoqonligi tarkibiga kirgach esa, turkiy yozuv keng tarqaladi. Chunki butun O'zbekiston hududidan topilayotgan qadimgi turk yozuvi tushirilgan ashyo va yodgorliklarning deyarli barchasi Farg'ona vodiysiga to'g'ri keladi¹²⁹. Shuningdek, Turk xoqonligi tashkil topmasdan ilgari vodiya ko'chib o'rtnashgan usun va boshqa qabilalar bilan eroniy so'g'd tilida gapiruvchi qabilalar orasida etnomadaniy, xususan etnolingvistik aloqalar natijasida qadimiy Farg'ona xalqining o'ziga xos tili, ya'ni lahjasi shakllangan. Tadqiqotchi V.A. Livshis qadimgi farg'onaliklarning o'z alfaviti mavjud edi deb yozgan¹³⁰.

V-IX asrlarda vodiya yetishib chiqqan olimlardan hozircha bizga nomlari ma'lumi Ahmad al-Farg'oniy va Amajur at-Turkiylardir. VIII asr oxirida Farg'onada tug'ilib, o'z faolliyatini xalifalik markazlari Marv va Bag'dodda olib borgan olimlardan biri Ahmad ibn Kasir al-Farg'oniy al-Ma'jusiy bo'lgan¹³¹. Olimning to'liq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniydir.

¹²⁹ Хотамова М. Фарғонада туркий сулола // "Фарғона водийси янги тадқиқотларда" мавзусидаги учинчи республика илмий анжумани. Фарғона, 2014. Б. 85.

¹³⁰ Абдуллаев У.С. Антик ва илк ўрта асрларда Фарғона водийсида этно-сиёсий аҳвол // "Фарғона водийси тарихи муоммоалари" мавзусидаги республика илмий анжумани материаллари. Наманган, 2012. Б. 25.

¹³¹ Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Тошкент: Фан, 1997. Б. 204.

Manbalarda unig fargʻonalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa ma'lumotlar saqlanmagan. Lekin shuni ham e'tiborga olish kerakki, o'rta asrlarda musulmon o'lkalarida bo'lgan an'anaga binoan, mamlakat poytaxti yoki markazini ham mamlakat nomi bilan atashgan. Masalan, 995-yilgacha Xorazmning poytaxti bo'lgan Kotni, keyingi poytaxti Gurganjni ham Xorazm deyishgan. Ba'zi arab mamlakatlarida bu odat hozir ham saqlanib qolgan. Misrning poytaxti qohirani - Misr, Shom (Suriya)ning poytaxti Damashqni - Shom deyilishi shundan. Ana shu odatga ko'ra, o'rta asrlardagi Farg'ona vodiysining markaziy shahri Axsikatni ham Farg'ona deyishgan. Al-Farg'oniy Farg'ona vodiysining Qubo (Quva) qishlog'ida tug'ilgan. Shunisi ma'lumki, al-Farg'oniy xalifa Xorun ar-Rashidning sharqiy yerlaridagi muovini, o'g'li Abdullohning (bo'lajak xalifa al-Ma'munning) Marvdagi olimlari doirasiga kirgan. Ehtimol, Abdulloh yoshligidan bilimga chanqoq bo'lgani uchundir, 806-yili Marvga noyib bo'lib tayinlanganida, Movarounnahr, Xuroson, Xorazmdan olimlar va iste'dodli yoshlarni to'play boshlagan. Bu olimlarning asosiy qismi Abdulloh u yerga kelganidan avvalroq to'plangan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas, chunki Marv avvaldan, Sosoniylar davridanoq yirik ilmiy markaz hisoblangan. 615-yili eng so'nggi Sosoniy shahanshoh Yazdigard ibn Shahriyor arablar ta'qibidan qochib bu yerga kelganida poytaxtdagi kutubxona kitoblarini ham olib kelganligi ma'lum. Marv arablar qo'l ostida ham o'z mavqyeini yo'qotmadi, aksincha, to mo'g'ul istilosigacha o'sa bordi. Shunga ko'ra, uning IX asr boshida xalifalikning yirik ilmiy va madaniy markazi bo'lganligi tabiiydir.

Xalifa Xorun ar-Rashid 809-yili Tusda to'satdan vafot etadi va uning vasiyatiga ko'ra, Bag'dodda taxtga katta o'g'li - Muhammad aya-Amin nomi bilan o'tiradi. Saroydagi xurosonlik a'yonlar esa Abdullohni taxtni qo'lga olishga da'vat etadilar. 811-yildan 813-yilgacha aka-uka Muhammad va Abdulloh o'rtasida taxt uchun olib borilgan kurash Abdullohning g'alabasi bilan tugaydi va Muhammad qatl qilinadi. O'sha yili Abdulloh taxtga al-Ma'mun nomi bilan o'tiradi. Lekin u Bag'dodga bormay 819 yilga qadar Marvda yashaydi. Natijada, Marv 813- yildan to 819-yilgacha

xalifalikning vaqtincha poytaxti bo'lib turadi. 819-yili al-Ma'mun butun saroy a'yonlari va ulamolari bilan birga Bag'dodga ko'chadi. Ular orasida al-Farg'oniy ham bor edi. Shunday bo'lsa ham, al-Ma'mun qo'l ostida u tuzgan ilmiy markaz «Bayt ul-hikma»da ishlagan olimlar orasida al-Farg'oniyning nomi eslatilmaydi. Buning sababi, bizningcha, shunday bo'lishi mumkin: u davrda xalifalikda ikkita rasadxona faoliyat olib borardi, biri Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida va ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tepaligida edi. Bu rasadxonalarning har birida «Bayt ul-hikma» olimlarining ikkita doimiy guruhlari ishlar edi. Ana shu olimlarning o'zi rasadxonalari hojatidan kelib chiqib, ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirardilar va umumiy rahbarlik Bag'doddan turib boshqarilardi. Balki al-Farg'oniy Damashqdagi olimlar guruhida bo'lishi, al-Ma'mun uni Bag'dodga kelishi bilanoq u yerga yuborgan bo'lishi mumkin. Abu Rayhon Beruniyning bir xabari shunday taxminga asos bo'ladi. Uning aytishiga ko'ra, Bag'dod rasadxonasining ishida Yahyo ibn Abu Mansur, al-Xorazmiy va boshqa olimlar, Damashq rasadxonasida esa Xolid ibn Abdumalik va al-Farg'oniy bilan birga ikkinchi guruh olimlar ishlaganlar. U shuningdek, al-Farg'oniyning Suriya shimolida, Sinjor sahrosida 832-833-yillar Tadmur va ar-Raqqa oralig'ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lchashda ishtirok etganini ham aytgan. Nihoyat, al-Farg'oniyning hayoti haqidagi eng so'nggi va eng aniq xabar 861-bilan bog'lanadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, u shu yili Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya'ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan yoki ta'mirlagan. Biroq al-Farg'oniy qanday qilib va qanday sharoitda Misrga borib qolgani haqida ham aniq ma'lumot yo'q.

Ma'lumki, al-Ma'mun Marvdan Bag'dodga nafaqat olimlarni, balki g'ulomlari bo'lmish turk askarlarini ham olib kelgan edi. Bag'dodga kelishi bilan u ma'lum ma'noda lashkarni turklashtirdi: ana shu turk askarlaridan lashkarboshilar tayinladi. Turk g'ulomlaridan biri buxorolik To'lunni xalifa Suriya, Falastin va Misrdagi lashkarlarning amiri etib tayinladi. Uning o'g'li Ahmad esa Suriya va Misrni mustaqil deb e'lon qilib, To'luniylar sulolasiga asos soddi. Al-Xorazmiy xalifa al-Ma'munning

yaqin odami va maslahatchisi bo'lgani kabi al-Farg'oniyning Misrda paydo bo'lganidan ajablanmasa ham bo'ladi. Al-Farg'oniy hayotining muddati haqida ham qiyoslar qilish mumkin. Agar uning hayotini al-Xorazmiyning hayoti bilan qiyos qilsak, quyidagi xulosaga kelamiz. Ma'lumki, al-Xorazmiyning nomi yozma manbalarda oxirgi marta 847-yili xalifa al-Vosiqning o'limi munosabati bilan eslatiladi va shundan so'ng uchramaydi. Shunga ko'ra, uning o'lgan yili deb 850-yil qabul qilingan. Al-Farg'oniyning nomi oxirgi marta 861-yili Nilning sathini o'lchagich uskunasi ta'mirlash munosabati bilan eslatiladi.

Yana bir ma'lumotga ko'ra, al-Farg'oniy Misrda nasroniylar orasida yashab, ularning diniga o'tganligi va shuning uchun u qatl qilinganligi qayd etiladi. Lekin qatl qilingan yili eslatilmaydi. Lekin bu «al-Farg'oniy» o'sha mashhur astronom al-Farg'oniymi yo boshqasimi - bu noma'lum. Har holda al-Farg'oniy 861-yildan keyin ko'p yashamagan va uning o'lgan (yoki qatl qilingan) yili deb 865-yilni qabul qilish mumkin. Agar u al-Ma'mun bilan 819-yili Marvdan Bag'dodga ketayotganda 20-25 yoshlar chamasida bo'lgan desak, u holda uning tug'ilgan yili deb 797 yoki 798-yilni qabul qilish mumkin. U holda uning hayot muddati 67-68 yoshni tashkil qiladi. Demak, 1998-yili uning tug'il-aniga 1200 yil to'ldi. Al-Farg'oniyning hayoti haqidagi ma'lumotlar juda kam bo'lganligiga qaramay, o'rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo'lgan. Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII-XIII asrlar), Abul Faraj Bar Ebrey (XIII asr), Hoji Xalifa (XVII asr) kabi Sharq fihristchilari uni o'z asarlarida eslatadilar. Al-Farg'oniyning asosiy astronomik asari «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» («Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum») XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan so'ng, uning lotinlashtirilgan nomi «Alfraganus» shaklida g'arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi. Uning bu kitobi shu asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o'tadi. Al-Farg'oniy asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493-yilda nashr etilgan bo'lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. 1669-yili mashhur

Golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius al-Fargʻoniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan soʻng, al-Fargʻoniy va uning asarining Yevropadagi shuhrati yanada ortdi.

Yevropa Uygʻonish davrining buyuk namoyandalaridan biri boʻlgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan maʼruzalarni al-Fargʻoniy kitoblaridan oʻqigan. Al-Fargʻoniy nomini Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr) ham eslagan. Yevropa olimlaridan Dalambr, Brokelman, X. Zuter, I. Yu. Krachkovskiy, A. P. Yushkevich va B. A. Rozenfeldlar al-Fargʻoniyning ijodini yuqori baholaganlar. Hozirgi kunda al-Fargʻoniyning sakkiz asari maʼlum boʻlib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va birortasi hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Ular quyidagilardir: yuqorida tilga olingan asar, odatda uni «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomi bilan ham atashadi - qoʻlyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. «Asturlob yasash haqida kitob»- qoʻlyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, «Asturlob bilan amal qilish haqida kitob»- birgana qoʻlyozmasi Rampurda (Hindiston), «Al-Fargʻoniy jadvallari»- qoʻlyozmasi Patnada (Hindiston), «Oyning Yer ostida va ustida boʻlish vaqtlarini aniqlash haqida risola»- qoʻlyozmalari Gota va Qohirada¹³², «Quyosh soatini yasash haqida kitob»- qoʻlyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi. «Al-Xorazmiy «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslash» asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qoʻlyozmasi topilmagan. Al-Fargʻoniyning bu roʻyxat boshidagi ikki asaridan boshqalari hali hech kim tomonidan oʻrganilmagan. Shubhasiz, ular oʻrganilib tahlil qilinishi bilan al-Fargʻoniy ijodining yangi qirralari ochiladi va olimning oʻrta asrlarda, undan keyin Sharq va Gʻarbda bu qadar mashhur boʻlishi sabablari ham ayon boʻladi.

Aytganimizdek, mazkur asarlarning birinchisi 1145-yildan boshlab lotin tiliga bir necha marta tarjima qilingan. Bu tarjimalarning barchasida al-Fargʻoniy ismi

¹³² Абдуҳалимов Б. Байт Ал-Ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. – Тошкент, 2010. Б.204.

lotinchada «Alfraganus» shaklida yozilib, shu shaklda fanga abadiy kirib qoldi. Al-Fargʻoniyning bu asari astronomiyadan eng sodda darslik boʻlib, unda murakkab geometrik shakllar va matematik formulalar, hisoblashlar keltirilmagan. Bu esa astronomiyadan boshlangʻich maʼlumotlarni oʻzlashtirishni ancha osonlashtirgan. Balki buyuk Regiomontan asarning shu xususiyatini anglab, oʻzining universitetlardagi maʼruzalari uchun qoʻllanma sifatida al-Fargʻoniyning ana shu asarini tanlagandir. Shunday qilib, buyuk ajdodimizning bu asari Yevropa Uygʻonish davridagi va undan ancha keyingi davrdagi madaniyat rivojida sezilarli rol oʻynadi. Asarning iqlimlar nazariyasiga koʻra, bayon qilingan geografik boʻlimi diqqatga sazovordir. Mamlakat va shaharlarning nomlariga qaraganda, al-Fargʻoniy al-Xorazmiyning geografik asari bilan tanish boʻlgan yoki u ham al-Xorazmiy foydalangan manbadan foydalangan, chunki ikkala muallifda ham bu nomlar bir xil. Geografik boʻlim (9- bob) bunday atalgan: «Yerdagi maʼlum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi narsalar haqida». Bundan soʻng, yetti iqlimning hammasi ulardagi mamlakatlar viloyatlari va shaharlari bilan birga tavsiflanadi. Shuni ham aytish kerakki, oʻrta asrlarda arab tilida yozilgan geografik asarlarning eng birinchisi al-Xorazmiyning «Kitob surat-ul-arz» asari edi. Unda al-Xorazmiy yetti iqlimdagi dengizlar, mamlakatlar, togʻlar, daryolar, koʻllar va shaharlarning tavsifini keltirgan edi. Bunda u tavsifni rubʼi maʼmurning eng gʻarbiy chekkasidan, yaʼni Afrikaning Atlantika okeani qirgʻogʻigacha, yaʼni Tinch okeanidagi Yaponiya orollarigacha davom ettiradi. Tavsif kenglama yoʻnalishida ekvatorial yerlardan to shimoliy qutbiy yerlargacha davom etadi.

Iqlimlarning al-Fargʻoniy keltirgan tavsiflash usuli al-Xorazmiynikidan farq qiladi. Al-Xorazmiy oʻzining tavsiflash usulida Ptolemey anʼanasiga asoslangan boʻlsa, al-Fargʻoniy hindlarning anʼanasiga asoslanib, rubʼi maʼmurning tavsifini eng sharqiy chekkasidan boshlaydi. Uning iqlimlar tavsifida 3, 4, 5, 6 va 7- iqlimlarning tavsifi diqqatga sazovordir. Chunki bularda Markaziy Osiyoning va unga tutash

yerlarning shahar va viloyatlari tavsiflanadi¹³³. Shuning uchun quyida o'sha tavsiflarni o'z ichiga olgan parchani keltiramiz. «Uchinchi iqlim Sharqdan boshlanib, Xitoy mamlakatining shimolidan, so'ng Hind mamlakatidan va so'ngra Qobul va Kermon viloyatlaridan o'tadi. To'rtinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Tibetdan, so'ngra Xurosondan o'tadiki, bunda Xo'jand, Ushrushona, Farg'ona, Samarqand, Balx, Buxoro, Hirot, Amuya, Marvarrud, Marv, Saraxs, Tuye, Nishopur shaharlari bor. Undan so'ng Jurjon, qumis, Tabariston, Demovand, Qazvin, Dailam, Ray, Isfahondan o'tadi. Beshinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatidan boshlanadi, so'ng Xurosonning shimolidan o'tadi, unda Toroz shahri - savdogarlar shahri bor, Navokat (Navkat), Xorazm, Isfijob (Sayram), Turar-band (O'tror-hozirgi Aris) va Ozarbayjon, Arminiya (Armaniston) viloyati, Barda'a (Barda), Nashava (Naxchivon) shaharlari bor. Oltinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Yajuj mamlakatidan o'tadi, so'ng Xazar mamlakatidan (Shimoliy Kavkaz va quyi Volga bo'yi), Jurjon (Kaspiy) dengizining o'rtasidan kesib o'tadi va Rum (Vizantiya) mamlakatigacha boradi. Yettinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatining shimolidan boshlanadi, so'ng turkiy mamlakatlardan (Markaziy Osiyo), so'ng Jurjon dengizining shimolidan, so'ng Rum dengizini (Qora dengiz) kesib, saqlablar (slavyanlar) mamlakatidan o'tadi va g'arb dengizida (Atlantika) tugaydi». Keltirilgan parchadan ko'rinadiki, al-Farg'oniy katta kenglikdagi o'lkalarni tavsiflagan bo'lsa ham, o'zining asl vatani Movarounnahrni mufassalroq tavsiflagan. Undan tashqari shuni ham ta'kidlash kerakki, al-Farg'oniyning rub'i ma'mur haqidagi tasavvuri ancha aniq bo'lib, har xil afsonaviylikdan xolidir. Chunonchi, u Yajuj mamlakati deb Sharqdagi afsonaviy yerni emas, balki hozirgi Mo'g'ulistonning sharqi va Xitoyning shimoli-sharqiga mos keladigan aniq geografik hududni aytgan. Daryolar, ko'llar, suv omborlari va kanallarda suv sathini o'lchab, yozib boradigan eng zamonaviy "Valdey" yoki okean va dengizlar suv sathini o'lchaydigan

¹³³ Аҳмедов А. Аҳмад ал-Фарғоний. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. Б. 40.

"Rordansa" tipidagi qurilmalar al-Fargʻoniy kashf etgan "Miqyos an-Nil" qurilmasidan andoza olib tayyorlangan¹³⁴.

Fargʻoniyning nomi Xorazmiy kabi butun Sharq va gʻarbda mashhurdir. Oʻrta asrda tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qoʻshgan olim sifatida manbalarda, soʻnggi gʻarb va Sharq mualliflari asarlarida, oʻz yurti Oʻzbekistonda, ayniqsa, zoʻr gʻurur va iftixor bilan tilga olinadi, oʻrganiladi, hozirgi kunda koʻchalar, oʻquv yurtlariga uning nomi berilgan. Bulardan tashqari buyuk vatandoshimiz Ahmad al Fargʻoniy taklif etgan suv sathini santimetr aniqlikda oʻlchash usuli hozirgi kunda ham dunyo gidrologiyasida qoʻllaniladi. 1998-yilda Oʻzbekistan Respublikasi Prezidentining farmoni bilan allomaning 1200 yillik tavallud sanasi katta tantanalar bilan nishonlandi¹³⁵.

Abdulloh ibn Amajur at-Turkiy va uning oʻgʻli Abu-l-Hasan Ali fargʻonalik falakiyotchi olimlardan boʻlib, bizning adabiyotlarda ularning hayoti va faoliyati, ilmiy merosi deyarli oʻrganilmagan. Oʻrta asrlarning mashhur, eng ishonchli deb tan olingan bibliograflaridan Ibn an-Nadim va Ibn al-Qiftiyalar oʻzlarining «al-Fixrist» va «Hakimlar tarixi» («Tarix al-hukama») kitoblarida bu olim haqida shunday deb yozadilar: «Abu al-Qosim Abdulloh ibn Amajur al-Haraviy Fargʻona xalqining farzandlaridan.

U zamonasining fozil va oʻz mavqyeiga ega boʻlgan ulamolaridan boʻlgan. Olim quyidagi foydali asarlarning muallifidir:

«Xatolardan xolis zij kitobi» («Kitob az-zij al-ma'ruf bil-xalis»), «Bogʻlab turuvchi zij kitobi» («Kitob az-zij al-ma'ruf bi-l-muzannir»), «Gʻaroyib zij» («az-Zij al-badi'iy»), «Oʻtmishlar ziji» («Zij al-mamarrat»), «Sindhind ziji» («Zij as-Sindhind»), «Qulning ziji» («Zij al-qini»), «Musofirga foydali kitob» («Kitab zad al-musafir»), «Fors erasi boʻyicha Mirrix (Mars) sayyorasi uchun zij» («Kitab zij al-Mirrix ala at-tarix al-fari-si»)).

¹³⁴ Ахмедов А. Ахмад ал-Фарғоний. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. Б.43.

¹³⁵ Maqolaning internetdagi doimiy manzili: http://old.ziyanet.uz/uzc/people/a'mad-al-fargoniy_uzl/

Manbalardan ma'lumki, bu olimning Abu al-Hasan Ali ibn Abu al-Qosim ismli o'g'li bo'lib, u ham astronomiyaga qiziqqan. Bundan tashqari Ibn al-Qiftiy Amajur oilasiga tegishli uchinchi shaxs, ya'ni Ali ibn Amajurning ham astronomik kuzatish ishlari bilan shug'ullanganini e'tirof etadi.

O'rta asrlarning yirik astronomlaridan Ibn Yunus as-Sadafiy (950-1009) olimga nisbatan uning turkiy nasabdan bo'lganligini anglatuvchi «at-Turkiy» so'zini ham ishlatadi va o'z risolalarining birida Amajurlar tomonidan amalga oshirilgan quyosh va Oyning tutilishi hamda ba'zi sayyoralarni kuzatish tajribalarini bayon etadi.

U keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, olimlar balandlikda joylashgan to'rt tomonni kuzatish mumkin bo'lgan maxsus maskanda ish olib borganlar. Unda kuzatish ishlarida mo'ljallangan ma'lum belgilangan yo'nalishni ko'rsatuvchi maxsus uzun tuynuk ham mavjud bo'lib, bu bino rasadxona vazifasini bajaruvchi zaruriy qulayliklarga ega bo'lgan.

Abdulloh ibn Amajur at-Turkiy, uning o'g'li va yordamchisi Muflih ibn Yusufklar quyosh tutilishini kuzatish jarayonida o'n ikki daraja va bir darajaning to'qqizdan birini ko'rsatib bergan jihozdan foydalanganlar. Jihozdan bir darajaning to'qqizdan bir qismini aniqlash imkoniyati borligi uning mukammal moslama ekanligidan dalolat beradi.

Amajurlar quyosh, Oy, turg'un yulduzlar va sayyoralarni kuzatish bilan bog'liq bo'lgan tajribalarini asosan Bag'dod va qisman Sheroz shaharlarida olib borganlar (Olimning ismiga qo'shib aytiladigan «al-Hiraviy», ya'ni «hirotlik» so'zi u Hirot shahrida ham faoliyat ko'rsatgan, degan taxminni bildiradi). Yuqoridagi tajribalarni bajarish o'z mohiyatiga ko'ra uzoq vaqtni talab etganligi uchun ham ba'zi adabiyotlarda mazkur allomalar o'z tajribalari ustida ellik yilga yaqin ishlaganlar, deb ko'rsatiladi.

Ular o'z tajribalarining natijasi sifatida yuqorida nomlari zikr etilgan qator astronomik risolalar va jadvallarni ta'lif etganlar. Bu asarlarning aksariyati bizgacha

yetib kelmaganiga qaramasdan, Amajurlarning ikki qo'lyozma asari xorijiy mamlakatlar kutubxonalarida saqlanadi va ular quyidagilardan iborat:

1. «Sayyoralarning tutilishi va bog'lanishi haqida (astrologik) oldindan aytib berishlar majmuasi» («Javami' ahkam ad-kusufat va-l-qiran al-kavakib»). Risola Parij va Leydenda saqlanadi¹³⁶.

2. «Taylasan ziji» («Zij at-Taylasan»). Bu qo'lyozma faqat Parijda saqlanib qolgan. Yuqoridagi «taylasan» so'zi arab tilida -bo'yinni quyosh nuridan himoya qilish maqsadida salla ustidan yelkagacha tashlab yuriladigan ro'molni anglatadi. Shu sababdan ba'zi adabiyotlarda muallifning bu risolasi «Ro'mol ziji» deb tarjima etilgan. Bu zij hozirga qadar o'rganilmaganligi sababli unga nima maqsadda bunday nom berilganligi aniqlanmagan¹³⁷.

Manbalarda Abdulloh ibn Amajur at-Turkiyning tavallud topgan va vafot etgan yili haqida ma'lumotlar saqlanmagan. Shuning uchun ham uning yashagan davrini IX-X asrlar deb taxmin qilish mumkin.

Markaziy Osiyo xududi tarixini tadqiq etar ekanmiz, avvalo ushbu xudud taraqqiyotida o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida katta o'rin tutgan shaharlarning muayyan bir davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mavqeini o'rganish alohida ahamiyat kasb egadi. Ana shunday shaharlardan biri IX—XII asrlarda gullab yashnagan va Farg'ona poytaxt shaharlari qatorida turgan - Axsikent shahri xisoblanadi. Bugungi kunda ushbu shahar xarobalari Namangan viloyatining To'rako'rg'on tumani xududida joylashgan. Axsikent Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib. uning xarobalari Gulqishloq va Shaxand qishloqlari oralig'idadir.

Umuman olganda, Axsikent shahrining IX—XII asrlardagi Markaziy Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xayotida tutgan mavqei to'g'risidagi ma'lumotlarni shu davrga oid arab, xitoy va qisman fors tilidagi manbalardan olish mumkin. Arab manbalarida haqqoniy va ancha ilmiy-tizimlashtirilgan ma'lumotlar aynan IX asrdan

¹³⁶ Абдуҳалимов Б. Байт Ал-Ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. - Тошкент, 2010. Б. 230.

¹³⁷ Maqolaning internetdagi doimiy manzili: http://old.ziynet.uz/ru/people/abdullo'-ibn-amajur-at-turkiy_uzl/

boshlab uchray boshlaydi Ushbu davrda arab tilidagi tarixshunoslik ilmi, tarixiy va geografiya; manolib va boshqa o'nlab janrlarda alohida tarixnavislik an'analari shakllanadi va o'z qoidalari asosida rivojlana boshlaydi.

Axsikent shahri haqida IX asrdan boshlab arab georafik manbalar dastlabki to'liq va mukammal ma'lumotlarni bera boshlaganlar. Jumladan. Kuloma, Istaxriy, Ibn Xavkal, Al-Muqaddasiy va boshqalar tomonidan Axsikent shahri to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan va shahar nomi Axsikat tarzida berilgan.

Arab tilidagi geografik manbalar viloyatni quyidagi so'zlar bilan tasvirlaganlar: «Farg'onaga kelsak, u sizga pastga burilishga yetmasingizdan avval sharqiy qismda mintaqaning burchagidagi joylashgan viloyatdir. U gullab yashnagan viloyat bo'lib, aytishlaricha unda 40 dan ziyod masjid bor. Uning poytaxti Axsikat [bo'lib], uning shaharlari ichida. Miyonrudiyya (Miyon Rudon), Nasrobod. Manora, Ranjad, Shikit, Zorakon, Xayralom, Bishabishon, Ushtekon, Zarandaromish. Uzkan [kabilar uchraydi]. Naso shaharlari katoriga O'sh, Kubo, Birink, Marginon, Rishton, Vonkat, Qand [kabilar o'rin olgan]. Vog'az shaharlariga kelsak, ular Bukand, Koson, Bob, Jorak, Usht. Tubkor, Uvol, Dakarkard, Navkod, Muskon, Bikon, Ishxijan, Jidgil, Shovadon hisoblanadi. Isfijob viloyatni chegarasiga yaqin bo'lib, tekislikda joylashgan viloyatdir».

Axsikent shahrida mustahkam devor bilan o'rab olingan kuxandiz (qal'a) va rabod bo'lganligi aytiladi. Shahriston qismiga to'rtta darvozadan kirilgan. Bu paytda Axsikent deyarli barcha arab manbalarida Farg'ona viloyatining poytaxt shaharlaridan, biri sifatida tasvirlanadi. Arab manbalarining ko'pchiligi shimoliy Farg'onada joylashgan Axsikentni asosan siyosiy elita yashaydigan poytaxt shahar sifatida tasvirlagan bo'lsalar, Quva (Qubo) ko'proq iqtisodiy rivojlangan poytaxt tarzida izohlangan. Qoraxoniylar davrida Farg'ona viloyatida O'zgan shahrining mavqe'i oshib ketganligiga qaramasdan Axsikent va Quva shaharlari ham o'z ta'sirini yo'qotmagan edilar.

Axsikent shahrida ilm-fan ham rivojlangan bo'lib, unda bir qator madrasalar

faoliyat ko'rsatgan. Ko'chmanchi qirgizlar. Qashqar, Pomir vakillari Axsikent madrasalarida ta'lim olganlar. Axsikentlik olimlar mana shu davrda butun musulmon olamida shuhrat qozonganlar¹³⁸.

Ma'lumki. XI-XIII asr boshlarida O'rta Osiyo ilm-fan taraqqiy etgan xududlardan biri xisoblangan. Ushbu xududda madaniyatning rivojlanishida Koraxoniy (992-1212), Saljuqiy (1038-1194) va Xorazmshohlar (1097-1231) davlatlarining xukmdorlari yuritgan siyosati muhim o'rin tutgan. O'sha davrda O'rta Osiyoga mintaqaning turli joylaridan kelgan olim va ulamolar faoliyat yuritgan bo'lib, bular orasida farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan fiqhshunos olimlar ham bo'lgan. Ushbu davrda davlatlararo siyosiy, iqtisodiy madaniy alokalarni olib borilishi va mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy barqarorlikni ta'minlanishi, Markaziy Osiyoda yirik madaniy markazlarning shakllanishiga turtki bo'lgan. Buni biz mintaqadagi Samarqand, Buxoro, Kesh, Marv, Urganch va boshqa shu kabi madaniy markazlari misolida ko'rishimiz mumkin¹³⁹.

Qoraxoniylar sulolasi davrida Movarounnahr O'rta Osiyoning taraqqiy etgan madaniy markazlaridan biri xisoblangan. Bu vaqtda Movarounnahrda ilm-fanning turli sohalari kabi fiqh ilmi ham rivojlangan bo'lib, bu yerda maxsus fiqh maktabi shakllangan. Ushbu maktabda boshqa fiqhshunos olimlar bilan bir qatorda Farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan olimlar ham faoliyat olib borganlar. Jumladan, Abdulaziz ibn Abdurrazzoq al-Marg'inoniy (vaf. 477/ 1085), Xasan ibn Mansur ibn Maxmud Faxruddin Qozixon al-O'zgandiy al-Farg'oniy (vaf. 592/ 1196). Abu-l-javd Ato ibn Ahmad ibn as-Sodik al-Xolidiy al-Kosoniy, Muhammad ibn al-Xasan Burxoniddin al- Kosoniy (vaf. XII). Bakr ibn Sulaymon ibn Imron ibn Ilyos al-Kosoniy (vaf. 513/1120 yildan keyin). Al-Amir al-imom Abu-l-Ma'ali Kays ibn

¹³⁸ Мамадалиев Х. Ахсикент шаҳри IX-XII асрларда Фарғона водийсининг ижтимоий-иқтисодий ва маданий марказларидан бири сифатида // "Фарғона водийси тарихи муаммолари" республика илмий анжумани материаллари. Наманган. 2012. Б. 99.

¹³⁹ Авазова Ж. XI-XIII аср бoshларида Фарғона водийсидан етишиб чиққан олимлар фаолияти // "Фарғона водийси тарихи муаммолари" республика илмий анжумани материаллари. Наманган. 2012. Б. 104.

Isxoq ibn Muhammad ibn Amirak al-Marg'inoniy (vaf. 526/1132) va Abu Ali al-Xusayn ibn Ali ibn Abu-l-Qosim al-Marg'iloniy al-Farg'oniy (441/1049-522/1128) kabilardir.

XI asrdan boshlab Movarounnahr fiqh maktabining udumlari asosida Marv va Xorazm fiqh maktablari vujudga kelgan. Xususan, saljuqiylar sulolasi davrida Marv shaxri Xurosonning ilm-fan yuksalgan xududlardan biri bo'lgan. Marv madrasalarida ham bir qancha mashxur farg'onalik fiqhshunos olimlar va adiblar ta'lim olganlar. Jumladan, shunday olimlardan biri Axsikatda tug'ilib o'sgan, va Marvda taxsil olgan olim Abul Vafo Muhammad ibn Muhammad ibn Kosim Axsikatiydir (vaf- 1126). U adib va shoir, imom. til va tarix olimi bo'lib, tarix va adabiyot ilmlari bilimdoni sifatida shuxrat qozongan Abul Vafo al-Axsikatiy arab tili ilmini mukammal bilgan olimlardan bo'lgan'

Shuningdek, Marv madrasalarida ta'lim bergan va xurosonlik olimlarga ustozlik qilgan bir qator farg'onalik olimlar ham mavjud bo'lgan. Jumladan, shunday shaxslar sirasiga Muhammad Axsikatiyning ukasi Zu-l-Fazoil Axmad ibn Muhammad ibn Kosim Axsikatiyni kiritish mumkin (456/1073-528/1134). U o'sha davrda yashab ijod qilgan adib va shoir bo'lib, adib nazm, nasr va tarixnavislikda nom qozongan, hamda sultonlar devoni kotibi sifatida faoliyat yuritgan. U ko'plab xurosonlik olimlarga ustozlik qilgan. Olimning bir qancha asarlari mavjud bo'lib. bular quyidagilardan iborat: «Kitob fi-t- tarix» (Tarix sohasiga oid kitob). «Kitob fi kavlihim» (Ularning so'zlari xaqidagi kitob), «az-Zavoid fi sharx soqat az-zand l-il-Ma'riy».

Yana shunday Farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan olimlardan biri Abu Rashod Axmad ibn Muhammad ibn al-Qosim Axsikatiydir (406/1067-535/1140). U faqih tilshunos, adib va tarixchi olim bo'lib. ko'plab xadislari bilgan va bir qator xurosonlik- ulamolarga ustozlik qilgan. Shular qatorida Muhammad ibn Ya'qub ibn Abu Tolib al- Kosoniy (480/1088-555/1160) ham Saraxsda yashab ijod qilgan.

Xorazmshohlar davlati XI asr oxiri va XII asrning ikkinchi yarmiga qadar

saljuqiylar davlatiga tobe bo'lsa-da, Xorazmda ham ilm-fan rivojlangan. Bu davrda Xorazm fiqh maktabi Balx, Saraxs. Marv, Juzjon xanafiya fiqh maktablarining davomi sifatida mustaqil shakllangan, xatto, Farg'ona O'sh, O'zgand fiqh maktabi vakillari Qarashlariga ta'sir ko'rsatgan. Buning sababi, XIII asr boshida Muhammad Xorazmshoh Qoraxoniylar davlatini o'z mamlakati tasarrufiga qo'shib olib¹⁴⁰, bu yerdagi mashxur, fiqhshunos olimlarni Samarqand va Urganchga olib ketgan, Xorazm hukmdori farg'onalik olimlarga hurmat-extirom ko'rsatib, ularni yuksak shayx ul-islom, qozikalon va boshqa shu kabi mansablarga tayinlagan. Xususan, buni taniqli adib Malikul-ulamo Abul- Muzaffar Mas'ul ibn Muhammad ibn Sadid Xo'jandiyni lashkarboshi bo'lganligida ko'rish mumkin¹⁴¹. Bu xolat shundan dalolat beradiki, Muhammad Xorazmshoh o'z davrida ilm-fanni qadrllovchi ma'rifatparvar hukmdor bo'lgan. Shuningdek, xorazmshohlar zamonida faoliyat ko'rsatgan mashxur fiqhshunos olim Imom Burxoniddin Abu-l-Xasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdualil al-Farg'oniy al- Marg'inoniydir (1123-1197). Burxoniddin Marg'inoniy o'z davrida xanafiya mazxabi bo'yicha buyuk faqixi darajasiga ko'tarilgan va shayxu-l-islom lakabiga sazovor bo'lgan. Uning «Xidoya» asari mashxur bo'lib, deyarli barcha tillarda tarjima kilingan . Yana shunday axsikatlik olimlardan biri Asiriddin Axsikatiy (vaf. 1184) xorazmshohlar zamonasida yashagan atoqli shoir va ulamolardan biri bo'lgan. Uni «Sultonul fuzalo» («fozillar sultoni») deb atashgan. Manbalarda yozilishicha, u riyoziyot, kimyo. tib, astronomiya, ilmi nujum, falsafa va grammatika soxalarida mukammal bilimga ega bo'lgan. Asiriddin Abul Fazl Muhammad ibn Toxir Axsikati asli Farg'ona viloyatining Axsikat shahridan edi. U, g'azalni qadrllovchi homiylarni Ozarbayjondan topgan. Bu yerda Xoqoniy bilan tanishgan va unga ergashib qasidalar yozgan. Uning bizgacha faqat sakkiz ming baytga yaqin hajmdagi devoni yetib kelgan¹⁴².

¹⁴⁰ Бунёдов З. Ануштегин – Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). – Тошкент: Ғофур Ғулом, 1998. Б. 140.

¹⁴¹ Ўша манба.Б.153.

¹⁴² Авазова Ж. XI-XIII аср бошларида Фарғона водийсидан етишиб чиққан олимлар фаолияти // ”Фарғона водийси тарихи муаммолари” республика илмий анжумани материаллари. Наманган. 2012. Б. 105.

Farg'ona fiqh maktabining yirik vakillaridan yana biri Faqih Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Xusomiddin al-Axsikatiydir (vaf. 624/1227). U Abu Abdulloh kuniyasi bilan ham tanilgan. Xusomiddin al-Axsikatiy O'rta asrga oid bir qator manbalarda shayx maqomiga ega bo'lgan imom fiqh ilmining usul va furu' bobini chuqur egallagan zot deb ta'riflashgan. Xusomiddin, al-Axsikatiy asosan usul al-fiqh ya'ni fiqh ilmining asoslari, manbalari bilan shug'ullangan. Uning fiqh ilmiga bagishlangan bir qancha asarlari mavjuddir Ular «al-Muxtasar fi Usul al-fiqh» (Fiqh ilmi asoslari xaqidagi qiskartma), «Miftax ul-Usul» (Fiqh ilmi asoslari kaliti), «G'oyat ut-Tahqiq» (Izlanish chuqqisi), «Daqai'q ad-Usul-va-t-Tabyin» (Manbalardagi aniqlik va anglatish) asarlaridan iboratdir.

Shuningdek. bir qator farg'onalik fiqhshunos olimlar ya'ni Abu-l-Muzaffar Baxrom al-Mushtab ibn Muhammad ibn Usoma ibn Zayd ibn an-Nu'mon ibn Muhammad ibn Sufiyon al-Farg'oniy (414/1024-486/1093). Abu Bakr Muhammad ibn Hamavayx ibn Xadid ibn Xorun ibgg Idris ibn Abdulloh al-Farg'oniy va Abdulloh ibn Ali ibn Soin ibn Abdujalil ibn al-Xalil ibn Abu Bakr al-Farg'oniylar (551/1156-616/1220) Bag'dodda faoliyat ko'rsatib, asosan muhaddislik bilan shug'ullanganlar.

Bundan tashqari, fiqhshunos olimlardan yana biri Alouddin Kosoniy (vaf. 1191) hisoblanadi. Uning to'liq ismi Abu Bakr ibn Axmad al Kosoniy bo'lib, Malik al-ulamo (Olimlar podshohi) laqabi bilan mashxur bo'lgan xanafiy faqihidir. U Koson shahrida tug'ilganligi sababli ham unga Kosoniy nisbasi berilgan. Alouddin Kosoniy Buxoroga kelib u yerda ustozlari Imom Alouddin Muhammad ibn Abu Ahmad as-Samarqandiydan (vaf. 539/1144) ta'lim olgan. U ustozining «Tuxfatu-l-fuqaxo» nomli asariga sharx yozgan. Shuningdek, u uzining shoh asari bo'lgan «Badon»ni yozib uni ustoziga taqdim etgan. Alouddin Kosoniy faoliyati davrida turli mamlakatlarga ya'ni Ko'n'yo va Xalab kabi shaharlarga safar kilib, u yerda madrasalarda ta'lim bergan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonning boshqa xududlari kabi Fargona vodiysidan yetishib chiqqan olimlar ham mintaqa ilm-fani rivojlanishiga katta xissa qo'shganlar. Xususan, Farg'ona fiqh maktabi vakillarining ilmiy merosini o'rganish bugungi kun uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Farg'ona vodiysi nafaqat O'zbekistonda, shu bilan birga Markaziy Osiyodagi yirik tarixiy-madaniy hudud hisoblanadi. Bu mintaqa ham barcha hududlarda bo'lganidek, tarixiy taraqqiyotning jamiyki rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirgan. Vodiydagi shunday tarixiy taraqqiyot bosqichlaridan biri Farg'ona vodiysining o'rta asrlar tarixi hisoblanadi.

Farg'ona vodiysining o'rta asrlar tarixi V-XIII asrlarni o'z ichiga oladi va shu davr oralig'idagi moddiy madaniyatning rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, yuritimizning davlatchilik tarixida muhim o'rin tutgan Farg'ona davlati davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, moddiy va madaniy taraqqiyotni qay darajada rivojlanganligini yozma manbalar arxeologik topilmalar misolida ko'rsatib beradi.

Ushbu davr umuman Farg'ona tarixi bo'yicha tadqiqotlar o'tgan asrning 30-yillarida boshlangan. Farg'onaning qadimgi tarixini o'rganish bilan B.A. Latinin, A.N. Bernshtam, N.G. Gorbunova kabi olimlar shug'illanishgan. Barchasi o'zlarining tadqiqotlari asosida xulosalarini berishgan.

Farg'ona vodiysining o'rta asrlar tarixi Eftaliylar hukmronligi davrida mintaqa xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya uchun muayyan imkoniyatlar paydo bo'lgan edi. Eftaliy hukmdorlarining mahalliy hokimliklar (Sug'd, Farg'ona, Choch, Ushrushona, Tohariston va b)ning ichki ishlariga aralashmasligi, ularning faol tashqi aloqalar olib borishlari uchun zamin yaratdi. Qolaversa, Eftaliylarning O'rta Osiyo hududlarini Sosoniylar xurujidan himoya etganligi, mahalliy hokimliklarning barqaror rivoji uchun muhim omil bo'lgan edi. Farg'onada VII asr boshlariga kelib, Turk xoqonligining Ashina xonadoniga mansub sulola tashkil topadi va bu sulola arablar istilosidan keyingi davrlarda ham o'z mavqeyini yo'qotmaydi. Farg'onadagi turkiy sulolaning boshqaruv markazlarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega.

VII asrga kelib mintaqamizga Arab xalifaligi qo'shinlari bostirib keldi va islomlashtirish harakati boshlandi. Ammo oradan bir asr o'tgandan so'ng ham ayniqsa vodiylar aholisi islomni qabul etmay, o'z e'tiqodlarida sobit turdilar. Mintaqamizning arablar tomonidan bosib olinishi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda dastlab bir qancha qiyinchiliklarga olib kelgan bo'lsada, ko'p fursat o'tmay G'arbda Ispaniyadan Sharqda to Xitoy chegaralarigacha bo'lgan mintaqani o'z ichiga olgan buyuk davlat – Xalifalikning bir qismi bo'lganligining ijobiy tomonlari mayda davlatlar o'rtasidagi nizolarning bartaraf etilishi umumjahon savdo aloqasida ishtirok etish, umumiy pul muomalasi kabi tomonlarini ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, O'rta Osiyoga hududiy va madaniy jihatdan taalluqli bo'lgan Farg'ona davlati va unda hukm surgan qadimiy Kushon sulolasi to IX asr boshlarigacha o'z mustaqilligini saqlab qolgan holda, istilochilarga doimo qarshilik ko'rsatib vodiyni muhofaza etib kelishgan. Turkiy xalqlarning vodiylarga ko'chib kelishi

bilan bu yerda o'ziga xos ijtimoiy, madaniy hayot, o'ziga xos davlatchilik tuzumi shakllangan.

Somoniylar davriga kelib Farg'ona alohida davlat maqomini yo'qotdi. Endi u markazlashgan davlatning bir bo'lagi sifatida oliy hukmdorning vodiydagi voliysi idora eta boshladi. Shuni alohida aytish kerakki, somoniylar davrida vodiylar turli udellarga bo'lib yuborilmay yaxlit mulk sifatida boshqarildi. Shuningdek, aynan Somoniylar davrida vodiylar turkiy qabilalarning nufuzi oshib, ular vodiylar hayotida yetakchi kuchga aylandi. Turk xoqonligi davrida vodiylar xoqonlikka bo'ysunib mahalliy sulolalar saqlab qolingan bo'lsa, X asrga kelib Turk sipohsolorlarining bir necha avlodi vodiyni boshqardi. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, Somoniylar zamonida Farg'ona viloyati arab mualliflari tomonidan O'rta Osiyoning, xususan, Movarounnahrning o'troq viloyati sifatida qayd etilgan. U Yuqori Nasya, Quyi Nasya, Asbara, Naqod, Miyon Rudon, Jidg'il, Urast, Biskand va Salot kabi tumanlarga bo'lingan. Axsikat, Qubo, O'sh, O'zgand, Xaylam kabi shaharlar IX-X asrlarda Farg'onaning eng yirik shaharlaridan bo'lgan. Shuningdek, Farg'ona viloyatida Vankat, Suj(x), Xuvokand, Rishton, Koson, Karvon, Madvo, Marg'inon, Andukon va boshqa shaharlar ham mavjud bo'lgan.

X asr oxiriga kelib vodiylar Qoraxoniylar tomonidan zabt etiladi. Movarounnahrning darvozasi hisoblangan Farg'ona vodiysining egallanishi, O'rta Osiyo taqdirini amalda hal etdi. Sharqiy Turkiston va Movarounnahr orasida alohida udellarga aylangan Farg'ona X-XIII asrlarda siyosiy tarqiqiyotda o'ziga xos taraqqiy etdi.

Movarounnahr shu jumladan Farg'ona arab xalifaligi tarkibiga kiritilganidan so'ng bu yerlarda xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida biror muddat turg'unlik yuz beradi. Bu yerda kushonlar davridayoq boshlangan feodallashtirish jarayoni arablar istilosi davrida biroz to'xtab qoladi. Bu davrda xalifalikning markaziy qismlari – Iroq,

Suriya va Misrda feodal munosabatlar jadal rivojlanadi¹⁴³. VII asr boshida arab jamiyati hali ijtimoiy tuzumning qabila – urug’chilik bosqichida turgan bo’lsa, markazlashgan yagona xalifalik shakllanishi bilan xalifalikning ilg’or viloyatlarining xo’jalik , iqtisodiy va madaniy yutuqlarini o’zlashtirish natijasida u feodal munosabatlarga to’laqonli kirishadi¹⁴⁴. Shunga ko’ra, VIII asr o’rtalarida xalifalikning markaziy viloyatlarida feodalizm Movarounnahrdagiga nisbatan ancha yuqori pog’onaga ko’tarilgan edi. Lekin xalifalikning yagona iqtisodiy doirasiga kirish, qishloq xo’jalik ishlab chiqarishining rivojlanishi, xalifalikning boshqa viloyatlari bilan faol savdo munosabatlari olib borish natijasida VIII asr oxirlaridan shaharlar rivojlanib va ishlab chiqarish kuchlari taraqqiy topib, Markaziy Osiyoning boshqa yerlaridagi kabi vodiya ham taraqqiy etgan feodalizm bosqichi boshlandi. Farg’ona vodiysi siyosiy markaz bo’lmagani uchun tarixiy manbalarda u haqda ma’lumotlar kam uchraydi. Ammo IX-X asrlar arab manbalarida Farg’ona shaharlari, iqtisodiy hayoti to’g’risida qiziqarli va qimmatli malumotlar uchraydi. Al-Muqaddasiy, Ibn Xavqal, Ibn Xurdodbeh asarlarida Somoniylar davrida Farg’onaning bir necha noxiyalar (tuman)ga bo’lingani, ulardagi shaharlar va yirik qishloqlarning nomlari hamda ularning tavsifi keltirilgan.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO’YXATI

I. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlari

- 1.1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. – Toshkent: Sharq, 1998. 30 b.
- 1.2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. t.7. – Toshkent: O’zbekiston, 1999. 143 b.
- 1.3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 176 b.

¹⁴³ Ахмедов А. Ахмад ал-Фарғоний. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. Б. 26.

¹⁴⁴ Ўша жойда.

1.4. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari –oliy qadriyat. 14-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. 187 б.

II. Manbalar

- 2.1. Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев // Мерос. – Тошкент: Камалак, 1991.
- 2.2. Ал-Балазури. Китаб футух ал-булдан (Книга завоевания стран) Пер. Ш. Закирова // Материалы по этнической истории тюркских народов Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 2003. с. 123-235.
- 2.3. Ибн Хордатбех. Книга путей и стран. Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Н.Велиховой. Баку. Элм, 1986. 277 с.
- 2.4. История ат-Табари / Пер. с араб. В.И. Беляева с доп. О.Г. Большакова, А.Б. Халидова. – Ташкент: Фан, 1987. 440 с.
- 2.5. Исҳоқхон Жунайдуллоххўжа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. Мерос . – Тошкент: Камалак, 1991. б. 181-229.
- 2.6. Ибн Хаукал. Китаб сурат ул-арз.(пер. с арабского О. Флоровой) // Материали по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. б. 18-20.
- 2.7. Ибн Ҳавқал. Китаб сурат ул-ард. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. 231 б.
- 2.8. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Таърих (Полный свод истории) Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечания и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. 559 с.
- 2.9. Абу-л-Фадл ибн Мухаммад Джамал ад-Дин Карши. Мулкахат ас-сурах (пер с персидского Р.Ш. Шарафутдиновой) // Материали по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. с. 100-131.

III. Адабиётлар

- 3.1. Аҳмедов А. Аҳмад ал-Фарғоний. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. 234 б.
- 3.2. Анарбаев А. Ахсикат – столица древний Ферганы. – Ташкент: Тафаккур, 2013. 572 с.
- 3.3. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. 197 б.
- 3.4. Абдуҳалимов Б. Байт Ал-Ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. – Тошкент, 2010. 243 б.
- 3.5. Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). – Ташкент: изд-во АН Уз ССР, 1951. 49 с.
- 3.6. Бунёдов З. Ануштегин – Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). – Тошкент: Гофур Ғулом, 1998. 251 б.
- 3.7. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). Фарғона, 2013. 288 б.
- 3.8. Алмас Т. Уйгуры. Кн.2. – Алма-Ата, 1994. 351 с.
- 3.9. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – Москва: Наука, 1970. 310 с.
- 3.10. Кляшторный С.Г. Древнетюркская руническая надпись на бронзовом перстне из Ферганы // Археологические работы в Таджикистане 1957 году. Вып. IX. – Сталинабад, 1959. с. 43-98.
- 3.11. Бартольд В.В. К истории арабских завоеваний в Средней Азии // Соч. – Москва: Наука, 1964. Т. II (2).
- 3.12. Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. – Москва: Наука, 1963. Т. I (1). 763 с.
- 3.13. Булатова В.А. Древняя Кува. – Ташкент: Фан, 1972. 146 с.
- 3.14. Гафуров Б.Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн I. – Душанбе: Ирфон, 1989. 378 с.

- 3.15. Гафуров Б.Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн II. – Душанбе: Ирфон, 1989. 386 с.
- 3.16. Шаниязов К. Узбеки-карлуки. – Ташкент: Фан, 1964.
- 3.17. Хўжаев А. Буюк Ипак Йўли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашр., 2007. 370 с.
- 3.18. Кадырова Т. Из истории крестьянских движений в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в. – Ташкент: Фан, 1965. 238 с.
- 3.19. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент: Фан, 1997. 360 с.
- 3.20. Матбабаев Б.Х. К истории культуры ферганы в эпоху раннего средневековья. – Ташкент, 2009. 120 с.
- 3.20. Лившиц В. А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья.-Санкт-Петербург, 2008. 238 с.

IV. Илмий мақолалар

- 4.1. Абдуллаев У.С. Антик ва илк ўрта асрларда Фарғона водийсида этно-сиёсий аҳвол “Фарғона водийси тарихи муоммоалари” мавзuidaги республика илмий анжумани материаллари. Наманган. 2012. б. 22-26.
- 4.2. Матбобоев Б.Х. Илк ўрта асрлар жамиятида маданий жараёнлар: Маҳобатли санъатнинг шаклланиши (Фарғона водийси мисолида) // “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзuidaги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона, 2014. б. 39-42.
- 4.3. Бобоёров Ғ. Турк хоқонлигининг Мовароуннахрдаги бошқарув тизими ҳақида // Ўзбекистон тарихи, 2000, №4. б. 14-19.
- 4.4. Отахўжаев А. Фарғона подшоси Алутарнинг илк ўрта асрлар тарихидаги ўрни // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзuidaги иккинчи республика илмий анжумани. Фарғона. 2012. б. 148-154.

- 4.5. Хотамова М Фарғонада туркий сулола // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги учинчи республика илмий анжумани. Фарғона, 2014. б. 81-88.
- 4.6. Ходжаев А. Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Шаш (Ташкент) // Ўзбекистон тарихи. 2005. № 2. с. 13-19.
- 4.7. Отахўжаев А. Эфталлийлар ҳукмронлиги даврида Фарғонанинг дипломатик алоқалари // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги учинчи республика илмий анжумани. Фарғона, 2014. б. 156-161.
- 4.8. Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Фарғонанинг халқаро муносабатларда тутган ўрни // “Фарғона водийси тарихи муаммолари” республика илмий анжумани материаллари. Наманган. 2012. б. 93-96.
- 4.9. Камолиддин Ш. Фарғона қадимда ва ўрта асрларда // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги учинчи республика илмий анжумани. Фарғона, 2014. б. 33-39.
- 4.10. Гоибов Б. Согд – Фергана – Китай: приоритетные торговые связи// “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги учинчи республика илмий анжумани. Фарғона, 2014. с. 137-144.
- 4.11. Мамадалиев Ҳ. Ахсикент шаҳри IX-XII асрларда Фарғона водийсининг ижтимоий-иқтисодий ва маданий марказларидан бири сифатида // “Фарғона водийси тарихи муаммолари” республика илмий анжумани материаллари. Наманган. 2012. б. 98-100.
- 4.12. Бернштам А.Н. Тюрки и Средняя Азия в описаниях Хой Чао (726) // ВДИ. №1. Москва, 1952. с. 43-61.
- 4.12. Авазова Ж. XI-XIII аср бошларида Фарғона водийсидан етишиб чиққан олимлар фаолияти // “Фарғона водийси тарихи муаммолари” республика илмий анжумани материаллари. Наманган. 2012. б. 104-107.
- 4.13. Давидович Е.А. Ферганские Саманиды по нумизматическим данным // ЭВ. Вып. XI. — М.–Л., 1956, с. 14–26.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

5.1. Бобоёров Г. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми.Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2012. Б. 257-310.

VI. Internet materiallari:

- 5.1. http://old.ziynet.uz/uzc/people/a'mad-al-fargoniy_uzl/
5.2. http://old.ziynet.uz/ru/people/abdullo'-ibn-amajur-at-turkiy_uzl/